

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

AXMAD BAXRIYEV

**MUSIQIY IJROCHILIK MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA
TINGLOVCHILIK MADANIYATINING IMKONIYATLARI**

Monografiya

Toshkent-2023

Mas’ul muharrir: **R.G.Qodirov**, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqiy pedagogika” kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar: **N.S.Kiyamov**, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Fakultetlararo pedagogika” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

M.M.Axmedov, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqiy pedagogika” kafedrası dotsenti v.b., pedagogika fanlari nomzodi

A.R.Baxriyev.

Musiqiy ijrochilik malakalarini rivojlantirishda tinglovchilik madaniyatining imkoniyatlari. – T., 2023. - 129 b.

Yosh ijrochilarning kasbiy shakllanishida musiqiy tinglovchilik malakalarini egallash muhim ahamiyatga ega. Tinglash orqali ijro etiladigan vokal yoki cholg‘u asarlarning tovush yo‘nalmasi, ohang va tonal xususiyatlari, badiiy mazmunini to‘laqonli anglash imkoniyatlari kengayadi, asarning dramaturgiyasi, badiiy g‘oyasi, emotsional-estetik mazmuni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijro etish va tinglovchiga emotsional-psixologik ta’sir ko‘rsatish darajasi yuksaladi. Monografiyada ushbu pedagogik-psixologik masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Monografiyadan maxsus musiqa ta’limining barcha bosqichlarida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘qituvchilar, shuningdek, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalanishlari imkoniyati mavjud.

Monografiya O‘zbekiston davlat konservatoriyasi O‘quv-uslubiy kengashining 2023 yil 27 oktyabrdagi №2 - sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan

© **Baxriyev A.R.**

MUNDARIJA

	KIRISH.....	4
I BOB.	YOSH IJROCHILARDA MUSIQIY TINGLOVCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.	
1.1-§	O‘smirlik va o‘spirinlik yoshidagi ijrochilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish pedagogik zarurat sifatida.....	7
1.2-§	Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	21
1.3-§	Musiqiy idrokning tinglovchilik madaniyati shakllanishidagi xususiyatlari.....	36
II BOB.	MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI, MAZMUNI VA MEXANIZMLARI.	
2.1-§	Musiqadagi badiiy-estetik mazmuni o‘zlashtirish imkoniyatlari namoyon etilishida sub’yektivlik xususiyatlari.....	53
2.2-§	Musiqiy ehtiyojlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	69
III BOB.	YOSH IJROCHILARDA MUSIQIY TINGLOVCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH.	
3.1-§	O‘quv mashg‘ulotlarida musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari.....	90
3.2-§	Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda shakl, janr va badiiy ifodani o‘zlashtirishning didaktik xususiyatlari.....	104
	Xulosa va tavsiyalar.....	118
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	120

KIRISH

Maxsus musiqa ta'limida musiqiy qobiliyatlarni, vokal va cholg'u ijrochiligi malakalarini rivojlantirish, musiqa asarlaridagi badiiy mazmun, emotsional ta'sir imkoniyatlarini kengaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yosh ijrochilarning musiqiy qiziqishlarini maqbul yo'naltirish, ijrochilik faoliyatiga nisbatan ijodiy malakalarini rivojlantirish, baliy tasavvur va tafakkurini rivojlantirish, musiqa o'qitishda axborot texnologiyalarini, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmini yaratish ustuvor vazifaga aylandi. Bu esa, innovatsion yondashuv asosida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uzluksiz maxsus musiqa ta'limida badiiy idrok, ijodiy tasavvur, musiqaga baholovchi munosabat – qiziqish, musiqiy did hamda musiqiylik masalasi tadqiqi, ta'lim oluvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha dunyoning bir qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida, xususan: De Montfort University (Angliya), Universitat Carnegie Mellon (AQSh), Universidad Complutense de Madrid (Ispaniya), Universität der Künste Berlin (Germaniya), Australian National University (Avstraliya), Gnesinlar nomidagi Rossiya musiqa akademiyasi (Rossiya)da fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jahon ma'sus musiqa ta'limi tizimida musiqa o'qitish metodikalarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda ijrochilik, musiqiy idrok xususiyatlari, persektiv jarayonlarda musiqaning kommunikativ imkoniyatlari, bu borada o'qitishning turli uslub va shakllari ishlab chiqilgan, ijrochilikda muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy-estetik tinglashning emotsional mazmun mohiyati, rivojlantirish mexanizmlari, yosh ijrochilarning badiiy ijodkorligini rivojlantirishda musiqiy qobiliyatlarning ahamiyati hamda amaliyotga tatbiq eta olish mahorati darajalari bo'yicha texnologiyalar (Norwegian University

of Life Sciences (Norvegiya)); ta'limning innovatsion texnologiyalari, o'qitishning noan'anaviy shakl, metod va vositalari, strategik texnologiyalarni qo'llash va ijtimoiy ta'limiy hamkorlik masalalari, o'quvchi (talaba) va o'qituvchi hamkorligini tizimli tashkil etish, o'zaro tajriba almashish dasturlari (Shaansi Normal University (Xitoy)); maxsus musiqa ta'limi kasb, ko'ngilochar san'at, ijtimoiy fan yoki ijtimoiy nufuz belgisi sifatidagi o'zaro ta'sir va o'zaro murakkab munosabatlar kontekstida (Jawaharlal Nehru University (Hindiston)); maxsus musiqa ta'limini musiqiy qadriyatlar rang-barangligi asosida tashkil etish (University of Porto (Portugaliya)); maxsus musiqa ta'limida o'quvchi (talaba)larning amaliy faoliyatiga asoslangan "o'zaro ta'sir" va "yo'naltirilgan ishtirok etish" masalasi (Uppsala University (Shvesiya)); bolalar musiqa ijodiyoti atrof-olamdagi "ohang bilan bog'liq voqealar" ierarxiyasi negizida (Université de Grenoble (Fransiya)); musiqadan zavqlana oladigan va u orqali o'zini ifodalay oladigan yoshlar shaxsining musiqiy rivojlanishi xususiyatlari (University of Bologna (Italiya)); musiqani idrok etishni tashkil qilish jarayonini faollashtirish (Open University of Israel (Isroil)); maxsus musiqa ta'limi orqali madaniyatli insonni tarbiyalash (Universidad Central de Venezuela (Venesuela)); musiqa ta'limida o'qitish metodlarini - kuzatish, taqlid, improvizatsiya jarayonida motivlar va harakatlarni takrorlash orqali musiqa materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirish hamda kechinmalar tarzida ongda aks ettirishga moslashtirish (Universidade Federal de Minas Gerais (Braziliya)) kabi pedagogik masalalar eksperimental o'rganilgan.

Respublikamiz maxsus musiqa ta'limi tizimida pedagogik, axborot va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish masalalari H.Nurmatov, F.N.Xalilov, N.S.Kiyamov, R.G.Qodirov, M.M.Axmedov, D.Yu.Saipova, A.E.Qo'shaev, I.J.Moyanovlar; milliy va mumtoz musiqaning o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari R.I.Oripova, Sh.Oyjo'jaeva, Ch.Ergasheva, A.Ashurov, D.S.Qodirova, Z.K.Axmedova; xalq, estrada musiqasi, estetik va axloqiy qadriyatlar bo'yicha I.Qudratov, M.E.Xaydarov, S.S.Saytbekova,

O.M.G‘aybullayevlar tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini T.M.Kargopolova, L.A.Nikitina, V.V.Baxtin, Ye.V.Smotrova, Ye.S.Borisova, G.V.Baybikova, V.P.Reva, musiqiy tinglovchilik madaniyati qirralarini N.S.Lomakina, G.N.Kazanseva, I.V.Kurischeva, M.A.Deysha-Sioniskaya, D.K.Kirnarskaya, K.I.Tverezovskiy, V.B.Sokol, tomoshabin va tinglovchi masalalarini .S.Loseva-Demidova, A.V.Yuryevalar tadqiq etishgan.

Xorij olimlaridan musiqiy idrok va tasavvur, musiqa ijrochiligi va musiqa tinglashning intonatsion-tahliliy xususiyatlari borasida J.Abreu, E.Jaques-Dalcroze, musiqiy qobiliyatlari va musiqa ta’limini rivojlantirish bo‘yicha C.Orff, Z.Kodaly, M.Montessori, R.Steiner, N.Lebrecht, E.Ansermet va H.Mooglar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan¹. Mazkur amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari zamonaviy maxsus va umumiy musiqa ta’limini sifatli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://www.npr.org/sections/therecord/2018/03/26/597006488/jos-abreu-venezuelan-conductor-who-envisioned-musical-education-for-all-dead-at>; А.Фюлен. Исследование звуковых событий окружающего мира основа детского музыкального творчества. <https://cyberleninka.ru/article/n/a-fyulen-issledovanie-zvukovyh-sobytiy-okruzhayuschego-mira-osnova-detskogo-muzykalnogo-tvorchestva-perevod-s-frantsuzskogo>

1-BOB. YOSH IJROCHILARDA MUSIQIY TINGLOVCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

§ 1.1. O‘smirlik va o‘spirinlik yoshidagi ijrochilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish pedagogik zarurat sifatida

Jahon mamlakatlari maxsus va umumiy musiqa ta‘limida kechayotgan jarayonlar global dunyo sharoitida har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda namoyon etilishiga qaramasdan, ularning o‘zaro bir-biriga ta‘siri muhim ijtimoiy pedagogik masala hisoblanadi. Jumladan, Janubiy Koreyada umumiy musiqa ta‘limi – tasviriy san‘at, adabiyot, jamiyatshunoslik va matematika bilan integratsiyalashtirilgan [37]; ushbu tajriba Avstraliya musiqa ta‘limi tizimida ham qo‘llanib kelinmoqda.

Koreyada musiqa pedagogikasida kuylash faoliyatining ustuvorligi masalasi eksperimental o‘rganilgan. AQShda “musiqani konseptual tushunish” (Kennet Elpus) [141]; Yaponiyada cholg‘u ijrochiligi (Shinichi Suzuki) [142]; Angliyada “Musiqqa ta‘limini modernizatsiya qilish” dasturi (Darren Xenli) ishlab chiqilgan [102].

Germaniyada ishlab chiqilgan dasturga ko‘ra, o‘quvchi musiqa tahlili, musiqa sotsiologiyasi va psixologiyasi bo‘yicha ma‘lum bilimlarga ega (L.Braun) bo‘ladi [23]; Rossiyada 2014 yilda “Ta‘lim sohasida musiqa san‘ati va pedagogikasi kengashi” (V.Medinskiy) tuzilgan bo‘lib, mazkur kengash musiqa o‘qitishni takomillashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi [143].

Keyingi yillarda Norvegiyada “musiqiy ijro va harakat” faoliyati “raqs va kompozitsiya” bilan (R.Shtayner, M.Montessori, S.Frene) almashdi [101]; Portugaliya musiqa assotsiatsiyasi (APEM), Xalqaro musiqa jamiyati (ISME)ning milliy filiali Gulbenkian tomonidan tashkil etilgan qator konferensiya va seminarlar Portugaliyada maxsus va umumiy musiqa ta‘limini variativ o‘quv dasturlari va ta‘lim mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi musiqiy qadriyatlar rang-barangligi asosida tashkil etishda muhim rol o‘ynadi [101]. Skandinaviya mamlakatlarida jamiyatning musiqiy salohiyati muhim o‘rin tutadi

va ularda talab hamda ehtiyoj natijasida istiqbolda yangi musiqiy landshaft paydo bo‘lishi va rivojlanishi muqarrarligi ta’kidlanmoqda [36].

Tadqiqotchi M.V.Okolot ta’kidlaganidek, “Sobiq sho‘ro davrida musiqa sohasida deyarli barcha o‘quv dasturlari, o‘quv mashg‘ulotlarining repertuarlari, badiiy havaskorlik jamoalari, maktablarning musiqa darsliklaridagi asarlar yevropa madaniyati ta’sirida yozilgan namunalari bilan shakllantirilgan edi. Muayyan xalqning milliy ruhi, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlarini, hayotiy falsafasi va nihoyat, eng muhimi, shu xalqning qalbini o‘zida mujassam etuvchi milliy musiqa va qo‘shiqlariga e’tibor atayin sust edi” [77]. Mazkur holat ham maxsus, ham umumiy musiqa ta’limida bir yoqlama yondashuvga olib kelgan edi.

Hozirgi sharoitda musiqa ta’limini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quv mashg‘ulotlarida tinglash faoliyati samaradorligini oshirishga kuchli ijtimoiy va pedagogik ehtiyoj mavjud. Tinglash faoliyati asarning yaratilishi va ijro etilishidagi oxirgi, yakunlovchi, umumlashtiruvchi faoliyat bo‘lib, shu orqali o‘quvchi (talaba)lar musiqada ifodalangan badiiy-estetik mazmuni to‘laqonli anglaydilar.

Z.Isoqov o‘z tadqiqotida ta’kidlashicha, bugungi kungacha yetib kelgan noyob musiqa durdonalari asosan yozma manbalarda ifodalangan bo‘lib, “Mo‘tabar musiqiy merosimiz qadimiy namunalari o‘ziga xos barqaror asos – matn tarzida millat xotirasida yashab kelmoqda. Bu meros o‘zining yuksak badiiy hamda ijtimoiy ahamiyati tufayli avloddan-avlodga o‘tib, umumxalq mulki va ma’naviy ozuqasiga aylanib ketgan” [34]. Shu bois, keyingi yillarda milliy madaniyatimiz va san’atimizning muhim tarbiya vositasi sifatidagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qadim Turonzaminda, shuningdek, Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida musiqa tinglash tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanalgan hamda u o‘rganish zarur hisoblangan fanlar qatoriga kiritilgan. Jamiyatdagi barcha ziyoli, ma’rifatli insonlar qo‘shiq kuylash yoki biror musiqa sozida chalish malakalariga ega bo‘lishni orzu qilishgan. Bu esa musiqa tinglash

madaniyatining uzoq moziydan turli jamiyatlar ma'naviy hayotida o'rin tutgan o'ziga xos tarbiya vositasi sifatidagi dolzarb ahamiyatidan guvohlik beradi.

Shu sababli, musiqa kuchli ruhiy-hissiy ta'sir ko'rsatuvchi tarbiya vositasi sanalgan va uni tinglash, idrok etish orqali inson o'zida kuchli ijobiy kechinma va hissiyotlarni his qilishi, hatto musiqa insonni o'zgartirishi mumkinligi borasidagi ilmiy asoslangan fikrlar Sharq allomalari asarlarida batafsil yoritilgan. Manbashunos Z.Oripov fikricha, "Qadim zamonlardan musiqa mintaqaxalqlarining turmushida muhim ijtimoiy vazifalarni ado etib keldi. Bayramlar, sayillar, diniy marosimlar va boshqa yirik tadbirlar kuy, qo'shiq, raqs va o'yin-tomoshalarsiz o'tmagan" [81]. Ushbu yillarda musiqa amaliyoti ma'lum darajada taraqqiy etdi va musiqaning ijtimoiy-madaniy hamda badiiy-estetik ta'siri ortib, qator asarlar yaratildi.

Sharq allomalari tomonidan yaratilgan risolalar musiqa ilmining amaliy va nazariy jihatdan taraqqiy topishiga, pirovard natijada insonlarga ijobiy ta'sir imkoniyatlari keng o'rganilishiga asos bo'ldi. Musiqa san'ati jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda, insonlarda ijobiy-estetik tuyg'ularni shakllantirishda bag'oyat katta imkoniyatlarga ega ekanligini teran anglagan ziyolilar undan tarbiya masalalarida foydalanish zarurligiga e'tibor qaratdilar.

Buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ismatulloh Mo'jiziy, Mahmud Qoshg'ariy, Qutbiddin Sheroziy, Najmiddin Kavkabiy Buxoriy, Faxriddin Muborakshoh, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi allomalarning qator asarlarida keltirilgan musiqaga oid ma'lumotlar bugungi kunda ham o'z ilmiy va tarbiyaviy jihatlari bilan dolzarb ahamiyatga ega. Zero, mazkur asarlarda musiqaning inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, unda yuksak insoniy fazilatlar: milliy ong, milliy g'urur, milliy o'zini-o'zi anglash, mehr-shafqat, Vatanga, insonlarga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish imkoniyatlari nihoyatda kengligi ta'kidlangan.

Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviyning

musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog‘iyning “Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy” risolasida, Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asarida, Zaynulobidin Husayniyning “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy” risolasida, Abdurahmon Jomiyning “Musiqiy risola”sida, Amuliyning “Musiqqa risolasi”da, Darvesh Ali Changiyning “Musiqiy risola”larida musiqqa tinglashning ijobiy pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

Sh.Oyxovjayeva Abu Nasr Forobiyning “Katta musiqqa kitobi”, “Ohanglar tasnifi haqida kitob”, “Musiqqa haqida so‘z”, “Ohangga qo‘shimcha qilingan so‘z” kabi musiqqaga oid asarlarining barchasida musiqqaning ma’naviy tarbiya manbai ekanligi, inson qalbi va ruhiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatishi masalalariga keng to‘xtaladi. O‘z musiqqa risolalarida “Forobiy musiqiy nag‘ma (tovush, ton, parda)larning past-balandlik sabablari, mutanosiblik omillari va shu xususiyatlar orqali hissiyotga ta’sir ko‘rsatish masalalari ustida mulohaza yuritadi” [78].

Mazkur jihatlarning barchasi tinglovchining asarni to‘laqonli idrok etish xususiyatlariga qaratilgan bo‘lib, musiqqaning asosiy missiyasi – tinglovchiga emotsional ta’sir ko‘rsatish masalasi alloma asarlarida yorqin ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari”, “Risolai ishq” va boshqa asarlarida musiqqa tinglash, musiqqaning hissiy ta’siri haqida mufassal fikr yuritgan holda musiqqani hamohanglikning eng kamolga yetgan turi deb biladi.

S.Karimova esa o‘z ilmiy-amaliy faoliyatida hamisha tarbiya masalalarini ustun qo‘ygan “Ibn Sino o‘zining barkamol shaxsni tarbiyalash g‘oyasida musiqqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan”ligi uning musiqqadagi botiniy ijobiy quvvatni naqadar teran his etganligi va undan maqsadli tarzda foydalanish lozim, deya uqtirganligini ta’kidlaydi [119].

Professor Z.Oripov Ibn Zaylani musiqqa ilmidagi xizmatlari (“Musiqqaga oid to‘liq kitob”) bo‘yicha Forobiy va Ibn Sinoga tenglashtiradi [81]. Musiqqa tinglash o‘z ta’sir imkoniyatlari orqali insonning ichki olamiga kirib borishi, unda ma’lum kechinma, hissiyot, kayfiyat va holatlarni hosil qilishi, uning irodaviy muhitini o‘zgartirishi mumkinligini o‘sha davr olimlari o‘z asarlarida dadil ko‘rsatib

o‘tganligini alohida e‘tirof etish o‘rinlidir. Z.Oripov o‘z fikrini davom ettirib, “Mumtoz davrning quyi bosqichida ijod qilgan Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy kabi allomalar Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Abu Abdulloh Xorazmiy asos solgan ilmiy yo‘nalishdan borganlar”, deb alohida uqtirib o‘tgan. Natijada, musiqada mavjud ijro maktablarining avlodan-avlodga o‘tishi jarayonida qimmatli tajribalar ma‘lum darajada saqlanishiga erishilgan va bu asarlar orqali tinglovchilik madaniyati shakllanishiga ma‘lum darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatilganligini ta‘kidlash lozim.

Madaniyatning barcha davr uchun ham muhimligiga ishora qilib Z.Isoqov “Tarixda yashab o‘tgan har bir hukmdor yoki davlat arbobi o‘z faoliyatida fan, madaniyat va san‘at sohasini qadrlagan taqdiridagina u yurtda tinchlik, obodonchilik hamda farovonlik bo‘lgan”ligini alohida ta‘kidlaydi [34]. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, tinchlik va farovonlik hukm surgan yurtda madaniyat va san‘at rivojlanadi, takomillashadi hamda ijtimoiy yuksalish yanada jadallashadi.

O.Matyoqubov Buxoro maktabining zabardast vakillaridan biri, taniqli sozanda va bastakor Najmiddin Kavkabiy Buxoriy haqida so‘z yuritib, “Najmiddin Kavkabiy Buxoriy ko‘pgina musiqa asarlari yaratgan mahoratli bastakor sifatida, tarbiyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda musiqaning aynan tinglovchilar bilan bog‘liq ruhiy-hissiy ta‘sir xususiyatlariga e‘tibor qaratdi”, deya uqtiradi [11]. Albatta, musiqa madaniyati hamda uning inson qalbi va ongiga kuchli botiniy ta‘sir imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lib, undan shaxs kamoloti maqsadida foydalanish hamisha dolzarb bo‘lgan.

R.T.Primov o‘z tadqiqotida “Temuriylar davrida yashab ijod etgan buyuk alloma Abdurahmon Jomiy “Risolai musiqiy” asarida musiqa ta‘limoti va uning inson ma‘naviy kamolotida tutgan o‘rni haqida mangulikka daxldor fikrlar bildirganligini aytib o‘tgan [91]. Binobarin, musiqa nazariyasi va amaliyotini chuqur anglagan Jomiy musiqadan tarbiyaning muhim vositasi sifatida foydalanish zarurligini keng targ‘ib etgan.

Ushbu ilmiy fikrlar mazmuniga tahliliy qaralganda, allomalar musiqaning asosiy vazifasi tinglovchida ma'lum ijobiy tasavvurlar, ezgu hislar, o'z hattiharakatlariga nisbatan mas'uliyat, mehr-shafqat, sog'inch, boshqalar uchun daxldorlik hissini uyg'otishdan iboratligini ta'kidlashgan. Shu orqali insonlarning qalbiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, eshitgan musiqasining badiiy mazmunini qalbdan his etishi zarurligi, pirovard natijada, inson takomillashib borgan sari o'zining mohiyatini chuqur anglashi va ma'naviyati yuksalishiga ishora qilinadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish uchun allomalar ijro etiladigan musiqa yuqori saviyada bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Demak, avvalo musiqa asari yuqori badiiy saviyada bo'lishi, so'ngra musiqiy mazmunni to'laqonli anglash uchun tinglovchilarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishi zarurligiga ishora qilinadi.

Alisher Navoiy she'riy asarlar musiqa ohanglari orqali ijro etilganda, kuchli hissiy ta'sir vositasiga aylanishini, shu bois uning yo'naltiruvchi xususiyatlaridan ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. Sharq olimlari o'z asarlarida badiiy-estetik tarbiya, shaxsni musiqa orqali kamol toptirish, uning milliy-ma'naviy o'zligini anglashida musiqaning imkoniyatlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratishganligi musiqa tinglash madaniyati bilan chambarchas bog'liqligini e'tirof etish zarur.

G'arb musiqa pedagogikasi o'zining tarixiy taraqqiyoti davrida turli mamlakatlar va hududlarda o'ziga xos tarzda rivojlanganligini ko'rish mumkin. A.V.Mironov musiqa tasarrufi borasida fikr bildirib, "Antik davrdan boshlab musiqa hayotning ajralmas qismi bo'lgan, u erkin shaxslarning tarbiya va dam olish vositasi sifatida xizmat qilib keladi", deydi [68]. G.G.Kolomies, falsafiy-estetik fikr tarixida musiqaning kosmos, sonlar, afsonalar, etos, affektlar, shaxsning psixologiyasi va ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorligi xususida yozgan [46]. O.B.Elkan esa, hozirgi sharoitda "Zamonaviy madaniyat fenomeni va xususan zamonaviy san'at tasarrufi, rivojlanishi - texnik va texnologik taraqqiyot, jumladan, IT-texnologiyalari, virtual aloqa vositalarini takomillashtirish va

ommaviy tarqatish kabi omillarning tobora ortib borayotgan ta'siri bilan bog'liq", deydi [136].

E.B.Abdullin musiqa ta'limining nazariy masalalarini tahlil qilib, V.N.Xolopova asarlarida musiqa san'atining: kommunikativ, olamni aks ettirish, axloqiy, estetik, evristik, bilishga qaratilgan va ijtimoiy-qayta yaratuvchi funksiyalari tasniflanganligini bayon etgan [5; 39-b.].

Ta'sir doirasi va jamiyat hayotiga kirib borish doirasi kengligi bo'yicha bugun musiqa bilan bellashadigan ijtimoiy hodisani topish amri mahol. T.Adorning "Musika sotsiologiyasi" va "Zamonaviy musiqa falsafasi" kabi tadqiqotlari bugungi kunda ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgan emas, bu asarlar musiqani ijtimoiy-madaniy tahlil qilishning vektorlari, xususiyatlari va ahamiyati borasida keng ilmiy ma'lumotlar beradi [7; 47-b.]. T.Adorno o'zining "Musika sotsiologiyasi" asarida tinglovchilik madaniyati shakllanishiga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy omillar xususiyatlarini sanab keltiradi.

Musiqa ta'limida ustuvor qadriyatlar ham g'arb, ham sharq mamlakatlarida o'ziga xos, milliy madaniyat va mental xususiyatlarni inobatga olgan holda rivojlanmoqda. Masalan, xitoylik tadqiqotchi Yan Sze maktab musiqa ta'limiga urg'u berib, "Xitoy xalq respublikasida maktab musiqa ta'limi va tarbiyasi aholi madaniyatining asosi sanaladi", deydi [139; 3-b.]. Zamonaviy sharoitda umumiy musiqa ta'limining inson ma'naviy tarbiyasidagi roli yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buni ko'pgina mamlakatlar, jumladan, Janubiy Koreyaning davlat hujjatlari tasdiqlaydi [95].

Biroq, hozirgi dunyoda ma'naviy qadriyatlar tanazzuli, insonning ma'naviy jihatdan qashshoqlashishi, ijodiy potensialining kamayishi kuzatilmoqda. Nihoyat, inson ma'naviy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ommaviy madaniyatning total (yoppasiga) ta'sirini tan olmaslik mumkin emas, deya ta'kidlaydi Djon Sodam [28; 3-b.]. "Ta'limni insonparvarlashtirish va unda badiiylik komponenti ishtirokini kuchaytirish, ya'ni, ijodkor shaxsni shakllantirish vositasi sifatida musiqa ta'limini yanada takomillashtirish zamonaviy Koreyada faol muhokama etiladigan

masalalardan biridir. Yosh avlod tarbiyasida musiqa ta'limining zarurligini Li Xansu o'z asarlarida eslatib o'tgan va bu muammoni Koreya respublikasida musiqa ta'limini rivojlantirishni tashkil etishga yangicha yondashuvlar kontekstida ifodalagan" [85; 5-b.].

Yapon milliy musiqa pedagogikasining asoschisi, o'qituvchi, tashkilotchi va publitsist I.Syudzi kompozitor, musiqa tanqidchisi, pedagog, "The National Music Course" deb nomlangan o'rgatuvchi qo'llanmalar muallifi L.Meyson bilan birgalikda Yaponiyada musiqa ta'limining amerikacha modelini joriy etish loyihasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, maktab qo'shiqlari umumta'lim dasturlarining bir qismi bo'lib, o'sib kelayotgan jismoniy sog'lom va axloqiy barqaror yosh avlodni tarbiyalash vositasi sifatida qo'llanadi [44; 23-b.]. I.Syudzi tomonidan joriy etilgan ushbu o'qitish metodlari hozirgi kunda yapon milliy musiqa ta'limida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Musiqiy tinglovchilik madaniyati, ya'ni, musiqiy idrok xususiyatlari musiqiy-pedagogik va musiqashunoslik nuqtai nazaridan B.V.Asafyev, B.L.Yavorskiy, Yu.N.Tyulin, L.A.Mazel, Ye.V.Nazaykinskiy, V.V.Medushevskiy, B.M.Teplov, M.V.Blinova, S.N.Belyaeva-Ekzemplarskaya, Yu.B.Aliyev, V.K.Beloborodova, N.A.Vetlugina, A.L.Gotsdiner, L.M.Kadsin, A.N.Soxor, K.V.Tarasova, V.I.Petrushin va boshqalar ishlarida ma'lum darajada o'rganilgan.

I.Yu.Pinyagina ta'kidlashicha, "Bugungi kunda ko'pgina tadqiqotchilar o'sib kelayotgan yosh avlodda infantillik, ma'naviy o'sishdan orqada qolish elementlari mavjudligini ta'kidlashadi, umuman, buning isbotini ma'lum darajada kundalik hayotda ham kuzatish mumkin. Iste'molchilik jamiyati, OAV va Internet orqali tarqatiladigan ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlarda didning past darajada shakllanishiga sabab bo'lmoqda, ularning ma'naviy potentsiali rivojlanishiga ma'lum darajada xalaqit bermoqda" [88; 3-b.]. Musiqada reklama-targ'ibot masalasi aynan yuqorida keltirilgan vositalar orqali amalga oshiriladi, tijorat maqsadlari ustuvorligi sababli, ko'p hollarda badiiy saviyasi yuqori bo'lmagan asarlar efirga uzatilishi holatlari ko'p uchraydi. L.Kandaurova musiqaning shakl va

psixologik ta'sir xususiyatlariga to'xtalib, "Musika oddiy yoki murakkab tuzilgan bo'lishi, dag'alroq yoki nozik, ommaviylashgan yoki o'ziga xos bo'lishi mumkin"ligini bayon qiladi [47; 42-b.].

D.G.Rodionova esa, "Yigirmanchi asrning oxiri, "postsovet davrida", davlat yetakchiligidan mahrum bo'lgan ijodiy musiqiy faoliyat chalkash holatga tushib qoldi: tajribasiz tadbirkorlar va menejerlar turli, ba'zida shubhali sifatga ega musiqiy mahsulotlarni har qanday holatda ham foydali sotishga kirishdilar. Natija shunga olib keldiki, sifatsiz ommaviy musika mahsulotlarining ko'payishi nafaqat akademik musika san'atiga qiziqishning pasayishi va shaxs madaniy rivojlanishining umumiy darajasiga, balki professional musika ta'limining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatdi" [96; 4-b.].

M.G.Snejinskaya to'g'ri ta'kidlaganidek, "musika maktablari va bolalar san'at maktablarida o'rganishayotgan bo'lishsa-da, bolalarda mumtoz musiqaga nisbatan qiziqish pasaymoqda" [107; 3-b.]. Yuqoridagi fikrlarni L.I.Ukolova ham tasdiqlaydi, "Stixiyali musiqiy muhitda tijoratga yo'naltirilgan musika san'ati shakllari ustunligi sharoitida, ong osti darajasida o'quvchilarda agressiya, yopiqlik, muloqotga, kundalik faoliyatlarga qobiliyatsizlik, real hayotdan ma'lum darajada uzoqlashish oshadi va rivojlanadi [121; 26-b.].

D.Yu.Saipova o'z tadqiqotida "Musika madaniyati" darslarini tashkil etishdagi ayrim mavjud nuqsonlar qatorida shaxs fazilatlarini shakllantirish uchun (estetik hissiyot, estetik did, musiqiy-estetik dunyoqarash va hokazo) yetarli imkoniyat yo'qligini ta'kidlagan [98; 27-b.]. T.N.Lixinina - bugungi kunda qo'shiqchilik an'alarining tanazzulga uchrashi sharoitida uning poydevori vayron bo'layotganligi, ommaviy musika madaniyatining past darajasi, tovush manbalaridan chiqadigan desibellarning kuchliligi, musiqiy qobiliyatlar, ayniqsa, musiqiy eshitishning buzilishiga olib kelayotganligini bayon etgan [60; 3-b.].

Ushbu ijtimoiy-madaniy holatlar kundalik hayotimizda ma'lum darajada namoyon etilayotganligi haqiqatdir. Shunday sharoitda T.I.Kuzubning qarashlari nihoyatda dolzarbligini ta'kidlash lozim. Uning fikricha, "Iste'molchilikning

global darajada o‘sishi, musiqa barcha sohalarining tijoratlashirilishi sharoitida akademik musiqaning holati murakkabdir, chunki, u mass-media mahsulotlari orasida raqobatni ko‘tara olmayotir va hozirgi shou-biznesning gullab yashnashi davrida ancha murakkab holatda bo‘lib, muhim tadqiqotchilik diqqatini talab etadi” [53; 3-b.]. Shu bilan birga, ommaviy nusxalash va iste‘molchilik tamoyillariga asoslangan elektron texnologiyalar imkoniyatlari va yangi reallik (informosfera) sharoitlari V.Martinov fikricha, “San‘atning mavjudligi illyuziyasi”ni yaratadi, unda kompozitor va tinglovchi ongiga kuchli ta‘sir o‘tkazuvchi simulyatsiya tamoyili ustunlik qiladi.

A.Arutyunova ishlarida esa bozor-moliya masalalari birinchi o‘ringa olib chiqilgan, so‘ng esa “sotilishi lozim” san‘at qadriyatlariga diqqat qaratilgan [9; 196-b.]. Yuqorida keltirilgan holatlar musiqa tasarrufining ijtimoiy-psixologik omillarini va o‘quvchi (talaba)larda shakllanadigan musiqiy tinglovchilik madaniyati darajasi mazmunini ifodalaydi.

Albatta, o‘quvchi (talaba)larning tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda musiqaning mumtoz janrlarida yaratilgan asarlarga murojaat qilish muhimdir. I.Yu.Pinyagina ta‘kidlaganidek, “Mumtoz asarlar vaqt chig‘irig‘idan o‘tgan, ular tarixiy bosqichning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda insonga kuchli estetik ta‘sir ko‘rsatadi” [88; 4-b.]. Ma‘naviy ijodiy asosga ega mumtoz asarlar tinglovchilarga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi, qadriyatlar ierarxiasini tiklashga ko‘maklashadi, ma‘naviy boyitadi va o‘z mohiyatini anglashga ko‘maklashib shaxsni takomillashtiradi.

Musiqiy tinglovchilik madaniyatining markaziy tushunchalaridan biri intonatsiya (lot. intono – baland talaffuz qilaman, musiqiy ohangni tashkil etuvchi ifoda vositalarining namoyon etilishi)dir. Intonatsiya, musiqaning “ifodaviy mohiyatini”, uning mazmunini ochishga ko‘maklashadi (V.N.Xolopova), musiqiy ifodalilikning u yoki bu vositalarini tanlash imkonini yaratadi, tinglovchilarga, jumladan, zamonaviy tinglovchilarga milliy san‘at g‘oyalarini, uning mazmunini yetkazadi [29; 15-b.]. Vaholanki, musiqa asarini tinglashda oldindan

shakllantiriladigan ustanovka unga baho berishda hal qiluvchi rol o'ynashini L.L.Bochkaryov asoslab bergan [22; 90-b.]. Rivojlantiruvchi ta'lim muhitida har bir asarni tinglashdan oldin unga kengaytirilgan badiiy-estetik tavsif berish maqsadga muvofiq.

“Qo'shimcha ta'lim sharoitida o'smir o'quvchilarning musiqiy-estetik madaniyatini rivojlantirish (M.A.Fadeyeva), xoreografiya orqali o'smirlarning estetik madaniyatini shakllantirish (L.V.Bogomolova), xalq musiqasi vositasida (T.V.Leontyeva), turli ish shakllari integratsiyasi sharoitida badiiy-estetik turkum fanlarini chuqur o'rganish bilan shug'ullanadigan o'smirlar masalasi (N.V.Kireyeva); musiqa darslari material va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqiy-estetik rivojlantirish (O.M.Doronina) masalalari o'rganilgan” [29; 5-b.].

G.K.Jukova bu masalada, “Xuddi og'zaki nutq intonatsiyasi singari musiqa nutqi intonatsiyasi ham u bilan bir xil pragmatik tabiatga ega, bu esa idrokning barcha darajalarida auditoriyaga ma'lum psixoemotsional ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi”, deb ifodalagan [30; 15-b.]. Tinglangan asarlarni tahlil qilishda ohanglar obrazlarining ifodalanishi xususiyatlarini birma-bir ko'rsatib berish o'quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi. G.N.Kazanseva zamonaviy insonning hissiy o'zini-o'zi boshqarish samaradorligini oshirish “emotsional madaniyat” tushunchasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ifodalagan [36; 3-b.].

Shaxsning musiqiy tarbiyasi asoslari ilk yoshdan boshlab shakllanadi. T.M.Kargopolova fikricha, “Bolalarning musiqa mashg'ulotlarida sevgan faoliyati kuylash, raqs, bolalar cholg'ularida ijro etish hisoblanadi. Ular nafaqat barcha bolalar ijrosi uchun qulay va oddiy, balki, musiqiy qobiliyatlari rivojlanishi uchun favqulodda foydalidir” [39; 3-b.].

M.T.Kartavsevaning, “Pedagogik jarayonning murakkabligi bola intellektining sust rivojlanishidan emas, balki, unga yetarli e'tibor qarata olmasligimizdan, ta'lim va tarbiyaning takomillashmaganligi va arxaik usullaridan

kelib chiqadi”, degan fikrlarida haqiqat bor [40; 4-b.]. Zamonaviy musiqa ta’limi pedagogning o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishdagi sub’yektiv yondashuvi negizida shakllanadi. L.M.Kashapova, “Ta’limni modernizatsiyalash shaxsiy va kasbiy rivojlanishning turli darajalarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning izchilligi orqali uzluksizlik, ta’lim mazmunini, shu jumladan etnomusiqiy ta’limni qayta ko‘rib chiqish lozim”ligi g‘oyasini ilgari suradi [41; 3-b.]. Shaxsiy tashabbuskorlik, kasbiy kompetentlik va fidoyilik ta’lim natijadorligining asosi bo‘lishi zarur.

Yuqori musiqiy yutuqlarni belgilaydigan musiqiy iste’dod – o‘zida musiqiy ijodkorlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, balki, iqtidorni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar, ya’ni, ijodiy qobiliyatlar, intonatsion, arxitektonik (arxitektonik eshitish - musiqa shakli tuzilishini anglash qobiliyati) va tahliliy eshitishni o‘z ichiga oladi. G.G.Kolomies bu hodisani shunday tasvirlaydi, “Musiqqa - eshitish orqali anglanadi va o‘zlashtirishni talab etadi: “eslash mashqi”ni bajarmasdan musiqiy idrok va musiqa madaniyati evolyusiyasi bo‘lishi mumkin emas” [46; 22-b.]. Ya’ni, musiqaning bilish funksiyasi B.V.Asafyev ta’biricha, psixologizm, hissiy ta’sir bilan bog‘liq, bunda ma’naviy faoliyat tarzidagi musiqaning ahamiyati namoyon bo‘ladi. Albatta, L.S.Zorilova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Insonga ongli ravishda ko‘rsatiladigan salbiy ta’sirga - faqatgina yuqori darajadagi yaratuvchilik, mehr-muhabbat, yaxshilik va go‘zallikka yo‘naltiruvchi madaniyat qarshi turishi mumkin” [32; 4-b.].

N.Kolyadenko fan amaliyotiga “musiqiy-badiiy ong” tushunchasini kiritgan. U “vizual-plastik signallar va yangrovchi yoki dinamik xaosdan iborat tasavvur qilingan musiqa orasida paydo bo‘ladigan bo‘shliq tinglovchining kreativ qobiliyatlari rivojlanishiga sabab bo‘lishi, chunki, u ijodkor tomonidan o‘rnatilgan hissiyotlararo algoritmnining yaxlitligiga olib kelishi” g‘oyasini takomillashtirgan [47; 35-b.]. I.A.Korsakova fikricha, “Musiqqa madaniyat hodisasi sifatida o‘z mohiyatiga ko‘ra dialogikdir va bu dialog musiqiy kommunikativ makonda ko‘pgina sub’ektlarni qamrab olishi (kompozitor, ijrochi, tinglovchi,

musiqashunos-tanqidchi, rejissyor, prodyuser, menedjer, aranjirovkachi, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi, professional va havaskor) bilan ko‘pqirralidir” [49; 6-b.].

Shu uchun ham A.I.SHerbakova darsda “Musiqiy kommunikatsiya madaniyat fenomeni sifatida ontologik mazmun kasb etishi, unda Homo musicus ([musiqiy inson] Korsakova I.A.)ning bio-ijtimoiy-madaniy tabiati ifodalanishi” g‘oyasini nazardan chetda qoldirmaslik zarur”ligini urg‘ulagan [134; 23-b.]. Darsda tinglash jarayonida “Musiqiy pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyati, uning sub’ektlari nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba), balki musiqa asarlari, bastakor va ijrochining shaxsiyati, muloqot vositasi esa musiqa tili (B.V.Asafyev, L.L.Bochkarev, V.I.Petrushin, G.I.Sipin)” bo‘lib hisoblanadi [62; 7-b.]. Musiqaning muloqot tili sifatidagi xususiyatlarini barcha texnologik vositalar orqali yetkazish muhimdir.

Ilmiy hamjamiyatda tinglovchilar tipologiyasini tuzish borasida keng miqyosli tadqiqotlar olib borilganligi va turli variantlar ilgari surilganligini I.A.Novikov ta’kidlab, “Tinglovchilar auditoriyasining tipologiyasi zamonaviy jamiyatning qadriyatlari transformatsiyasini anglash uchun zarurdir. Musiqiy idrok xususiyatlari bilan bog‘liq muammolar, uning kommunikativ xossalari tadqiqi zamonaviy fan va amaliyotda hech qachon kuzatilmagan darajada oldinga chiqdi”, deb tavsif etadi [75; 3-b.].

Shunga binoan, M.A.Oleynik fikricha, “Keng ma’noda, musiqa tinglovchilariga musiqaga qiziquvchi va uni tinglovchi barcha insonlarni kiritish mumkin. Tor ma’noda esa, bu ma’lum voqelik yoki voqeliklar turkumi bilan bog‘liq ma’lum ijrochi, asar, tashkilot yoki ijtimoiy-musiqiy institutga tegishli tinglovchi bo‘lishi mumkin” [79]. Bu borada M.S.Salayeva, “Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan nihoyatda qadimiy va boy pedagogik fikrlar adabiy-madaniy merosda o‘z ifodasini topgan.

U o‘zbek xalqining urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayramlari, qadimiy bitiklar va arxeologik topilmalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, yozma badiiy adabiyot va

fan sohasida yaratilgan noyob asarlar, tasviriy va amaliy san'at hamda musiqa durdonalari, betakror me'moriy obidalardan iborat" ekanligini ta'kidlaydi [100; 15-16-b.].

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra N.S.Kiyamov, "Musiqiy madaniyat deganda, insonda musiqiy-nazariy bilimlarni egallash va uni ongida idrok etishi natijasida paydo bo'lgan estetik his-tuyg'ularning ma'lum ehtiyojga va undan e'tiqodga aylanishi asosida paydo bo'lgan musiqiy mahorat va malaka hamda ko'nikmalarning muayyan faoliyatga aylanishidir", deya e'tirof etgan [43; 23-b.].

Dialektik nuqtai nazardan M.M.Abdullayeva fikricha, "Har qanday inson faoliyati motivlashadi, ya'ni, har qanday harakatning turli sabablari mavjud" [4; 16-b.]. Tinglash faoliyatida ham motivlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda Z.T.Saliyeva fikrini eslash joiz, "Tayanch madaniyat uchun bolalikdan poydevor qo'yiladi hamda ta'lim va tarbiya vositasida bu madaniyat tizimli tarzda chuqurlashtiriladi va takomillashtirib boriladi" [101; 31-b.]. Musiqiy-kommunikativ vaziyatga kirishning dastlabki daqiqalaridan boshlab, tovushni idrok etish, eshitish organlarining faollashuvi va aqliy faoliyat qo'shilgan holda idrok jarayoni boshlanadi, bu so'zlovchining motivlari va maqsadini tushunishga qaratiladi.

Bundan tashqari, vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari (konsert zalining hajmi, ishtirokchilar soni, ijrochilar borasidagi bilimlar, ijrochining tashqi ko'rinishi, uning qiyofasi va boshqalar) ham muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Zorilova ta'kidlaganidek, "Erkinlik – ijodiyotning orzusi va maqsadidir. U hayratlantirib, hayajonli hissiyotlar orqali virtuoz ijroda o'z aksini topdi" [71; 8-b.].

A.I.SHerbakova esa, "Zamonaviy tinglovchi bugun musiqaning faqatgina passiv istemolchisi bo'lib qolishni istamaydi. Axborot iste'molchisi o'zini qiziqtirgan axborotni matnli, tovushli, vizual yoki multimedia shaklida tanlash imkoniga ega bo'lib, vaziyatga jadal moslashib, turli kommunikatsiyalarga, jumladan, tijoriy faoliyatga qo'shilgan holda axborot va bilimlarni ishlab chiqarish – yetkazib berish – iste'mol qilish kabi majmuaviy jarayonga faol qo'shiladi",

degan fikrni ilgari surgan [134; 36-b.]. Yuqorida tahlil etilgan tadqiqotchilar qarashlari va xususiy pedagogik tajribamizga tayangan holda ta'lim oluvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantiradigan amaliy echimlap ustida ishlandi va rivojlantiruvchi metodika ishlab chiqildi.

Mamlakatimiz musiqa ta'limida takomillashtirilgan texnologiyalarni qo'llash va innovasion ta'lim sharoitida o'quvchi (talaba)larning musiqiy mazmuni adekvat anglash, ularda musiqiy didni takomillashtirish muammosining dolzarbligi quyidagi holatlar o'rtasida aniqlangan ziddiyatlar bilan belgilanadi, ularda musiqa tinglash faoliyati samaradorligini oshirish uchun ham xos bo'lib, quyidagi muhim jihatlarni o'zida aks ettiradi:

– maxsus va umumiy musiqa ta'limida tinglash faoliyatiga yetarli e'tibor qaratilmayotligi, o'quv mashg'ulotlarida musiqa tinglash faoliyatini axbopot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshirishdagi sustkashlikda;

– o'smir o'quvchilarda maktab repertuari asosida musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish jaxoyonida didaktik ta'minotning yetarli emasligida.

Keltirib o'tilgan zaruratdan ma'lum bo'ladi, o'quvchi (talaba)larda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishning ustuvop yo'nalishi musiqa o'qitish mazmuni, metodlari va shakllarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

1.2. Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari

“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PQ-112-son qarorida: - “Musiqqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkazilishi, o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etilishi” alohida

ta'kidlangan [3]. Mazkur Qaror umumiy musiqa ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, o'quvchi-yoshlarni musiqa bilan yaqindan oshno etish orqali ularni badiiy-estetik tarbiyalashni yanada faollashtirishni ko'zda tutadi.

“O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son qarori”da keltirilishicha: - “Xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” zarurligi bayon etilgan [2]. “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi O‘RQ-668-son Qonunida: - “Konsert tashkilotlarining asosiy vazifalari musiqiy-ma’rifiy faoliyatni amalga oshirishdan iboratdir, deb yozilgan [1]. Ushbu qarorlar maxsus musiqa ta’limi muassasalariga tegishli bo‘lib, o‘quv mashg‘ulotlarida mumtoz musiqani ijro etishni yanada takomillashtirish, shuningdek, konsert-ijrochilik faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Sanab o‘tilgan islohotlar yo‘nalishlari to‘la ma’noda musiqa ta’limiga daxldor bo‘lib, musiqiy tinglovchilik madaniyati va musiqiy did egasi bo‘lgan shaxs musiqa asarlarining badiiy-estetik mazmunini teran anglaydi va undan o‘zining amaliy faoliyatida ibrat sifatida foydalanadi. Musiqa madaniyati tasarrufida uchta asosiy ijtimoiy rol istifoda etiladi, bular: ijodkor (kompozitor), ijrochi va tinglovchidir. Tarixiy jihatdan ular taraqqiyoti ierarxiyasini murakkablashib borgan uchta bosqich sifatida tasavvur qilish mumkin.

Ijrochining mavqei bugungi kunda kasb sifatida mavjud. Biroq, kompozitorning roli asarlar o‘z muallifiga ega bo‘la boshlagan davrdan, ushbu asarlar o‘ziga xos va takrorlanmas sifatida baholangan davrlardan boshlab namoyon bo‘ldi. Ya’ni, dastlab musiqiy faoliyat yaxlit jarayon bo‘lgan, keyinchalik ijrochi va tinglovchiga ajralgan va nihoyat, bu juftlikdan kompozitorlik faoliyati ajralib chiqqan. Tinglovchi faoliyati kompozitor va ijrochining faoliyati negizida tashkil etiladi va u tinglangan asardagi ohanglar

obrazlarini ma'lum voqelik, predmet yoki hodisaning badiiy-estetik ifodasi sifatida idrok etadi. Demak, musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishi – asardagi badiiy-estetik mazmuni yaxlit anglash natijasida sodir bo'ladi.

Intonatsiya, keng ma'noda musiqiy tovushlar (tonlar)ning ketma-ketligi (vaqtli tashkillashtirilishi - ritm bilan qiyoslash) balandligini tashkil etishdir. Akademik B.V.Asafyev musiqiy intonatsiya, nutq intonatsiyasidan tovushlarning balandligi bo'yicha qat'iy tizimga bo'ysunishi bilan farqlanishini isbotlagan [104; 126-b.]. Intonatsiya nazariyasiga asosan, badiiy mazmun tovushlarning interval munosabatlaridagi intonatsiya orqali ifoda etiladi.

Ya'ni, musiqiy mazmun intonatsion yondashuv asosida musiqiy tovushlarning bir intervaldan boshqasiga o'tishi jarayonini idrok etish asosida anglanadi. Musiqiy tovushlarning intonatsion nazariyasi ishimizda asos sifatida qabul qilindi. Musiqa asarlaridagi badiiy mazmuni teran anglagan shaxsda Vatan tuyg'usi, ona yurt va insonlarga nisbatan mehr yanada yuksaladi, o'zini shaxs sifatida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Zamonaviy musiqa pedagogikasi talablariga kelganda Ye.N.Bajukova, "Hozirgi vaqtda musiqa o'qituvchilari raqamli ta'lim muhitida musiqiy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatmoqda, o'quv jarayonini takomillashtirish, o'qitishning maqsadi va vazifalarini qayta ko'rib chiqish orqali tarmoq ta'lim resurslari hamda axborot resurslaridan foydalanishga harakat qilishmoqda", degan fikri asoslidir [12; 296-b.].

Musiqa tinglash bosqichida turli tarkibdagi jamoalar: xorlar, simfonik, estrada simfonik, kamer, xalq cholg'ulari orkestrlari, yakkanavoz, yakkaxon xonandalik kabi turli tarkibdagi jamoalar ijrosini audio yoki audiovizual formatda ko'rish, tinglash va undan ma'naviy-estetik zavq olish imkoni mavjud. G.P.Stulova o'quv mashg'ulotlarida ko'rgazmali-eshitish metodidan keng foydalanish muhimligini ta'kidlaydi va "O'quvchilar nafaqat tinglash, balki, tinglangan asar mazmunini anglashi, ya'ni, asar ijrosidagi yutuqlar va kamchiliklarni ham aniqlay olishlari zarur", deya uqtiradi [110; 30-b.]. Shunga ko'ra biz, tadqiqotda tinglash faoliyati

natijadorligini ta'minlashda ko'plab metodlar qatorida ko'rgazmali-eshitish metodidan keng foydalanib, multimedia vositalariga murojaat qildik.

Musiqaning tinglashning psixologik xususiyatlari uni yaqqol tasavvur etishga imkon yaratadi. Bu: tinglanadigan musiqaning emotsiyalar, kechinmalar, kayfiyat, xotira assotsiatsiyalari orqali idrok etilishida namoyon bo'ladi. Musiqaning tinglovchining kayfiyatiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi, ya'ni, uning kayfiyatini ko'tarishi, xursand qilishi, ma'yus holatga keltirishi, jasoratga undashi, assotsiativ tarzda oldin bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni esiga tushirishi va kayfiyati o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

T.P.Samsonova musiqaning psixologik ta'sir imkoniyatlari masalasiga to'xtalib, "Musiqiy ta'sirning o'ziga xos xususiyatlari inson emotsiyalarida aks etadi, ular musiqaning tufayli to'g'ridan-to'g'ri insoniy hissiyotlar tuzilishiga, qalb holatiga, inson va ommaning qalbiga ta'sir ko'rsatadi, deydi [103; 18-19-b.]. Musiqaning tinglashning ijobiy ta'siri natijasida inson organizmidagi fiziologik mexanizmlar faoliyati o'zgarishi, ya'ni, ijobiy ta'sirda organizmda umumiy faollik kuchayishi, modda almashinuvi, intellektual faoliyat jadallashishi, salbiy ta'sirda esa, modda almashinuvi zaiflashishi, organizmning umumiy faolligi ma'lum darajada pasayishiga olib kelishi mumkin.

To'garaklar faoliyatini tadqiq etgan R.I.Oripova, inson musiqaning bilan ona allasi orqali tanishib, butun umr davomida undan zavq olib yashashini, shu bois o'quvchilarda musiqaning madaniyatini shakllantirish musiqaning tarbiyasining bosh maqsadi hisoblanishini bayon etgan [82; 20-b.].

Shu bois, musiqaning chuqur anglash uchun o'quvchilar jonli ijro muhitida faoliyat ko'rsatishi, bu holatlarni o'qituvchi ijro jarayonida nazarda tutishi va xatolarsiz, tiniq ijroga, emotsional ifodali va yorqin jarangdorlikka, badiiylikning yuqori darajasiga erishishi muhimdir. Faqat shundagina o'quvchilarni tinglangan musiqaning qalbdan his etish, bu jarayonni xuddi bayram, quvonchli hodisadek kutib olishga undash mumkin. N.V.Anikiyeva bu borada, "O'smirlar badiiy didining shakllanishiga ommaviy madaniyat ta'sir ko'rsatadi, bu yosh davrida uning ta'siri

ustun bo‘ladi”, deb ta’kidlaydi [8; 402-b.]. Albatta, bugungi kunda ayniqsa o‘smirlarga ommaviy madaniyatning kuchli ta’siri mavjudligi hammaga ayon.

Musiqiy tinglovchilik madaniyati deganda uchta so‘z birikmasining umumiy mazmunidan kelib chiqiladi. Birinchisi musiqa bo‘lib, bu borada O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida shunday talqin mavjud: “Musika (yun. *mousiche* - muzalar san’ati) - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi.

Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir” [119; 844-b.]. Inson musiqiy faoliyatlari bir-biriga bog‘liq uchlikka asoslangan. Bular: kompozitorlik faoliyati, musiqa ijrochiligi va tinglovchilik faoliyatidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “Musika uquvi (musiqiylik) - insonning musiqa asaridagi tovushlar (baland-pastlik, metr, ritm, tembr xususiyatlari)ni eshita bilish, ularning izchillik mazmunini tushunib ovoz yoki biror cholg‘uda ijro eta olish qobiliyati”dir, deb ifodalangan [119; 845-b.]. Musiqiylik idrok qobiliyatini xarakterlovchi musiqiy qobiliyatlar sintezi sanaladi.

“Madaniyatning ko‘pgina ta’rif va talqinlari mavjud bo‘lib, ularni madaniyatshunoslik fani o‘rganadi va insonlarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayonlarida, tarixiy rivojlanish davrida tutgan o‘rni va jihatlariga qarab mazmun mohiyatini belgilaydi va ilmiy asoslab beradi. Jahon tarixi manbalarida madaniyatning 300 ga yaqin atamallari va ta’riflari mavjud bo‘lib, bular barchasining zamirida inson tafakkuri mahsuli yotadi” [148].

“Falsafa” qomusiy lug‘atida “madaniyat” so‘zi (arabcha - madinalik, ya’ni, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik) degan ma’nomlarni anglatadi va tabiat hamda o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli ekanligi ta’kidlanadi [152].

Milliy elektron Qomusda - “Madaniyat - jamiyat, inson ijodiy kuch va

qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Tor ma'noda «Madaniyat» atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi», deyilgan [150].

Tinglash – bu nutq faoliyatining retseptiv (idrok) ko'rinishi bo'lib, eshitish analizatori faoliyati asosida nutqiy axborotning qabul qilinishi va keyingi qayta ishlanishi jarayonidir. Amerikalik tadqiqotchi J.Kelli muloqotda tinglashning 4 ta ko'rinishini keltiradi: empatik tinglash; norefleksiv tinglash; faol refleksiv tinglash va; yo'naltirilgan tanqidiy tinglash [149].

Musiqaning tinglash rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari va sinesteziya² hodisasi asosida sensor idrokning rivojlanishidir. Adekvat idrok amalga oshishi uchun tinglovchidan musiqa tilining semantik imkoniyatlarini bilish talab etiladi. Ushbu jarayonda musiqadagi assotsiatsiyalarni tushunish muhim o'rin egallaydi. Bu tushunish bo'lmasa, musiqa tinglovchiga fiziologik darajada ta'sir ko'rsatuvchi quruq tovushlar oqimi bo'lib qoladi, xolos.

Musiqaning asari ijrochi va tinglovchida tafakkur jarayonini faollashtirish imkoniga ega, estetik effekt hosil qiluvchi ob'yekt sanaladi. Hatto oddiy kuy ham qaysidir nomusiqiy ob'yektlarning sodda aksi emas, balki, uni yaratgan muallifning ma'naviy olami aksi sifatida idrok etiladi.

Aynan rivojlangan musiqiy tafakkur yosh musiqachi-ijrochilarga, pedagoglarga musiqa madaniyatining targ'ibotchilari bo'lib yetishishlari uchun imkoniyat yaratadi, bu esa, o'z navbatida tinglovchilik auditoriyasining intellektual va ma'naviy potensialini kuchaytirishga shart-sharoit yaratadi. Bu holatni A.X.Trigulova, “Hozirgi vaqtda musiqiy didning asosiy tarkibiy qismlari: musiqiy kechinmalar, musiqiy qiziqishlar, musiqiy idrok, musiqa asarini baholash, hukm ehtiyojini rivojlantirish, estetik ideal kabilar sanaladi”, deb ifodalagan [118; 314-b.].

Musiqiy did alohida tarbiyalanishi, pedagoglar tomonidan tinglashdagi baholash elementlarining sifat ko'rsatkichlarida aks etishi bilan ajralib turishi

² Sinesteziya - bir qo'zg'atuvchi analizatori ta'siri ostida boshqa qo'zg'atuvchi analizatoriga mansub sezgilarning paydo bo'lishi hodisasidir. El. manzil: <https://lifehacker.ru/chto-takoe-sinesteziya/>

lozim, deydi T.M.Rezsova. U, “Musiqiy idrok qonuniyatlariga tayangan holda o‘qituvchi bolalarni musiqiy tarbiyalash jarayonini boshqarishi va ularda estetik ehtiyojlar hamda didni shakllantirishi mumkin”ligini ta’kidlaydi [94; 69-b.].

I.R.Levina madaniyatni keng ma’noda tasvirlab, “Intellektni rivojlantirishning universal konsepsiyasi tizimlilik kasb etib, insonning intellektual resurslari hamda salohiyatini qo‘llashni taqozo etadi. Madaniyat intellektni shakllantirish va rivojlantirishning tayanchi va muhim omili sanaladi”, deydi [58; 10-b.].

Musiqqa tinglash o‘quvchilarni musiqqa ijodi namunalari bilan tanishtiradi va ularning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan. Musiqiy faoliyatning bu turi bolalarning emotsionalligini, musiqadan olgan taassurotlarini so‘z va plastik harakatlar bilan ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqqa ta’limi nazariyasiga ko‘ra, tinglovchilik faoliyatining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarda xalq, mumtoz va zamonaviy milliy hamda xorijiy musiqaning yuqori badiiy namunalari asosida musiqqa madaniyatini shakllantirishdir.

Verbal nutq imkoniyatlari borasida T.S.Bershanskaya ta’kidlaydi, “Verbal nutq va musiqqa - ifoda vositalari orqali o‘zaro bog‘liqlikka ega. Verbal nutq va musiqqa vaqtli tuzilma bo‘lib, amalga oshirilishi jarayonli o‘xshash, ya’ni, jumladan tuzilganligi, aniq kompozitsiyaga egaligi bilan namoyon etiladi” [15; 152-b.]. Musiqiy tajriba shaxs musiqiy tinglovchilik madaniyatining muhim xususiyati sanaladi. Aslida inson rivojlanishining istalgan bosqichida umumiy musiqqa ta’limi olish zarurati bor va qanchalik oldin amalga oshirilsa, shunchalik natijador bo‘ladi.

Musiqqa tinglash estetik rivojlanishning muhim shakli bo‘lib hisoblanadi va o‘zida uchta asosiy manbani aks ettiradi. Bular: 1) estetik zavq olish, 2) empatiya, ya’ni, musiqaning mazmuni orqali badiiy voqelikka kirib borish hamda 3) yangi bilimlar egallashdir. Tinglash tajribasini orttira borib, o‘qituvchi estetik hodisa sifatida yangragan musiqqa asaridagi badiiylik vositasida o‘quvchi (talaba)larda tinglash ehtiyojini shakllantirib boradi. Aynan musiqiy-estetik ong tinglash

faoliyati natijasida shakllanadigan badiiy-ijodiy tafakkur sifatida keyingi yosh davrida rivojlanib boradi.

M.E.Ismoilova ma'naviyat va madaniyat tushunchalari uzviyligiga to'xtaladi, "Ma'naviyat keng ma'noda ma'rifat, madaniyat tushunchalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Xalq qo'shiqlari xalq va millatning ma'naviy musiqiy boyligi hisoblanadi" [33; 4-b.]. Musiqaning badiiy-estetik mohiyatini teran anglagan holda o'zlashtirish tinglovchilik malakasining yuksalishiga olib keladi.

Tadqiqotchi O.M.G'aybullayev, har bir shaxs jamiyatning ijtimoiy hayotini belgilaydigan, inson uchun xizmat qiladigan axloqiy-estetik idealga asoslanib, yangicha zavqiy munosabatlarni shakllantirib boradi. Mana shu jarayonda shaxsning estetik ongi va madaniyatini yuksak ma'naviyat bilan boyitish, insonparvarlikni kamol toptiradigan zavqli hayotni barpo etish zarurati vujudga kelishini bayon etgan [26; 14-b.]. Keltirilgan tahliliy fikrlar o'quvchi (talaba)larda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishning dolzarb ahamiyatini ta'kidlaydi.

Musiqaning ommaviy ongga ta'sir etuvchi kuchli omil sifatidagi ahamiyati borasida taniqli fransuz yozuvchisi va jamoat arbobi V.Gyugo so'z yuritib, - "Har bir xalqning taraqqiyotida uchta omil: harf, raqam va nota hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi", deganda naqadar haq bo'lganligini tasavvur qilish mumkin [92; 3-b.].

Shaxsni rivojlantirish uchun eng qulay zamin - bu san'at, chunki u insonda ijodiy tamoyillarni tarbiyalaydi, zero, uni hech narsa bilan almashtirishning imkoni yo'q. V.Sitovich musiqaning rivojlanish ierarxiyasini tahlil qilib, "Hozirgi kun musiqasida kuy muhim o'zgarishlarga uchradi, avvalo, u hajm jihatidan qisqa shaklga ega bo'ldi. Ko'pgina kompozitorlar ijodida u motivga aylandi, shu bois, kuyning rivojlanishi motiv ishlanmasi bilan almashdi", deya fikr bildirgan [127; 19-b.].

G.M.Taniyeva shaxsning musiqa madaniyati tushunchasi orqali unda musiqiy ehtiyojlar va musiqiy rivojlanish, ya'ni, musiqaga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabat, musiqiy kuzatuvchanlik, individual tajriba, musiqiy hodisalarga

nisbatan tanqidiy, tanlab munosabat bildirish anglanishini ta'kidlagan [113; 76-b.]. Tadqiqotchi L.P.Shipovskaya tomonidan ilmiy muomalaga "Musika madaniyati makoni" nazariyasi va uning asosiy qoidalari kiritilgan" [133; 5-b.]. Bu orqali tadqiqotchi musika tinglash muhiti va jarayonini konseptual darajada tavsiflagan. Milliy madaniyatga tayangan holda o'quvchilarda musika madaniyatini shakllantirish tamoyillari Yu.B.Aliyev, B.Bartok, S.Kodaly, B.Trichkov tadqiqotlarida ilgari surilgan va musika ta'limi amaliyotiga joriy etilgan. D.B.Kabalevskiyning badiiy-pedagogik konsepsiyasida aynan tinglash faoliyati tamoyillari ishlab chiqilgan.

D.V.Tkachuk musiqiy did shakllanishi masalasida, "Kreativ ishlab chiqarishning industriallasuvi, ommaviy, an'anaviy va akademik musika o'rtasidagi chegaralarning qisqarib borishi, tinglash amaliyotining o'zgarishi va umumiy tovush makonining musiqiyliigi - bu tendensiyalar musiqiy makonning holatini va uning jamiyat hayotida tutgan rolini asta-sekinlik bilan o'zgartiradi", deb ta'kidlaydi [117; 14-b.]. Biz musika san'ati amaliyotida bu o'zgarishlarni kuzatib bormoqdamiz. N.V.Bobileva musiqaning badiiy-madaniy tabiatini tadqiq etib, emotsional his etiladigan tovush axborotini uzatish va tushunish qobiliyati musika genezisining asosi hisoblanishini bayon etgan [16; 17-b.].

Musiqiy faoliyatlar jarayonida musiqiy dunyoqarash kengayadi, ma'lum eshitish tajribasi to'planadi va bu asarda jamlangan melodik intonatsiyalarni, musika asarining ritmik va tembr xususiyatlarini, emotsional va mazmunli jihatini farqlash imkonini yaratadi. Jumladan, keng konsonans yurish ma'lum kontekstda kenglik tasavvurini beradi: pastga yo'nalgan va birinchi tovushga tayanuvchi kichik sekunda g'am, qayg'u, yig'i intonatsiyasini beradi: yuqoriga yo'nalgan, ikkinchi tovushga urg'ulangan kvarta yurishi chaqiriq intonatsiyasini uyg'otadi va h.k.

So'nggi o'n yilliklarda g'arbda san'atning ayrim turlari auditoriyasini tadqiq qilish faollashdi. Bu yo'nalishda faol tadqiqotlar olib borayotgan zamonaviy xorijiy olimlar sirasiga S.Askegaard, L.D.Dierking, J.Dodd, J.H.Falk, D.Fleming,

V.Golding, T.K.Hamann, M.K.Hogg, J.T.Jensen, S.Jones, B.Kolb, N.Lebrecht, L.Levy-Garboua, I.B.Lundgaard, B.Lynch, M.Meleddu, C.Montmarquette, J.Prieto-Rodríguez, R.Sandell, C.Scott, B.A.Seaman, J.M.Schuster, M.Solomon va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin [117; 5-b.]. Polshalik o'qituvchi-tadqiqotchi M.Yanushevskaya-Varix o'z tadqiqotida tajriba va ifoda qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, vokal va cholg'u ijro, musiqa tinglash, musiqa bilan raqsga tushish va undan zavqlanish maqsadida sabablar yaratish, ijodiy ehtiyojni shakllantirish zarurligini aniqladi [138; 8-b.].

Musiqadagi badiiy obrazlar mavhum tafakkurga xos imkoniyatlarga ega, chunki ushbu obrazlar predmet hamda hodisalar haqidagi bilimlarning ma'lum hissiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy obraz yosh tinglovchi ongida ma'lum assotsiatsiyalarni hosil qiladi, natijada obraz individual mazmun kasb etadi. Musiqiy obrazlar mavhumligi natijasida asarning badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari yanada yorqin namoyon bo'ladi hamda ijodiy xususiyat kasb etadi. O'smirlar idrokida asosan hissiylik ustun ahamiyatga ega.

Shu bois, mashg'ulotlarda asarlarning aynan hissiy xususiyatlari tahliliga keng o'rin ajratildi. S.A.Fadeyevaga ko'ra, "Insonning musiqa madaniyatini shakllantirish ilk bolalikdan boshlab chinakam yuqori badiiy saviyadagi musiqa asarlarini idrok etishga nisbatan tajribani o'zlashtirib borishni taqozo etadi" [124; 3-b.]. S.A.Poronok esa, musiqiy ma'rifat jamiyatda musiqa madaniyatini shakllantirishning kuchli vositasi bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi rivojlanishida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [90; 3-b.].

Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda pedagogik psixologik imkoniyatlar darajasi muhim o'rin tutadi. Tashkil etilgan rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'quvchilardagi intellektual va emotsional imkoniyatlar darajasidan kelib chiqqan holda tashkil etildi. Zero, har qanday musiqa asari ham keng tarbiyaviy imkoniyatlarni o'zida aks ettirmasligi ayon. Shuning uchun aynan tarbiyaviy xususiyatlarni, ijobiy emotsiyalarni o'zida yorqin aks ettirgan, badiiy-

estetik talablarga to‘la javob bera oladigan asarlar tinglash va idrok etish uchun taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir (jadvalga qarang).

Jadval

Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantiruvchi pedagogik va psixologik imkoniyatlar.

Pedagogik imkoniyatlar	Psixologik imkoniyatlar
Rivojlantiruvchi ta’lim	Musiqiy tasavvurlar
Ta’limga kreativ yondashuv	Musiqiy qobiliyatlar
Ijodkorlik muhiti	Maqbul ustanovka
Ilg‘or interaktiv faoliyat	Motivatsiya
Qadriyatli yondashuv	Kommunikativlik
Faoliyatli yondashuv	Emotsionallik
Intonatsion yondashuv	Estetik empatiya

Buni - ta’lim bevosita va bilvosita iqtisod, fan, texnologiyalar va madaniyat bilan bog‘liqligini va taraqqiyotning muhim tarkibiy qismidir, degan fikrlari to‘ldiradi [93; 10-b.]. Shu sababli, L.A.Kochemasova madaniyatning rivojlanishi shaxsda ijtimoiy yo‘nalganlikni ma’lum darajada ifodalanishini, shaxs qanchalik darajada imkoniyatlaridan foydalana olsa, uning o‘z-o‘zini erkin va faol rivojlantirishi shunchalik muvaffaqiyatli kechishini ta’kidlagan [50; 10-b.]. Biz rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarda o‘quvchilarda kreativ tafakkur, nostandart fikrlash, tizimli tahlil singari tafakkur elementlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratishga harakat qildik.

O.A.Nogina bolalar idrokining polimodalligi masalasiga to‘xtalib, musiqiy intonatsiyalar harakat va kommunikativ xarakter kasb etishini, o‘zida tovush, so‘z va harakatni birlashtirgan obrazli assotsiatsiyalar shaklini egallashini, natijada musiqiy obraz - rasm chizish, badiiy, konstruktorlik, dramatzatsiya kabi boshqa san’atlar sohasiga integratsiyalanishini ifodalagan [76; 14-b.]. Shu uchun tinglanadigan musiqa borasida beriladigan tavsif tushunarli, savollar paydo qilmaydigan shaklda o‘quvchilarga yetkazilishi maqsadga muvofiq.

“T.Adorno tinglovchilarning quyidagi tiplarini ajratgan:

- ekspert tipi - musiqani uning shakli, tuzilishi, texnikasi va ijro etilishi darajasi asosida idrok etadi;
- idrokning musiqiy tipi - u uchun musiqa ma'lumoti muhim emas;
- ma'lumotli iste'molchi tipi - musiqa unga yoqadi, u musiqa tinglashni ma'lumotlilik va madaniyat belgisi hisoblaydi;
- emotsional tinglovchi tipi - u musiqa tinglash paytida o'z instiktlari va emotsiyalarini erkinlashtiradi;
- ressentiment tinglovchi tipi - an'analarga, xatosiz ijroga chorlovchi harakati bilan ajralib turadi;
- djaz sohasida ekspert tipi - u idrokining emotsionalligi va spontanligi bilan ajralib turadi, djazning rasmiy madaniyatga qarshi munosabati bilan o'z muxlislari submadaniyati shakllanishiga imkon yaratadi;

ommaviy ko'ngilochar tip - musiqani yaxlit mazmunli emas, balki, ko'ngilochar sifatida idrok etuvchilardir" [75; 15-b.]. Mazkur tipologiya mental xususiyatlar negizida yaratilganligini nazarda tutish zarur. O'quvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyati shakllanishida ahamiyatli tarkibiy qismlar tizimli tarzda bir-biriga bog'liq holatda namoyon bo'ladi. Musiqiy idrok turlarini T.Adorno "musiqaga javob berish usullari" deb atagan va musiqa tinglovchilarining to'liq tipologiyasini ishlab chiqish imkonsiz, deb hisoblagan [75; 15-b.]. U yaratgan tipologiya hozirgi kunda ham kompleks amaliy va nazariy vazifalarni yechishda keng qo'llanadi.

D.K.Kirnarskaya tinglovchilarning 4 ta tipini ajratib ko'rsatadi:

1- "eshitmaydiganlar". Olloh ularni yerga tushgan, biroq o'smagan donga (urug') o'xshatadi. Musiqani farqlay olmaydigan, undan mazmun topmaydigan tinglovchilarni shunga o'xshatishadi, ya'ni, ular uchun musiqa ahamiyatli va qalbgga yo'naltirilgan emas, balki, "qo'zg'atuvchi" fondir.

2-tip - bu shartli tinglovchilardir. Olloh ularni tog' qoyasiga tushgan donga o'xshatadi. Bunday tinglovchilar borasida B.Asafyev o'zining "Glinkaning tinglovlari" asarida alohida ma'qul bo'lgan yoqimli fragmentlarni ilg'ab olish va

ularga bog‘lanib qolishda “tinglash dangasaligi” borasida yozgan edi. Bu kabi tinglovchilar musiqaning rivojlanishini kuzatishdan bosh tortishadi.

3-tip – parishonxotir tinglovchilar. Olooh ularni begona o‘tlar orasiga tashlagan donga o‘xshatish mumkin. Bu yerda begona o‘tlar donning o‘sib, voyaga yetishiga imkon bermaydi. Shu kabi tinglovchi ham musiqani eshitadi, biroq mazmunini anglamaydi. U musiqiy obrazlar bilan bog‘liq bo‘lmagan yot fikrlarga chalg‘iydi.

4-tip – haqiqiy tinglovchi bo‘lib, uning qalbi donning o‘sishi uchun qulay tuproqqa o‘xshatiladi. Bu tinglovchini kompozitorning maqsadini “adekvat idrok” etuvchi deyish mumkin. “Tinglovchining musiqiy shaklga yo‘nalganligi” to‘liq holda o‘zida idrok ideali etalonini tasvirlovchi, madaniy me‘yorlarga yo‘naltirilgan adekvat idrokka xosligidir [42; 41-b.].

M.G.Snejinskaya tavsifiga ko‘ra, AQSh va Kanadada aholining 93%, Hindistonda 94% musiqa tinglaydi. Rossiyada “Levada-Sentr” ma‘lumotlariga ko‘ra, balog‘at yoshidagilarning ikkitasidan biri har kuni musiqa tinglaydi [107; 15-b.]. Mazkur tipologiyalar tinglovchilikka ta‘sir etuvchi turli ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar va tinglovchining individual xususiyatlariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Shunga ko‘ra, I.A.Novikov musiqiy idrok tabiatini tadqiq etib, musiqani har bir kishi emotsional va intellektual shaxsiy rivojlanishi darajasiga qarab turlicha idrok etishi, shu jarayonda asarni tushunish turli insonlarda bir-biridan farq qilishini ta‘kidlagan [75; 13-b.]. Tinglovchilik faoliyatida qo‘shiq va kuy, ya‘ni, cholg‘u va vokal musiqa asosiy manba sanaladi.

Qo‘shiqda matn mazmuni birlamchi, kuyda esa musiqiy ifoda vositalari ustuvorlik kasb etadi. Professor F.N.Xalilov “Tinglovchilar nafaqat musiqa ohanglaridan ta‘sirlanishi, tinglangan asar kayfiyatini his qilishi, balki, musiqa bilan birga chinakam jaranglaydigan she‘riy matn mazmunini anglashi, qayta yaratishi lozim bo‘ladi”, deb ta‘kidlaydi [125; 24-b.]. Tafakkur jarayonlari vositasida matn mazmunini anglash va tegishli emotsional holatlarni o‘zida aks

ettirishga shart-sharoit yaratiladi. Musiqiy mazmuni anglash bilim va tinglovchilik tajribasi darajasiga bog‘liq bo‘lib, asardagi alohida ifoda elementlarini o‘zlashtirish malakasiga tayanadi. M.V.Boguslavskiy o‘quvchilarning musiqa madaniyatini, maktab o‘quvchisi - o‘smirning musiqiy didi va ehtiyojlari paydo bo‘lishiga shart-sharoit yaratadigan individual ijtimoiy-madaniy tajriba, ya’ni, musiqa madaniyatining bevosita ta’siri natijasida shakllanadigan badiiy tajriba; xalq qo‘shiqlari va folklor ohanglaridan zamonaviy musiqa namunalari gacha, ya’ni, akademik va ommaviy musiqa gacha barchasi tushunilishini ta’kidlaydi [17; 200-b.].

T.Samsonova ifodalagan ta’rifda, - “Musiqi madaniyati” jamiyat madaniyatining bir qismi bo‘lib, uning asosida ma’lum belgi-semantik tuzilmasi orqali “kodlashtirilgan” musiqiy tovushlar vositasida olamni anglash yotadi”, deyilgan [103; 12-b.]. A.V.Tutolmin aniqlanmasiga ko‘ra, tinglovchilik madaniyati, “Musiqani to‘g‘ri va adekvat tushunish, musiqaga emotsional javob berish qobiliyati, musiqani yaxlit badiiy obraz tarzida idrok etish, empatiya - hamdardlik hissini namoyon etish”dir [86]. N.S.Lomakina esa o‘quvchilar tinglovchilik madaniyatining quyidagi tarkibiy qismlarini sanab o‘tgan: tafakkurning kreativligi; tafakkurning variativligi; baholay olish malakasi mavjudligi; tasavvur va fantaziya qobiliyatiga ega bo‘lish [62; 2-b.]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, “Musiqi ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqiy faoliyatning boshqa turlari, masalan musiqa tarbiyasi, musiqa ta’limi, musiqiy tanqid va boshqalar bilan birga jamiyat musiqa madaniyati tizimini tashkil etadi” [119]. O‘quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishida: intonatsion-eshitish tajribasining to‘planishi; asarni intonatsion-tahliliy eshitish va musiqiy obrazni idrok etish orqali badiiy mazmuni anglash bosqichlari amal qiladi.

Ushbu bosqichlar ierarxiyasida dastlab asar ijrosi tinglanadi, bu intonatsion-tahliliy eshitish bo‘lib asarning ifodaviy vositalari tahlil etiladi, natijada intonatsion-eshitish tajribasi to‘planadi va musiqiy badiiy obrazning to‘laqonli

idrok etilishi asosida asarning badiiy-estetik mazmuni anglanadi. Keltirilgan ko'pgina tadqiqotchilarning tinglovchilik madaniyati borasidagi talqinlarini tahliliy o'zlashtirish hamda shaxsiy pedagogik tajriba va tadqiqot doirasidagi izlanishlarimiz natijasida mazkur fenomenga shunday ta'rif keltirdik: musiqiy tinglovchilik madaniyati - musiqada ifodalangan badiiy-estetik mazmuni, kayfiyatni to'g'ri va adekvat tushunish, unga munosib baho berish, ohanglar obrazlarida mantiqiy mazmun topish, musiqaga emotsional javob berish qobiliyati, musiqadagi tarbiyaviy jihatlarni o'zi uchun ibrat sifatida qabul qilish, badiiy obraz tarzida idrok etish va hamdardlik hissini namoyon etishdir.

Musiqqa asarini tinglash va uning badiiy mazmunini anglashda kongitiv jihatdan dastlab sintez, so'ngra analiz mexanizmlari faoliyati namoyon bo'ladi. Jumladan, asarni tinglash jarayonida kuy, ritm, dinamika, temp, tembr, shakl, janr va tonal xususiyatlar har bir tovushning harakat yo'nalmasi negizida ongda aks etadi. Sintez mexanizmlari vositasida tovush yangrashining ketma-ketligi mazmun ifodalash xususiyatlari asosida alohida-alohida eshitilsa-da, yaxlit idrok etiladi. So'ngra, analiz mexanizmlari orqali musiqiy tovushlarning yaxlit idrok etilishi natijasida asarning shakli, janri, tonal xususiyatlari, dramaturgiyasi, ya'ni, badiiy-estetik mazmuni to'laqonli anglanadi.

T.S.Orlova musiqiy idrokning persektiv-ta'limiy, estetik-modellashtiruvchi faoliyatli-evristik bosqichlarida namoyon bo'ladigan farqlarni o'rganish ustida tadqiqot olib bormoqda [83; 16-b.]. D.G.Rodionova musiqqa menejmentining madaniyat sohasida badiiy qadriyatlarni yaratish, tarqatish va targ'ib qilish jarayonini boshqarish mexanizmlari ustida izlanishlarni amalga oshirmoqda [96; 3-b.]. Tinglash uchun taqdim etiladigan musiqaning mazmun va shakl jihatidan yo'nalganligi borasida amalga oshirilayotgan N.A.Gavrilovanning tadqiqoti amardagi milliy o'ziga xoslikni xalqaro kontekstda, yangi ifoda usullari vositasida namoyon bo'lishi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan [25; 13-b.].

Demak, musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlangan o'quvchi (talaba)lar o'zlari o'rganayotgan musiqqa asarlarini, shuningdek, musiqqa tinglashda tanlab

tinglash imkoniga ega bo‘ladilar, ularda tinglangan musiqaga nisbatan baholash malakalari, musiqiy did shakllanadi, asarlarda ifodalangan ijobiy badiiy mazmuni teran anglagan holda o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llay oladilar. Bu esa jamiyatimiz istagan barkamol yoshlarni tarbiyalash ishiga ma’lum darajada hissa bo‘lib qo‘shilishi shubhasiz.

1.3-§ Musiqiy idrokning tinglovchilik madaniyati shakllanishidagi xususiyatlari

Ijrochi-tinglovchi musiqa asarlarining murakkab badiiy-estetik mazmunini audial yoki audiovizual tarzda qanday o‘zlashtirishi maxsus va umumiy musiqa ta’limida, musiqa pedagogikasida dolzarb masala bo‘lib, musiqiy idrok qonuniyatlari va uning imkoniyatlarini o‘rganishda musiqa amaliyoti fanga keng faoliyat maydonini taqdim etadi.

Pedagogik terminologik lug‘atda keltirilishicha, “Idrok - predmet va hodisalarni yaxlit holda tushunish bilan bog‘liq psixik aks ettirish jarayonidir” [148]. Falsafa lug‘atida esa, “Idrok sezgi organlarining retseptor zonalariga bevosita qo‘zg‘atuvchilar ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan predmetlarning yaxlit aks etishidir”, deb ifodalangan [149]. Musiqiy idrok - ifoda vositalari, tasavvurlar, musiqa tabiatining yaxlit aks etishi, ularning go‘zalligini his qilish qobiliyatidir. Musiqani idrok etishning o‘ziga xosligi shundaki, turli balandlikdagi, davomiylikdagi, kuchlilikdagi, tembrdagi tovushlar uyg‘unligida yaxlit badiiy obrazlarni, ohanglar go‘zalligi, ularning ifodaliligini eshitish ijrochi-tinglovchida kayfiyat va ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otadi.

Musiqani idrok etish – uni yaxlit holda anglash, o‘zlashtirish - ham tashqi, ham ichki mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglashdir. Musiqiy tinglovchilik madaniyati sifatli musiqiy idrok negizida shakllanadi va rivojlanib boradi. Idrokning to‘laqonli bo‘lishi asar va uning mazmun-mohiyati borasida keng ma’lumotlarga ega bo‘lish, shaxs ongida asar borasida ma’lum bilimlar to‘planishi sifatida baholanadi.

Shu maqsadda musiqiy idrokning tinglovchilik madaniyati shakllanishidagi ahamiyatini tahliliy ko‘rib chiqamiz. Musiqani idrok etishning sifati: idrok etishga dastlabki ustanovka mavjudligi; idrok etuvchi uchun musiqaning jozibadorligi; asarga nisbatan emotsional reaksiyaning kuchi; asarda ifodalangan estetik axborotning yangiligi darajasi; musiqiy-eshitish tajribasi va musiqiy-nazariy bilimlar hajmi kabi omillarga bog‘liq.

Musiqiy idrok musiqa asarini borliqning badiiy-obrazli aksi sifatida tinglash va emotsional kechinma tarzida his qilish qobiliyatidir. N.I.Konstantinova idrokning ikki darajada amalga oshirilishini, ya’ni, perseptiv - musiqani bevosita idrok etish bilan va apperseptiv - musiqani tasavvur qilish, ya’ni, oldingi tajriba bilan bog‘liq ekanligini tavsiflagan [48; 42-b.]. Perseptiv darajada idrok bevosita tinglash jarayonida amalga oshadi, apperseptiv darajada esa idrok xotira tasavvurlari asosida, oldin tinglangan asarning xotirada tiklanishi negizida yuz beradi. N.Ye.Safronova “musiqiy idrok bu musiqani badiiy estetik fenomen sifatida anglashga yo‘naltirilgan jarayondir, u faqat hissiyot doirasida cheklanmaydi”, deya ta’riflaydi [104; 22-b.]. I.V.Kurshvaga ko‘ra esa, musiqiy idrok ijodiy jarayonning rivojlangan shaklidir [54; 3-b.].

I.G.Sigankova zamonaviy texnika vositalarini (sintezatorlar, kompyuterlar, Internetga bog‘lanish imkoniyatlari kengayishi) qo‘llash keng tinglovchilar ommasi tomonidan nafaqat musiqa asarini idrok etishni o‘zgartirganligini, balki, musiqa yaratish institutlariga, musiqa ijodiyotiga ham ta’sir ko‘rsatganligini ta’kidlagan [126; 540-b.]. Bu o‘zgarishlar kundalik madaniy hayotimizda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, tinglovchi va tomoshabinlarning konsertlarga tushish intensivligi pasayishi bunga yaqqol dalildir. T.B.Suxanova fikricha, tuzilmali yondashuv musiqiy-pedagogik tafakkurni musiqa ta’limi va musiqashunoslik rivojlanishi bosqichlari, umumpedagogik nazariyalardagi asosiy tushunchalar mohiyati negizida faollashtirish imkonini yaratadi [35; 5-b.].

Obrazli idrok, fantaziya, faol xayol jarayonlari - bolalar idrokining o‘ziga xos xususiyatidir. Jumladan, obrazli tafakkur va tasavvur elementlari shundan iboratki,

chizmalar, suratlar, rangli shakllarda bolalar tanish obrazlar – tabiat, atrof-muhit elementlari, insonlar qiyofasi va ularning ichki olami ifodasini ko‘rishadi. Psixikaning bu sifatlari obrazli tafakkur, fantaziya va tasavvurni shakllantirishga alohida e‘tibor berilganda, obrazli ma‘lumotlar bilan boyitilgan rivojlanishni tashkil etish jarayonida rivojlanadi.

Tinglashda erkin uslubdagi asarlar, shuningdek, vokal musiqa va teleradio musiqasini tinglash xususiyatlari bir-biridan farq qilishini quyidagi misolda ko‘rish mumkin. I.F.Gerbert musiqa tinglash kategoriyasi doirasida dastlabki tadqiqotchilardan sanaladi. U ratsional tafakkur va tovushlar ta‘siri masalasini o‘rganib, musiqiy mazmunni anglashda idrokning ahamiyatini urg‘ulagan [135].

O.Zix esa kechinmalarning hissiy tomonini - musiqiy tovushlarning mazmunli tashkillashtirilishi idrokning universalligi orqali kelib chiqishini o‘rgangan va tinglovchi ayrim sof musiqiy tasavvurlarni faraz qilishi mumkinligi g‘oyasini ta‘kidlagan. Shu orqali O.Zix tinglovchilarni – tasavvur tinglovchilari va kayfiyat tinglovchilariga ajratgan. Tasavvur tinglovchilarida idrok nomusiqiy tasavvurlarga asoslanadi, kayfiyat tinglovchilarida esa idrok natijasi musiqiy kayfiyatlarda namoyon etiladi, degan edi u [135]. Shu jihatdan, o‘quv mashg‘ulotlarida pozitiv psixologik muhit yaratish o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi, musiqiy qiziqishlari darajasini kengaytiradi.

Musiqani idrok etishda asosan tinglovchi faoliyati ustuvor ahamiyatga ega, ayrim o‘quvchilar musiqani ijro etilishi jarayonida ma‘lum darajada kechinmalar tarzida his etsa, boshqalarida emotsional ta‘sirlanish kuzatilmaydi. O‘quvchilar ishtirok etadigan ayrim ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda musiqaning me‘yordan yuqori darajada, kuchli yangrashi holatlari kuzatiladi, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilarning eshitish qobiliyati ma‘lum darajada pasayishiga, tinglanadigan musiqadan yetarli ma‘naviy zavq ola bilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Kuchli desibellarda taqdim etiladigan musiqa o‘quvchining eshitish sezgisi va retseptorlariga salbiy ta‘sir etishini anglagan holda ushbu salbiy holat vaziyati

yaratilmasligiga erishish zarur. Ya'ni, musiqa tinglash jarayonida yangrayotgan musiqaning tovushi kuchiga ham e'tibor qaratish zarur.

V.D.Ostromenskiy o'z tadqiqotlarida aniqlashicha, musiqa asarini dastlabki idrok etishda – u bilan tanishish va alohida elementlarini ajratish amalga oshiriladi. Takroriy tinglashda oldin shakllangan (tinglanayotgan musiqani oldin tinglangan musiqa bilan qiyoslash) tasavvurlarga asoslangan holda prognoz qilish yuz beradi. Keyingi tinglashda musiqa asari chuqur tahlil etiladi, anglanadi va uning emotsional obrazli mazmuni kechinmalar tarzida idrok etiladi [48; 40-b.]. Aytish lozimki, musiqa ham o'z navbatida tinglovchining psixik holatiga sezilarli darajada aks etadi va uni yo'naltirish imkoniga egadir.

Bilim saviyasi va dunyoqarashi nisbatan yuqori o'quvchilar musiqa san'atiga ko'proq qiziqishadi. Ushbu psixologik holatning sabablaridan biri – maishiy hayot elementi sifatida, “qo'shimcha” tarzidagi musiqaning keng tarqalganligi bo'lib, musiqa maxsus tinglanmaydi, lekin, o'quvchi-tinglovchi uni muntazam eshitadi va emotsional ta'sirini muntazam his etib turadi.

Musiqa asarini idrok etish tinglovchi ongida musiqa asari borasidagi sub'yektiv obraz shakllanishining ko'p darajali, ko'p tarkibli jarayoni (B.V.Asafyev, V.K.Beloborodova, B.M.Teplov) bo'lib hisoblanadi. Ye.V.Nazaykinskiy “musiqiy idrok” va “musiqani idrok etish” tushunchalarini farqlaydi. Birinchi atamani muallif musiqashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qiladi va idrokni – musiqaning ahamiyatini san'at sifatida tushunish va anglash, borliqni aks ettirishning o'ziga xos shakli sifatida va badiiy-estetik fenomen sifatida ko'radi.

Musiqani idrok etish tushunchasi esa, muallif fikricha ancha keng bo'lib (hatto birinchi tushunchani ham o'z ichiga oladi), vaziyatni aks ettiradi, bunda, harakat sub'ekti normal eshitish imkoniga ega shaxs, ta'sir ob'yekti esa – akustik signallar bo'lib, muammoning psixologik rakursiga to'g'ri keladi [21; 8-b.]. Musiqa tinglashda ifoda vositalari xususiyatlarini audiovizual vositalar orqali tushuntirish musiqiy mazmuni anglashda katta imkoniyatlar yaratadi.

O'quvchi (talaba)larning tinglash madaniyatini rivojlantirish jarayonini tashkil qilishda o'rganilayotgan va tinglangan musiqa asarining mazmunini tushunishga turlicha yondashuvlar mavjudligini yodda tutish lozim. Ulardan biri musiqani voqelikning ohang obrazi asosidagi in'ikosi sifatida tushunishga asoslanadi. Bunda musiqani tushunish musiqa va hayot o'rtasidagi izchil aloqalarni ochib berish asosida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarda musiqani, undagi janr asosi, intonatsiya, musiqiy obraz, uslub, musiqiy dramaturgiya kabilarni voqelikning badiiy obrazli aksi sifatida tushunishga, o'quvchi (talaba)larni musiqa va hayotning, musiqa boshqa san'at turlari bilan bog'liqligini anglashga o'rgatish amalga oshirildi. Tinglanayotgan musiqa asaridagi emotsional intonatsiyaning uch komponentli tuzilishi: musiqiy tasavvur; estetik va axloqiy zamin va badiiy tasvir orqali musiqiy mazmun anglanishiga erishiladi.

O'quvchilarga akademik musiqa badiiy qiymati va ijtimoiy ahamiyatini ochishga yordam berish muhimdir. Tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish uchun xalq, mumtoz, zamonaviy musiqa namunalari janr va uslub xilma-xilligida, o'quvchilarning intonatsion-eshitish tajribasi orqali taqdim etiladi. Bu - intonatsiya va eshitish tajribasini to'plash; asardagi intonatsiya-eshitish komplekslarini aniqlash va; musiqa asari badiiy-estetik mazmunini tushunib, musiqiy obrazni idrok etish kabi uch bosqichda amalga oshiriladi. Olingan bilimlar asosida o'quvchilar musiqa obrazli va semantik mazmunini emotsional va chuqur idrok etishga o'rganadi, tinglash faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji faollashadi.

Musiqani faol idrok etish musiqiy tinglovchilik madaniyatini tarbiyalashning asosidir. Shundagina musiqa o'zining estetik, kognitiv va tarbiyaviy rolini bajara oladi, o'quvchilar uni chinakam eshitish va bu borada fikrlashni o'rganadi. Musiqani idrok etish hissiy munosabat va musiqani differensial eshitishning birligidir. Umuman, musiqani tushunish - uni ongli ravishda idrok etish, badiiy-estetik mazmunidan, shaklidan xabardor bo'lish demakdir. Musiqiy idrok

eshitishning odatiy shakllaridan farq qiladi, bunda tinglovchi dastlab tovushlar ketma-ketligini emas, balki intonatsiyalarni kuzatadi va baho beradi.

Tovushlar nisbatlari va ketma-ketligini tenglashtirish, farqlash va ajrata olish imkoniyati faqatgina eslab qolish orqali amalga oshiriladi. B.V.Asafyev fikricha, tinglovchi idroki kompozitor tomonidan tasavvur etilgan harakatni ikkilamchi tarzda tashkil etadi. Bu faqatgina intonatsiya qilinadigan ohang elementlarida tovushlar harakatini tashkillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin [10; 25-b.].

B.V.Asafyevning intonatsion nazariyasiga ko'ra, musiqiy tovushlar harakatini bilish orqali musiqiy mazmuni anglash musiqa ta'limining hap bip metodik tizimi uchun univepsal hisoblanadi, didaktik vazifalapidan kelib chiqqan holda, uni ta'limga joriy etish, modellashtirish, qo'llash usul va vositalari tuplicha bo'ladi, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish musiqiy mazmuni anglash va uning emotsional ta'sirini nazarda tutadi.

Bu yerda ijrochilar, kompozitorlar, tinglovchilar insonni o'ziga maftun etadigan eng muhim manbalardan biri bilan uchrashadilar, bunda inson - inson tomonidan tushuniladi, o'zini va o'zining olamdagi o'rnini estetik jihatdan anglaydi. Ta'limda pedagogik texnologiyalar musiqiy tovushlarni interval munosabatlari darajasida idrok etib, mazmunini anglashga qaratiladi, didaktik vazifalar esa lad va musiqiy eshitish tasavvurlari qobiliyatlarini faollashtirishga yo'naltiriladi.

“Musiqqa tili” tushunchasi musiqa san'atiga xos bo'lgan ifodaviy vositalarni qamrab oladi, u idrok bilish jarayonining asosiy ob'yektidir. Bular: kuy, ritm, ko'p ovozli tasvirlash usuli (garmoniya yoki polifoniya), tovushlar harakati tezligi (sekin, o'rtacha tez yoki tez), tovushning baland yoki past registrda yangrashi, tembr (qo'shiqchi ovozining o'ziga xos jilolanishi), cholg'u sozining ovozidir. Musiqiy idrokning turli shakllari jarayonida bolalar “musiqqa tili”ning qonuniyatlarini o'rganadilar, tushunadilar, o'zlashtiradilar, musiqani tanib olish va tushunishni o'rganadilar. Badiiy bilishning obrazli vositalari ko'magida olamning yaxlit manzarasini shakllantirishning asosiy vositasi o'quvchilar ongida hissiy

tajribaning anglanishi va tizimlashtirilishidir.

Ayrim xususiyatlar musiqiy tilni oddiy soʻzlashuv nutqi bilan bogʻlaydi. Nutq va musiqa oʻrtasidagi muhim bogʻliqlik intonatsiyalardan iborat boʻlib, suhbatda har bir talaffuz qilinadigan soʻz ovozning ifodali koʻtarilishi va tushishidan iborat boʻladi. Xuddi shu ibora, hatto bir xil soʻz ham turli intonatsiyalar bilan - soʻroq, noaniq (beqaror) yoki turgʻun, tasdiq ("keldingmi?" - "keldingmi!" va h.k.) talaffuz qilinishi mumkin.

Soʻzlashuv nutqining barcha intonatsiyalari ifodaliligiga qaramay, aniq ovoz balandligini talab etmaydi. Qoʻshiq intonatsiyalari, ular har doim ifodali tushish va koʻtarilishlarga asoslangan boʻlsada, ohangga nisbatan qatʼiy belgilangan boʻladi. Bundan tashqari, ohangni tasodifiy tovushlar toʻplamidan qurishning imkoni yoʻq.

Oʻquvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatining rivojlanishi jamiyatdagi shaxslararo munosabatlar maromiga, umumiy madaniyatning yanada takomillashuviga qulay shart-sharoitlar yaratadi, binobarin, I.J.Moyanov taʼkidlaganidek, musiqa sanʼati navqiron avlodimizni yuksak maʼnaviyat ruhida tarbiyalashga kuchli taʼsir koʻrsatadi [70; 15-b.].

Koʻpgina tadqiqotchilar va ijodiy arboblarning musiqaning ijodiy faollikda ilhomlantiruvchi rolini taʼkidlashadi, bu esa rivojlangan musiqiy idrokning aynan ijodiy jarayonligini dalillaydi, deydi I.V.Kurisheva [54; 3-b.]. B.M.Teplov fikricha esa, estetik idrok etish uchun obʼyektning ahamiyati emas, balki, “yoqadi” yoki “yoqmaydi”, uning tashqi koʻrinishi bilishning hissiy tomonida ustun ahamiyat kasb etadi [116; 7-b.]. Mazkur baholovchi sifatlar oʻquv mashgʻulotlarida oʻquvchi (talaba)larda amaliy musiqiy faoliyatlar orqali egallangan bilim va tajriba asosida takomillashib borilishi maqsadga muvofiq.

Ye.I.Zaxarenkova, musiqa oʻqituvchisining musiqiy-ijrochilik faoliyati oʻquvchilarni kasbiy yoʻnaltirishda muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlagan [31; 216-b.]. Albatta, maktab taʼlimi bolaning madaniy va maʼnaviy shakllanishida dastlabki, fundamental bilimlarni singdiradi, yoʻnalishlarni koʻrsatib beradi. Biroq, ommaga keng koʻlam va miqyosda taklif etiladigan, yaʼni, ommaviy axborot

vositalari, televideniye va radio orqali targ‘ib etiladigan zamonaviy musiqa asarlarining mavzu yo‘nalishlari, ularning badiiy saviyasi, tarbiyaviy imkoniyatlari birlamchi ahamiyat kasb etayotganligi doimo diqqatimiz markazida bo‘lishi zarur.

N.V.Sedashova esa, mazkur ijtimoiy-pedagogik rang-baranglik negizida “Uydagi maqbul shart-sharoitlar o‘quvchining qiziqishlari va ehtiyojlarini shakllantiradi, shu bois, o‘qituvchining asosiy vazifasi bo‘lmasa-da, ota-onalar bilan konsultativ tadbirlarni amalga oshirish foydali bo‘ladi”, deb ta’kidlaydi [105; 193-b.]. Albatta, bugungi kunda mazkur yo‘nalishda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, uzluksiz musiqa ta’limi tizimida asosiy e’tibor o‘quv rejalari va dasturlarini muvofiqlashtirish, repertuar asarlarning ta’lim oluvchilar yoshi va individual-psixologik imkoniyatlariga mos holda tanlanishiga qaratilmoqda.

L.P.Shipovskaya - ommaviy axborot vositalari asosan ongga jadal ta’sir etuvchi vositalar, qisqa intonatsion-axborot birliklari, ya’ni, kliplardan foydalanadi, bu kabi axborot birliklarini qo‘llash tinglovchi ongini qisqa vaqt mobaynida bo‘lsada “zabt etish”ni ta’minlaydi, vaholanki, bu ijobiy emotsiyalar kompleksi bilan bog‘liq emas”, deb ta’kidlaydi [132; 4-b.]. Rivojlanib, keng urfga kirgan videokliplar bugun televidenie va Internetni to‘liq qamrab oldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Videokliplarda ijro jarayoni video va audio variantlarning sinxron ijrosi emas, balki, alohida-alohida yozilishi va keyin yaxlit holga keltirilishi bilan izohlanadi.

Musiqiy ijro jarayonini bevosita kuzatish tinglovchiga kuchli psixoemotsional ta’sir quvvati orqali namoyon bo‘ladi. Bunda tinglovchi ijrochi his qilayotgan emotsional holatni aynan aks ettiradi va bu holatlarni ko‘rib turgan ijrochida aks ta’sir natijasida “teskari aloqa”, kommunikatsiya muhiti paydo bo‘ladi va natijada ijrochining ijodiy ilhom imkoniyatlari yanada kengayadi.

Professor L.V.Shkolyar fikricha, shaxsning musiqiy madaniyati uch komponent: musiqiy tajriba, musiqiy savodxonlik va musiqiy-ijodiy rivojlanishga asoslanadi. Bundan tashqari, birinchi komponent asosiydir, chunki, uning

to'planishi va rivojlanishi ko'p jihatdan keyingi komponentlar har birining darajasi va umuman musiqa madaniyati darajasi qanchalik yuqori bo'lishini belgilaydi [18; 10-b.]. Musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojida kuylash va musiqiy nazariy bilimlar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa mutaxassislarining kasbiy doirasi "kengayib" borishi ham tinglovchilarga taqdim etilayotgan zamonaviy musiqa asarlari saviyasida aks etmoqda. Jumladan, xonanda kuylaydigan qo'shig'ining so'zini o'zi yozishi, kuyini o'zi bastalashi va uni kuylashi odat tusiga kirib bormoqda. Bunday keng profilli mutaxassis bo'lish esa oson emas. Shuning uchun ushbu "asarlarning" saviyasi ayrim hollarda tinglovchilarning munozara mavzusiga aylanmoqda.

I.M.Meliqo'ziyev so'nggi yillarda estrada yo'nalishida ijod qilayotgan, odamlarning ruhiyatiga, ma'naviyatiga emas, oniy kayfiyatlariga, sezgilariga ta'sir qilish bilan qoniqish hosil qilayotgan yoki o'z nafsoniyati yo'lida jon olib, jon berayotgan qo'shiqchilarimizning yengil-yelpi oh-vohlari chumchuqlarning sayrashini eslatishini, bunday qo'shiqlar tinglovchilarning g'ashiga tegishi va juda qisqa fursatlarda unutilib ketishini bildirgan [66; 18-b.].

A.Adilov fikricha, "Tomoshabin qo'shiqchiga ergashadi va o'zgacha nigoh bilan qaraydi. Hozirda qo'shiqlarga olinayotgan aksariyat kliplarni kuzatar ekanmiz, tasviriy yechimdagi no'noqlikning, matndagi sayozliklarning guvohi bo'lamiz" [6; 624-b.]. Bu borada keyingi yillarda ko'p yozildi va aytildi, tadqiqotlar amalga oshirildi, biroq, hozirgacha musiqa ta'limi mutaxassislari kutgan natijaga erishilmadi.

A.V.Polozova musiqaning ijtimoiy ta'siri borasida to'xtalib, keyingi paytlarda ancha past badiiy darajadagi ko'ngilochar musiqa insonning hayotiy makonini to'ldirib yuborganligini, bu musiqa radio, televideniye, konsert maydonchalari, stadionlar, turli do'konlar, jamoat transportida tinimsiz yangrayotganligini uqtiradi [89; 3-b.]. Natija esa tinglovchining badiiy didiga, baholash me'yorlariga, qolaversa, ma'naviy yuksalishiga ijobiy ta'sirining nihoyatda pastligidir. M.B.Umarov fikricha, badiiy obrazlar o'z navbatida, tinglovchi yoki

tomoshabinning ongiga, fikriga, qalbiga, his-tuygʻusiga taʼsir oʻtkazib, uning estetik dunyoqarashini shakllantirishga, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi [122; 24-b.].

Tinglanadigan repertuar asarlarning mavzu doirasi, badiiy-estetik va maʼnaviy-tarbiyaviy imkoniyatlari muhimdir. Shuning uchun, biz har bir alohida olingan oʻquvchi yoki talabalar jamoasida shakllangan musiqiy did darajasi haqida gapirganda, albatta ular tinglaydigan musiqa asarlarining ijtimoiy, badiiy-estetik va maʼnaviy-tarbiyaviy jihatlari hamda imkoniyatlarini nazarda tutishimiz zarur.

Taʼlim muassasalarida tashkil etiladigan turli badiiy-musiqiy tadbirlardagi repertuarni tahlil qilganimizda, zamonaviy milliy estrada va jahon estradasining (afgʻon, eron, turk, hind, arman, ozarbayjon va h.k.) namunalarini kuzatish mumkin. Biroq, badiiy tadbirlar repertuarida oʻzbek milliy asarlari nisbatan kam foizni tashkil etayotganligi haqiqat.

Fikr mohiyati shundan iboratki, har qanday musiqani tinglash avvalo tinglovchining ixtiyorida qoladi. Lekin, milliy gʻururi shakllangan, oʻz milliy sanʼatini sevadigan har qanday kishi birinchi navbatda oʻz milliy sanʼati namunalarini tinglashi, ulardan zavq olishi, shu orqali milliy iftixor tuygʻularini his etishi va shu asosda jahon musiqasi namunalaridan bahramand boʻlish yoʻliga chiqishi maqsadga muvofiq.

“Sanʼatga boʻlgan umumiy ehtiyoj oʻzining shaxsiy “Men”ini predmet sifatida tasavvur qilib, ichki va tashqi olamni anglashga intilishidan kelib chiqadi”, - deb yozgan edi G.Gegel [74; 5-b.]. Mazkur estetik ehtiyojlarni ilgʻagan holda ularni qondirish yoʻlidagi saʼy-harakatlar ijobiy baholanishi zarur. Oʻqituvchi ishining oʻquvchilardagi emotsiyalarning namoyon boʻlishini aniqlashga yoʻnalganligi, faol hissiyotlarni ifodalash, musiqiy-badiiy obraz yaratish jarayonida erkin oʻzini tasarruf etishni ifodalovchi intensiv kechinmalarni kuzatish, atrofdagilarning oʻziga nisbatan hissiyotlarini anglash bilan birgalikda emotsional-hissiy tajribani boyitadi.

Musiqa tinglashga nisbatan shakllangan ustanovkaning ijtimoiy-psixologik va

pedagogik tabiatiga nazar tashlab, shuni ko'rsatish mumkinki:

– ko'p bora tinglangan har qanday musiqaga nisbatan tinglash ehtiyoji shakllanishi muqarrar;

– musiqa tinglashda taqlid fenomeni amal qiladi, asosan o'smirlar, qisman o'spirinlar hatti-harakatlarida ijtimoiy omil yetakchi ahamiyat kasb etadi, ya'ni, "men bu musiqani o'rtoqlarim tinglagani uchun tinglayman" tamoyili amal qiladi;

– jamoat joylari, avtotransport, umumiy ovqatlanish muassasalarida yangraydigan musiqaning reklama-targ'ibot imkoniyatlari nihoyatda keng.

Musiqa asarlari o'z mohiyatiga ko'ra ibratga asoslanadi, asosan tarbiyaviy maqsadni ko'zlaydi. Aslida, chinakam musiqa asari yaratilishi bu san'atda "hodisa" darajasida namoyon bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'quvchi (talaba)larning milliy tafakkur tarzi va milliy ongini, xalqimizning ko'p asrlik milliy an'analari va madaniyatini teran anglashida musiqiy tinglovchilik madaniyati keng imkoniyatlar ochadi.

Milliy musiqa xususiyatlari borasida D.S.Qodirova fikr bildirib, o'zbek xalq musiqa san'ati o'ziga xos estetik shakl va mazmunga egaligi, uning o'rnini boshqa san'at turlari bosolmasligini, u nodir va betakrorligini bayon etgan [55; 4-b.]. Tinglovchiga ta'sir ko'rsatish jarayonida musiqa unda quvonch yoki ma'yuslik, umid yoki umidsizlik, baxt yoki omadsizlik kabi emotsional holatlarni uyg'otish imkoniga ega.

Inson hissiyotlarining barcha ko'rinishlarini musiqa orqali his etishda o'qituvchi bolalarga ko'maklashishi zarur. Musiqa bolalarga musiqiy ifoda vositalari majmui orqali yaxlit ta'sir ko'rsatadi. Bu lad tuzilishi, tembr, temp, dinamika, ritm kabilar bo'lib, asarning asosiy xarakteri va kayfiyatini aks ettiradi hamda tinglovchida kechinmalar assotsiatsiyasini hosil qiladi.

Musiqada bir kayfiyat yoki ruhiy holatdan ikkinchisiga o'tish, eng nozik his-tuyg'ularni ifodalash imkoni mavjud. Qolaversa, ko'pgina musiqa asarlari mazmunida inson tafakkurining shiddatli evrilishlari, hayotga munosabati, irodasi namoyon bo'lishi ochib beriladi, odamlarning turli xarakteri, voqealar rivojida

ularning bir-biri bilan dramatik to‘qnashuvi, hayot kurashi tasvirlanadi. Xor, simfonik va opera musiqasi yirik ijtimoiy hodisalar va ijtimoiy ziddiyatlarni yorqin tarzda ifodalashda o‘ziga xos vositalarga ega.

Har qanday musiqiy obraz – xoh u xalq qo‘shig‘ining oddiy kuyi, xoh opera qahramonining musiqiy portreti, xoh fortepiano asarining asosiy mavzusi bo‘lsin – u yoki bu voqelik hodisasining o‘ziga xos inikosidir. Simfonik orkestrning boy badiiy imkoniyatlari va tovushlarning rang-barang evrilishlaridan foydalangan holda kompozitorlar tinglovchilarda yorug‘lik yoki zulmat tuyg‘usini, issiq kun yoki salqin tunning to‘lqinli muhitini uyg‘otishga qodirdirlar. Ayrim kompozitorlar musiqada shamolning guvillashi, momaqaldiroq, barglarning shitirlashi, qushlarning sayrashi va tabiatning boshqa tovushlarini mahorat bilan ifodalaydilar.

Musiqada intonatsiyasida dinamika katta ahamiyatga ega - ovozning kuchayishi yoki pasayish bo‘yicha o‘zgarishi, asta-sekin yoki to‘satdan sukunatdan baland ovozga o‘tish va boshqalar musiqiy mazmunni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Musiqada vokal ovoz yoki cholg‘uda ijro etilishi mumkin bo‘lgan musiqiy fikr, ohang yetakchi o‘rin egallaydi. Ohang - musiqada asarining asosiy bo‘lagidir. Aniq va ifodali ohangsiz musiqani tushunish va eslab qolish qiyin, binobarin, mazmunsiz ohang tinglovchida hech qanday taassurot qoldira olmaydi. Bu keltirilgan ifoda vositalari, ya’ni, musiqiy omillar idrok mazmunida namoyon bo‘ladi.

Garmoniya (yun. bog‘lanish, uyg‘unlik, mutanosiblik); - kuyning unga hamroh bo‘lgan akkordlar bilan uyg‘un, tabiiy muvofiqlashtirilgan tovushi, shuningdek, akkordlar ketma-ketligidir. Akkordlarning go‘zal garmonik birikmasi musiqaga yangi ifodali tashbehlarni, turli tovush tembrlarini kiritib, musiqiy obrazni chuqurlashtiradi va boyitadi. Bir xil ohang turli garmonik jo‘rlikda ko‘p marta takrorlangan asarni tinglab, bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Buyuk bastakorlar atoqli ijrochilar bilan birgalikda insonlar tuyg‘ulariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilib, o‘zlarining musiqiy ijodlari bilan ularda olijanob ma’naviy turtki sifatida intilishlarni uyg‘otishadi, tinglovchilarni teran tafakkur va

yuksak g'oyalar bilan tanishtirishadi, atrofdagi rang-baranglikni, go'zallikni yanada yaxshiroq, to'liqroq anglashga yordam berishadi.

Rivojlangan musiqiy qobiliyatlar asosida o'quvchi (talaba)larda musiqiy bilimlarni singdirish mumkin, vaholanki, estetik tajriba to'planishida qobiliyat mavjudligi shaxsning har tomonlama rivojlanishi sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqqa asarini ijro etish qobiliyatini rivojlantirish uchun musiqaning ifoda vositalarini farqlay olish, asardagi badiiy mazmuni tushunish, o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lish muhimdir. Tinglash, musiqqa yaratish va ijro etish har doim idrok bilan birga keladi, asarni yaxlit idrok etish uning badiiy qiymatida estetik tajribani talab qiladi. Musiqiy idrok masalasini nazariy tadqiq qilish "musiqiy idrok" tushunchasini ta'riflashga turli yondashuvlarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

Musiqqa tinglash o'quvchi (talaba)larni o'zlari ijro etganidan ko'ra ancha murakkab musiqqa bilan tanishtirishga imkon beradi. Ular vokal, yakkanavoz cholg'u va orkestr asarlarini yuqori sifatli ijroda eshitish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tinglash mashhur ijrochilarning turli janr, shakl, uslub va davrlardagi musiqalarini eshitish imkoniyatini beradi. Hozirgi davrda keng rivojlangan konsert faoliyati va multimedia vositalari tufayli musiqani yuqori sifatda tinglash imkoniyatlari kengaydi.

Bunda radio, televideniye, internet va raqamli texnologiyalar keng aholining, shu jumladan, o'quvchi (talaba)larning musiqqa san'ati bilan muloqot qilishida qulay kommunikatsiya shakliga aylandi. Musiqani maqsadli tinglashni tashkil etish masalasi muhim bo'lib, u musiqiy taassurotlarni o'zlashtirishning badiiy did darajasiga mos ravishda tanlanishini shakllantirishga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda musiqiy mazmuni o'zlashtirish uchun qator texnika va usullardan foydalanilishi mumkin. Bu uchun asarlarni taqqoslash, undagi kontrast nuqtalarni, o'xshashlik va farqlarni aniqlash muhim rol o'ynaydi. O'quvchi (talaba)lar musiqqa asarining turli qismlarini farqlashni, cholg'u sozlar tovushini qanday eshitib anglashni, xarakterli ritmik, ohangdor tovush yo'nalmalarining

o‘ziga xos jihatlarini qanday his qilishni bilib oladilar.

Tinglash uchun asarlar tanlashda ikkita tamoyilga, ya’ni, yuqori badiiylik va tabiiylik tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiq. Shundagina musiqa o‘quvchi (talaba)larda qiziqish va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi mumkin. Pedagogik faoliyat jarayonida yaratilgan ijobiy pozitiv psixologik muhitdan foydalanish samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Tinglash faoliyatining turli shakllari musiqani faol idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, o‘quvchi (talaba)larning musiqiy tajribasini boyitadi, ularda badiiy-ijodiy bilimlarni tizimli singdiradi.

Asarni yaxlit idrok etish esa musiqiy fikr rivojini to‘la tasavvur etish natijasida yuzaga chiqadi [52; 98-b.]. Darslarda o‘rganilgan har bir musiqa asari o‘qituvchi tomonidan badiiy ifoda elementlari, dramaturgiya, shakl va tonal xususiyatlar darajasida batafsil tushuntirish bergan holda yetkazilishi maqsadga muvofiq.

Z.G.Kazandjiyeva-Velinova musiqiy idrokning quyidagi bosqichlarini tavsiflagan: 1) kommunikativgacha, ya’ni, tinglashga tayyor bo‘lish bosqichi; 2) kommunikativ, ya’ni, musiqa asarini idrok etish jarayonini aks ettiradi; 3) postkommunikativ, ya’ni, asarni tinglash tugagandan so‘ng uning mazmunini anglash [48; 40-b.]. Mazkur talqinni ma’lum darajada samarali idrok bosqichlari sifatida ko‘rsatish mumkin.

K.V.Bondar fikriga ko‘ra, “Musiqiy idrok tushunchasining murakkabligi shundaki, ilmiy adabiyotlarda “musiqa tinglash”, “intellektual idrok”, “musiqani o‘zlashtirish”, “musiqiy idrok-tafakkur” kabi atamalar keltiriladi va mazkur jarayonni aniq ta’riflovchi yagona terminologiya mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar hatto birinchisini musiqashunoslik, ikkinchisini esa psixologiya muammosi hisoblab, “musiqiy idrok” va “musiqani idrok etish” tushunchalarini ayro holda ko‘rishadi” [20; 11-b.]. Shunga qaramasdan, musiqiy idrok bu musiqiy mazmuni to‘laqonli anglashdir, degan ta’rif keng qo‘llaniladi.

T.S.Tanko, inson organizmidagi harakat reaksiyalari idrokning o‘ziga xos

bo‘lagi hisoblanib – tinglashni kechinmaga, keyinchalik empatiyaga aylantirishini ta’kidlaydi [114]. Musiqiy idrok yaxlit holda musiqa asarining o‘zlashtirilishi, ongda yaxlit aks ettirilishini ta’minlaydi. Musiqiy idrokning 4 ta tipi ajratib ko‘rsatiladi. Bular: yaxlitlik, emotsionallik, anglanganlik va obrazlilikdir. Musiqa asari tinglovchi tomonidan avvalo, yaxlit tarzda idrok etiladi, biroq bu musiqa nutqining alohida elementlari: kuy, garmoniya, ritm va tembrning ifodaliligi asosida amalga oshiriladi.

To‘laqonli musiqiy idrokning asosiy xossasi estetik emotsionallik bo‘lib, musiqa tinglash natijasida hosil bo‘ladigan musiqiy obraz in’ikosi, hissiyot va kayfiyatni kechinmalar tarzida his etishdir. Musiqani estetik idrok etish hamisha emotsionallik orqali namoyon bo‘ladi. Idrok anglanganlik va tushunishsiz amalga oshishi mumkin emas. Tinglanadigan musiqa anglanishi va tushunilishi lozim. Musiqani idrok etishda emotsionallik va anglanganlikning birligi musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biridir. Musiqiy idrok obrazlilik bilan namoyon bo‘ladi. Kompozitor tomonidan musiqa mazmunini ifodalash uchun qo‘llanilgan turli ifoda vositalari birligi musiqiy obrazni tashkil etadi.

Demak, musiqiy idrok o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi va ularda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishning asosi bo‘lib hisoblanadi. Musiqiy idrok musiqiy faoliyatlarning barchasi - kuylash, tinglash, musiqa savodi, musiqiy-ritmik harakatlar, bolalar musiqa cholg‘ularida chalishda ishtirok etadi. Shu bilan birga, musiqiy idrok mustaqil musiqiy faoliyat sanaladi va tinglash vositasida amalga oshiriladi.

Musiqa tinglash eng samarali va rivojlantiruvchi musiqiy faoliyatlardan biri sanaladi, ushbu jarayonda bolalar musiqani tinglash va uning badiiy mazmunini anglashni, emotsional idrok etishni va tahlil qilishni o‘rganishadi. Musiqa tinglab, boshqa musiqiy faoliyatlardan ko‘ra ko‘proq badiiy-estetik taassurotlarga ega bo‘lishadi.

Samarali ish shakllari sifatida musiqiy viktorinalar, “musiqiy topishmoq”, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Demak, musiqiy

obrazilarni idrok etish o'quvchi-tinglovchining ma'lum ijodiy faoliyati jarayonida, ma'lum musiqiy-eshitish va hayotiy tajribasi negizida akustik, intonatsion va ma'naviy-qadriyatli darajalarda amalga oshiriladi.

Zamonaviy musiqa asarlarining o'ziga xos badiiy-musiqiy xususiyatlari: badiiy-estetik mazmuni ifodalash, o'quvchi-tinglovchi ruhiyati, kayfiyati, ichki olami va emotsiyalariga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, asarlarning usul-ritmlarni ifodalash, musiqiy bezaklar, milliy cholg'u sozlarining tovush hosil qilish va tembr xususiyatlari orqali milliy an'analarni ifodalashi, ijroviy imkoniyatlari, asarlar shaklining tuzilishi, cholg'u kuyi rivojlanishi qonuniyatlarining o'quvchi (talaba) ongidagi in'ikosi, vokal va cholg'u asarlar ijrosi orqali milliy turmush tarzi va milliy qadriyatlarning yorqin tasvirlanishida ifodalanadi.

O'quvchi (talaba)lardagi musiqiy idrok sifati ayrim ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, aynan ularning ijtimoiy-psixologik ta'sirini nazarda tutgan holda ta'lim jarayoni amalga oshirilishi lozim. Aytish mumkinki, yuqoridagi ijtimoiy omillar yaxlit tarzda turli individual va hududiy xususiyatlarga mansub o'quvchi (talaba)larda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Musiqiy tinglovchilik madaniyati - musiqada ifodalangan badiiy-estetik mazmuni, kayfiyatni to'g'ri va adekvat tushunish, unga munosib baho berish, ohanglar obrazlarida mantiqiy mazmun topish, musiqaga emotsional javob berish qobiliyati, musiqadagi tarbiyaviy jihatlarni o'zi uchun ibrat sifatida qabul qilish, musiqani badiiy obraz tarzida idrok etish va hamdardlik hissini namoyon etishdir.

Musiqa tinglashning psixologik xususiyatlari: tinglanadigan musiqaning emotsiyalar, kechinmalar, kayfiyat, xotira assotsiatsiyalari orqali idrok etilishida namoyon bo'ladi. Musiqa tinglovchining kayfiyatiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatib, uning kayfiyatini ko'tarishi, xursand qilishi, ma'yus holatga keltirishi, jasoratga undashi, assotsiativ tarzda oldin bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni esiga tushirishi va kayfiyati o'zgarishiga olib kelishi mumkin. B.V.Asafyevning intonatsion nazariyasiga ko'pa, musiqiy tovushlar harakatini bilish orqali musiqiy

mazmunni anglash musiqa ta'limining hap bip metodik tizimi uchun univepsal hisoblanadi. Didaktik vazifalapidan kelib chiqqan holda, uni ta'limga joriy etish, qo'llash usul va vositalari tuplicha bo'ladi.

II BOB. MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI, MAZMUNI VA MEXANIZMLARI.

2.1-§ Musiqadagi badiiy-estetik mazmuni o‘zlashtirish imkoniyatlari namoyon etilishida sub’yektivlik xususiyatlari

Musiqaning tinglash madaniyatini tarbiyalash o‘quvchilarni badiiy-estetik va axloqiy rivojlantirishning muhim omili bo‘lib, sub’yektivlik xususiyatlari bilan namoyon etiladi. Musiqaning idroki shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, individual yoki guruh sharoitida musiqaning tinglash orqali shakllanadigan musiqiy tasavvurlar ko‘lami muhim farqlarni namoyon etadi. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: qobiliyatlar, qiziqishlar, yo‘nalganlik, temperament tipi, iroda kuchi sub’yektiv xususiyatlarga ega bo‘lib, musiqiy tinglovchilik faoliyati samaradorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy va musiqiy hodisalar o‘rtasida muhim aloqalar bilan xarakterlanadigan, musiqaning ta’limi va tarbiyasini samarali amalga oshirishning ob’yektiv sabablari musiqaning ta’limi qonuniyatlarini tashkil etadi. Ularga:

– zamonaviy jamiyatimiz taraqqiyoti darajasi bilan musiqaning o‘qitishning mazmuni orasidagi muvofiqlik;

– musiqaning o‘qitish va tarbiyalash jarayonining milliy musiqaning madaniyati rivojlanishini ta’minlaydigan negizlarga bog‘liqligi;

– musiqaning ta’limi va tarbiyasi mazmunining milliy musiqiy an’analarga bog‘liqligi kabilar kiradi.

Musiqiy ta’lim-tarbiyaning samaradorligi va sifatini ta’minlaydigan motivatsiyalar, dialektik ziddiyatlar musiqaning ta’limining harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib, pirovard natijada musiqiy tinglovchilik faoliyatini samarali amalga oshirishning qulay yo‘l va usullarini topishga shart-sharoit yaratadi. Mavjud musiqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar orasida ziddiyat paydo bo‘lishi, ularni doimiy yengishga intilish musiqaning ta’limi va tarbiyasining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida bu ziddiyatlar tushunish va tushunmaslik, bilim va bilimsizlik, malakalilik va malakasizlik va h.k.lar orqali namoyon etiladi. Musiqa ta’limi va tarbiyasida har safar keyingi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash musiqa ta’limini yaxlit holda rivojlantirishga va uning samaradorligini oshirishga olib keladi.

E.I.Medvedning talqinicha, “Madaniyat – o‘z-o‘zini tasarruf etishning yaxlit fenomeni sifatida o‘tkir qirradi bilan ma’naviy ko‘zimiz gavhariga “piramidali linza” kabi ta’sir ko‘rsatadi” [65; 7-b.]. Mazkur o‘ziga xoslik musiqadagi badiiy mazmuni anglashda sub’yektivlikni aks ettirib turadi. V.V.Baxtin esa o‘quvchi tomonidan emotsional idrok etilmagan, kechinma sifatida his qilinmagan va mazmuni anglanmagan musiqa o‘quvchi nazarida o‘zining shaxsiy-qadriyatli ahamiyatini yo‘qotadi, deydi [14; 3-b.].

Endi musiqa tinglashdagi sub’yektivlik xususiyatlari tahliliga o‘tamiz. Bilimdon tinglovchi - bu musiqani o‘ziga xos “ko‘rish” imkoniga ega, ijtimoiy-madaniy muhitning badiiy qadriyatlari ustuvorliklarini o‘zida aks ettirgan shaxsdir. Shu bois, musiqiy eshitishning asosiy komponentlaridan biri musiqa materialini eshitib tasavvur qilish qobiliyati sanaladi. Musiqiy xotira, musiqiy eshitish tasavvurlari, lad, garmoniyani his qilish, musiqaning ifoda vositalarini yaxlit idrok etish orqali badiiy-estetik mazmuni adekvat anglash har bir o‘quvchida individual shaklda namoyon etiladi.

Bu qobiliyat musiqiy ohangni qayta kuylash, uni eshitish yoki cholg‘u asbobida ijro etishga asoslanadi va ko‘p ovozli musiqani garmonik idrok etishning zarur sharti bo‘lib hisoblanadi, bu qobiliyat odatda *ichki eshitish* tushunchasi bilan bog‘lanadi. Ichki eshitish haqiqiy tovush taassurotlaridan qat’iy nazar, xotira taassurotlari yordamida musiqiy tovushlarni tasavvur qilishdan iborat, tashqi eshitish esa fizik darajada eshitaladigan haqiqiy eshitish tasavvurlari bo‘lib hisoblanadi. Tinglash faoliyati orqali estetik kechinmalar namoyon bo‘lishida inson shaxsi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy va individual xususiyatlari ifodalanadi.

Mana shundan did simpatiyalari va antipatiyalaridagi xilma-xillik kelib chiqadi. Biz tajriba mashg'ulotlarida jamoaviy shaklda bo'lsada, individuallashtirilgan ta'lim imkoniyatlaridan foydalanib har bir o'quvchining tinglash faoliyati natijalarini ko'rib borishga va zarur holatlarda korreksiyalashga harakat qildik.

L.F.Chekina kichik maktab yoshida shakllangan refleksiya o'quvchini o'ziga "yo'naltirishini", o'smir o'zini kattalar va o'zidan kichiklar bilan tenglashtirishni boshlashini va ushbu tahlil orqali o'zining - bola emas, balki, kattalarga yaqin ekanligi borasida xulosaga keladi, deb ta'kidlaydi [128; 179-b.]. Musiqiy-pedagogik jarayonda mazkur murakkab psixologik vaziyatni nazarda tutgan holda o'smir-o'quvchilar bilan ta'limiy faoliyat tashkil etildi.

Hissiy sezuvchanlik asosiy musiqiy qobiliyatlardan biridir. Musiqaga hissiy sezuvchanlik – bu musiqa asari xarakteri, kayfiyatini his qilish, musiqiy obrazlar orqali ijodiy tasavvur qilish qobiliyati bo'lib hisoblanadi va tinglash faoliyatida sub'yektivlikni asoslovchi qobiliyatlardan biridir. Musiqani eshitish, idrok etish uning xarakterini farqlashni, intonatsiya, kayfiyatning o'zgarishi, badiiy obrazning rivojlanishini kuzatishni anglatadi.

Musiqani idrok etishning sub'yektivlik xususiyatidan kelib chiqqan holda hissiy sezuvchanlikni quyidagi sharoitlarda rivojlantirish mumkin: a) o'qituvchi va o'quvchining faol o'zaro ta'siri; b) rivojlanayotgan guruh muhitini, musiqa zalini tegishli jihozlar va atributlar bilan jihozlash; v) o'quvchilar bilan musiqani idrok etish qoidalariga rioya qilish; g) o'quvchilar bilan musiqa asarlarini tinglash algoritmini o'zlashtirish; d) o'quvchilarni musiqa tinglashga jalb qilish, ularda samarali idrok faoliyati uchun maqbul kayfiyat yaratish; ye) musiqa asarini dastlabki tinglash, u bilan tanishish; j) qayta tinglash, keyin musiqiy tahlil qilish, taassurotlarni tahlil qilish va musiqiy ifoda vositalarini tavsiflash; z) o'quvchilarda tinglangan musiqa haqidagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlash, asar haqida munosabat bildirish; i) badiiy, o'yin, musiqiy-ritmik harakatlar orqali o'quvchida

musiqiy idrok natijalarini sub'yektiv ifodalashda maqbul sharoit yaratish kabilardir.

A.N.Soxor bu borada fikr bildirib, "Ijodkor - insonning ichki olamini o'zining faoliyat predmeti sifatida qabul qilar ekan, ushbu olam (xususan hissiyotlar, kayfiyatlar) sub'yektiv baholanadigan bilish ob'yekti sifatida yaratadigan asarida ifodalanadi. Bunda ijodkor o'zining hissiyotlari va kayfiyatini aks ettiradimi yoki boshqalarnikinimi, farqi yo'q. Baribir, muallif asarga "chetdan nigoh tashlashi", tanlashi, fikrlashi va baholashi, ya'ni, voqelikni sub'yektiv aks ettirishning maqbul variantlarini tanlashi lozim"ligini ta'kidlab o'tgan [109; 9-b.].

Musiqqa asari g'oyasini ifodalashda o'qituvchining nutq texnikasi madaniyati, leksika, fonetika, uslub, so'zlash, urg'u jihatidan yuksak talab darajasida bo'lishi, nutq musiqqa san'ati borasida bo'lganligi sababli badiiy mazmuni estetik yo'nalgan, aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Musiqiy pedagogik jarayonni ijodiy tashkil etishning ierarxiyasi badiiy-musiqiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Ushbu pedagogik kasbiy sifatlar asosida darsni tashkil etish orqali o'quvchi (talaba)larni musiqiy-pedagogik jarayonga olib kirish imkoniyatlari yanada kengayadi, ta'limning natijadorligi oshadi. L.I.Ukolova talqiniga ko'ra, musiqaning tayanch xususiyatlaridan biri - uning ko'p qirrali dinamik muhitni yaratish imkoniyatidir. Bu o'ziga xos muhit, vaqt bilan bog'liq, psixologik, pedagogik parametrlarga ega bo'lib, shaxsga kuchli shakllantiruvchi va tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatadi [121; 5-b.].

Mimika pedagogik jihatdan yuksak talablar doirasida bo'lishi, ijro etilayotgan yoki tinglanayotgan musiqqa asaridagi badiiy voqelik mohiyatini aks ettirish orqali o'qituvchining musiqiy faoliyat mazmuni va yo'nalganligini kuchaytirishi zarur. Musiqqa asari g'oyasini ifodalashda nutq texnikasi madaniyati, shuningdek, nutq leksika, fonetika, uslub, so'zlash, urg'u jihatidan yuksak talab darajasida bo'lishi, nutq musiqqa san'ati borasida bo'lganligi sababli badiiy mazmuni estetik yo'nalgan, aniq va tushunarli bo'lishi lozim.

G.L.Knyazeva zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar to'g'risida to'xtalib, "Ta'limni modernizatsiyalash hozirgi sharoitda muntazam tarzda o'zini kasbiy va ma'naviy takomillashtirishga intiladigan, izchil ijodiy faol va atrof-muhitni gumanistik anglaydigan o'qituvchi-musiqachi uchun yangi talablarni ilgari surmoqda", deya uqtiradi [45; 3-b.].

O'qituvchining xonaga qanday kirib kelishi, bolalarga qanday nigoh bilan qarashi, salomlashishi, o'quv auditoriyasida qanday tempda yurishi - bularning barchasi o'quvchi (talaba)ga o'ziga xos ijobiy (yoki salbiy) psixologik ta'sir ko'rsatadigan kuchdir. Vazmin, xushmuomala, bilimlarni o'quvchiga sodda tarzda yetkaza oladigan, har bir o'quvchining o'zlashtirish dinamikasini sezib turadigan va hissiy holatini yaxshi tushunadigan o'qituvchi o'ziga ishongan, kuchli o'qituvchidir. O'qitish metodlari va vositalarini shunday tanlash lozimki, musiqa materiali o'zining murakkabligi nuqtai nazaridan o'quvchilarning qobiliyatlari, ularning o'zlashtirish imkoniyatlari darajasida bo'lsin.

Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasini tadqiq etgan B.M.Teplov shunday fikrni ilgari suradi, "Musiqiy ladlar bir-biridan tubdan farq qiladi, ularni tinglaganda turli kayfiyatlar paydo bo'ladi, biz har bir ladga bir xil munosabat ko'rsatmaymiz: masalan, miksolidiy va boshqa nisbatan "yumshoq" lادلarni tinglab, kayfiyatimiz ko'tarilganini his qilamiz, boshqa ladlar o'rtacha muvozanatli kayfiyatlarni hosil qiladi" [116; 8-b.]. Lادلarni his etish sub'yektiv xususiyat kasb etadi va tinglash jarayonining sifatini ma'lum darajada belgilaydi. Ye.S.Borisovaga ko'ra, perseptiv jarayonni tashkil etuvchi sub'ekt (tinglovchi), ob'yekt (musiqa materiali) va idrok jarayonining o'zi - hissiy obrazni shakllantirishdagi o'zaro aloqadorlik vositasi sanaladi [21; 10-b.].

Tinglash faoliyati samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bu o'qituvchining nutqi bo'lib, tinglangan asar borasida ta'rif berish, undagi badiiy-estetik mazmuni bor-budicha ifodalash - yuz harakatlari, tana a'zolari yordami bilan amalga oshiriladi va syujetli, qoidali, ma'noli, dramatik, kechinmali, noverbal nutq shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bu pantomimika vositasidagi

nutq bo'lib, aynan tovushsiz ma'lum axborotni uzatish uchun qo'llaniladi va musiqa ta'limida muhim rol o'ynaydi. Pantomimika o'z mohiyati ko'lami bilan mimikadan ustuvor xususiyatga ega bo'lib, musiqiy mazmun, badiiy ifoda, asardagi murakkab dramatik kechinmalar yuzasidan o'quvchilarga ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Pantomimikadan o'qituvchi tinglash faoliyatini tashkil etishda unumli foydalanishi mumkin, bunda asar mazmuni yaqqol ruhiy holatlar, emotsiyalar va harakatlar vositasida, hissiylik asosida yetkazib beriladi hamda kuchli ruhiy ta'sir quvvatiga ega bo'ladi.

T.S.Tanko talqiniga ko'ra, "Musika psixologik-pedagogik vosita sifatida o'quvchilarni musiqa san'atiga olib kirish orqali ularning shaxsiy sifatlarini, tushuncha va tasavvurlari doirasini, ma'naviy-axloqiy, intellektual va emotsional sohalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi" [114]. Ta'kidlash lozimki, tabiiy xususiyatlar o'quvchining musiqa bo'yicha egallaydigan yutuqlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin, masalan, musiqiy qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shu sababli ba'zi bolalar boshqalaridan musiqiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Shu ma'noda, o'quvchilar o'z qobiliyatlarini baravar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar.

Tabiiy layoqatlar o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular rivojlantirilmasa hech qanday iza yo'qolishi ehtimoli yuqori. Jumladan, V.I.Petrushin metodikasini qo'llash orqali o'quvchi (talaba)larda musiqaga nisbatan munosabat, qiziqish va ustanovkalarining ifodalanishi darajasini o'rganish mumkin. V.G.Kasimov tomonidan taqdim etilgan "Tinglovchilik faoliyatiga munosabatni o'rganish testi" esa tinglash faoliyatiga nisbatan mavjud motivatsiya darajasini diagnostik o'rganishda muhimdir [87; 386-395-b.]. Bularning barchasi tinglash faoliyatining sub'yektiv jihatini ta'kidlaydi va o'qituvchi dars mashg'ulotlarida mazkur pedagogik xususiyatlarni nazarda tutgan holda ta'limiy jarayonni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar asosiy hissiy holatlarni ma'lum darajada aniqlay oladilar,

eshitgan musiqalarini o'zlarining tajribalari bilan bog'lashga harakat qiladilar, ammo, musiqa emotsional-obrazli mazmuni bo'yicha yetarli darajada so'z boyligiga ega emasligini ham tan olishimiz zarur.

Musiqiy sezuvchanlikni rivojlantirishning turli usullaridan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Masalan, o'quvchilar bilan musiqa haqida suhbatlar, badiiy ifoda, musiqa asarlariga bag'ishlangan rasmlar, turli maketlar va boshqa ko'rgazmali vositalar o'quvchiga asarning emotsional (hissiy) obrazini vizual ravishda tushunishga va taqdim etishga yordam beradi. Emotsional sezuvchanligi yuqori o'quvchilar musiqa haqida o'z fikrlarini erkin bildirishi, unga estetik baho berishi, obrazli taqqoslash va metaforalardan keng foydalana olishi, hissiy tajribasi bilan o'rtoqlasha olishi lozim.

O'quvchilarning asar mazmuni, musiqiy ifoda vositalari va hissiy kayfiyat o'rtasidagi aloqalarni ishonchli tarzda o'rnatish olishi ularning badiiy obrazlarni tushunishidan dalolat beradi. Ular musiqa asarlari bilan muloqot jarayonida boshdan kechirgan his-tuyg'ularini turli faoliyatlar: rasm chizish, harakatlarda ifodalash, raqsga tushish kabilar orqali ifodalashi maqsadga muvofiq.

Emotsionallik darajasi o'rtacha va past darajadagi o'quvchilar hissiy tajribani ifodalashda ko'proq cheklanganlikni namoyon etishadi, mazkur holat ularning individual tipologik xususiyatlariga ham bog'liqligini nazarda tutish zarur. Yuqoridagi ish usullari o'quvchining hissiy sezuvchanligini rivojlantirish maqsadida, o'qituvchilar tomonidan musiqiy idrok faoliyati jarayonida hissiy tajribani boyitish bo'yicha tizimli va maqsadli ishlarni amalga oshirishlari zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy musiqiy-pedagogik ta'lim o'zida jahon pedagogika fani, musiqiy va badiiy madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini, shuningdek, jamiyatning hozirgi bosqichdagi rivojlanish xususiyatlari va tuzilishi murakkabligini mujassam etgan noyob ijtimoiy-madaniy hodisadir. I.R.Levina musiqiy pedagogik ta'lim faoliyatining bosh vazifasi ta'lim oluvchilarga o'zaro ta'sir tajribasi va ijodiy faoliyat shakllari asosida ilg'or an'analar, jahon madaniyatining nodir

namunalarini yetkazishdan iborat, deb hisoblaydi [57; 18-b.]. Musiqachi-pedagog D.B.Kabalevskiy aytadi: “Musika – ko‘ngil ochish, o‘z istagi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lgan hayotga nisbatan “garnir” (qo‘shimcha) emas, balki, yaxlit holdagi hayotning va alohida olingan shaxs, jumladan, maktab o‘quvchisi hayotining muhim qismidir” [92; 3-b.]. Bu so‘zlar orqali D.B.Kabalevskiy yoshlar uchun musiqaning muhim tarbiyaviy va ijobiy yo‘naltiruvchi quvvatini ta’kidlagan. Chunki, “Madaniyatdagi inson – bu shaxs, yangi evrilishlar ijodkori bo‘lgan sub’ekt, (E.V.Ilyenkov, V.V.Davidov), ya’ni, boshqa insonlar uchun ideal darajada taqdim etilgan umumiy va ahamiyatli (V.A.Petrovskiy), shu bilan birga, - o‘zini-o‘zi o‘zgartirish, o‘zini-o‘zi qayta kashf etish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish sub’yektidir” [18; 13-b.].

Hozirgi sharoitda jumladan, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning aksariyati uchun tinglashda sodda, ba’zan esa talab darajasidan past bo‘lgan musiqa ustuvorlik kasb etmoqda, ya’ni, tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda haqiqiy musiqa san’ati mazmuni bilan boyitilgan usullar emas, sodda yo‘llar ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tabiatiga ko‘ra, o‘smir-o‘quvchining musiqiy tinglovchilik madaniyati o‘zida ko‘p darajali integrativ shaxs sifatlarini aks ettiradi. Bu o‘qish va dam olish faoliyatida tinglangan hamda ijro etilgan musiqa orqali ma’naviy boyish qobiliyatida namoyon etiladi va bir-biriga bog‘liq motivatsion, emotsional, intellektual, baholovchi, faoliyatli tarkibiy qismlarni o‘zida aks ettiradi.

Musiqiy idrokning ayrim sifat va xususiyatlarida ifodalanadigan psixologik negizlarni, mazkur sifatlarning qaysi tarkibiy qismlardan va qanday paydo bo‘lishini tushunish uchun musiqa idroki qobiliyatining ontogenetik evolyusiyasiga murojaat qilish muhim. Ushbu evolyusiyada ma’lum bir barqarorlik belgilanadi, ya’ni, yoshlar rivojlanishining har bir bosqichi turli xususiyatlar va idrokning turlicha yo‘nalganligi bilan tavsiflanadi.

Rivojlanish asosiy bosqichlarining xususiyatlari ko‘plab mualliflar tomonidan deyarli bir xil tavsiflangan bo‘lib, bolada yetuk konseptual tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishi davriga to‘g‘ri keladi. Aynan mana shu jarayon

o‘smir psixikasida sodir bo‘ladigan barcha o‘zgarishlarning, xoh u nutq xususiyatlariga, idrokiga yoki har qanday sohadagi ijodiyotiga tegishli bo‘ladimi, mutlaqo barcha o‘zgarishlarni yorqin aks ettiradi.

Musiqa pedagoglari har bir asarda o‘smirlar ko‘pincha bitta yetakchi xususiyatni ifodalashga urinishini ta’kidlaydilar. Ularning idroki birinchi navbatda temp, dinamika, tembr, artikulyatsiya va iboralarga qaratiladi. Melodik-ritmik komponentlar nisbatan ozroq ma’no anglatadi va ba’zi o‘quvchilar uchun deyarli rol o‘ynamaydi.

Yaxlit ob’jekt ma’lum bo‘laklarni o‘zaro bog‘lashdan iborat. Bolalarning musiqiy rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar, yangi asarlar allaqachon ma’lum bo‘lganlarning parchalaridan iborat bo‘lganda, bolalarning popurri deb ataladigan vokal asarni kuylash odati haqida ma’lumotni o‘z ichiga oladi. Qoidaga ko‘ra, bu popurrilar ma’lum belgilersiz tasodifiy tuzilmalardir. Shuni ta’kidlash kerakki, epizodik idrok etish va fikrlash tabiiy ravishda takrorlash majburiyatini keltirib chiqaradi. Ota-onalar bolalarining rasmga qarab bir xil hikoyalarni o‘qishni so‘raganidek, bir xil qo‘shiqlarni haftalar va oylar davomida kuylashlarini istaydilar.

Ko‘pgina tadqiqotchilar ko‘pincha idrok faoliyatining ijodiy tabiatiga qaramay, ular sezilarli konservatizm bilan ajralib turishiga e’tibor berishadi, chunki o‘quvchi ijtimoiylashuvining butun jarayoni kattalar hatti-harakatlarini nusxalash, ularga taqlid qilish bilan bog‘liq. Ular musiqiy rivojlanishning eng yorqin daqiqalariga - musiqiy mavzularga, dinamik va tembrli lahzalarga hissiy munosabat ko‘rsatishadi. O‘quvchilarda musiqiy idrok qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik muammolari aynan ularning yosh xususiyatlariga borib taqaladi.

O‘quvchi-tinglovchi faoliyati hamisha musiqa asari mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. Asar mazmuni – bu tinglovchi va uni o‘rab turgan olam haqidagi, muallif va ijrochi haqidagi uning ongida shakllanadigan tasavvurlardir. Biroq, asar mazmunini anglash darajasi tinglovchi faoliyatining

sifatiga bog'liq bo'ladi va uning ongida turli hajmda shakllanadi. Har qanday musiqiy mavzu va kechinma tinglovchi ongida uning hayotidagi real voqealar, hodisalar, harakatlar va hislar haqidagi xotiralarni uyg'otadi va tinglovchi ularni musiqa ifodalayotgan holatlar bilan taqqoslaydi. Badiiy kechinmalar o'quvchi-tinglovchini o'rab turgan olam intellektual aks ettirilishiga ongning reaksiyasidir. Alohida olingan musiqiy tovushda 5 ta xossa mavjud bo'lib, bular: balandlik, tembr, tovush kuchi, tovush yangrashi davomiyligi va makonda lokallashishdan iborat. Aynan yangragan musiqadagi ushbu 5 ta xossani to'laqonli anglash, tasavvurlar tarzida ongda aks ettirish sub'yektivlik (tinglashning sub'yektivligi) asosida amalga oshiriladi.

Ya'ni, idrok etiladigan tovush borliqning eshitiladigan obrazi bo'lganligi uchun ushbu 5 ta xossaning har biriga ob'yektiv akustik nisbatlar axtarish lozim. Bular: tovush kuchini tebranish amplitudasiga, tembrni to'lqin shakliga, balandlikni tebranish chastotasiga qiyoslashda namoyon etiladi. Tovush yangrashi davomiyligi va uning makonda lokallashishi fizik va psixologik talqinda aynan bir-biriga mos keladi.

Musiqa, san'at turi sifatida psixik va psixofiziologik xususiyatlar hamda jarayonlar shakllanishiga faol ijobiy ta'sir etadi. Musiqa bilan uchrashuv onlarida o'smir va o'spirinlarda hosil bo'ladigan qoniqish va quvonch hislari ta'sirida psixik jarayonlar faollashadi. Musiqa bilan intellektual bog'lanishlar psixikaning rivojlanishiga olib keladi, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, taassurotlarini boyitadi, xotira va tafakkurni rivojlantiradi, ularning irodasi va dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

U intellektual faoliyatni barqarorlashtirib, turli sohalarda ijodiy intilishlarni yengillashtiradi. Bularning barchasi tinglashda sub'yektivlikning xususiyatlari sanaladi. Tinglash jarayonida o'quvchi (talaba) ongida paydo bo'ladigan obrazlar xarakteri orqali uning axloqiy rivojlanish darajasi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Agar o'quvchi kitob o'qish va musiqa tinglashga qiziqmayotgan bo'lsa,

demak, unda san'atning murakkab shakllarini tushunish qobiliyati va ehtiyojini tarbiyalashga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Shunga binoan, o'quvchi (talaba)lar musiqiy ehtiyojlarini yaxshi bilish musiqa asarini idrok qilish jarayonini, real tinglovchining faoliyat motivlarini va uning natijasini to'laqonli tasavvur qilishga imkon yaratadi.

“Shaxs, erkinlik, ijodkorlik - madaniyatning badiiy makonini qadimdan bunyod etgan “uch ustun”dir. Homo Faber - Ijodkor Inson ming yillar davomida dunyoni idrok etish uchun kurashib keladi. N.Berdyayev aytganidek, shaxs hukmidagi yangi badiiy olamlarni yaratuvchi “ehtiros va ehtirosli tuyg'ular bor”. Bu tuyg'ular borliqdagi oliy qadriyatlar takomillashib boradigan va amal qiladigan ijodiy yaratuvchilikning harakatlantiruvchi kuchi, olamni, ma'naviy makonni faol ijodiy o'zgartirish mexanizmidir” [134; 6-b.].

Bastakor ongida vujudga keladigan, ijrochi tomonidan talqin qilinadigan va o'quvchi-tinglovchi ongida badiiy ohanglar obrazlari tarzida aks ettiriladigan musiqiy mazmun har uch sub'ektda bir-biriga o'xshash va ayni paytda bir-biridan farq qiladi. O'xshashligi “ikkilamchi” (ijrochi) va “uchlamchi” (tinglovchi) obrazlarning birinchisi (bastakor) ijodiy talqini asosida vujudga kelishi bo'lsa, boshqa tomondan, ijro etilgan va tinglovchi tomonidan idrok etilgan musiqa asari o'zining asosiy badiiy-estetik xususiyatlarini saqlab qolishi, ijrochi tomonidan talqin qilingan asarning badiiy-musiqiy semantikasi va tuzilishini belgilab beruvchi ma'lum mazmun invariantini o'z ichiga olganligi bilan bog'liqdir.

Ijrochilar, musiqa madaniyatining atoqli namoyandalari nazariyotchilar va amaliyotchi o'qituvchilarga murojaat qilib, azaldan ularning asosiy vazifasi buyuk musiqa asarlarining inson qalbiga chuqur kirib borish imkoniyatlarini muntazam tarzda tushuntirish zarurligini ta'kidlab keladilar. Bu holatda, bir musiqiy mavzu obrazi boshqa asarning badiiy obrazi bilan o'xshash va farqli jihatlarni namoyon etishini teran anglashni, talab qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan sub'ektlar (bastakor - ijrochi - tinglovchi) o'rtasidagi farqlar asosiy, bastakor obraziga xos bo'lgan va yuqorida aytib o'tilganidek,

ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan ob'yektiv mazmunning "birikish" darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Qolaversa, bastakor va ijrochining umumiy va kasbiy madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, ular har birining badiiy ongi qanchalik rivojlangan, hissiy doirasi va ma'naviy dunyoqarashi qanchalik keng bo'lsa, musiqa asariga ma'nau shunchalik yaqin bo'lishini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Zero, asar muallifi tomonidan belgilab berilgan ma'lum bir ramziy doira ("zona") mavjud bo'lib, uning chegarasida kishi o'z xayoli, fantaziyasi estetik mayllariga mos ravishda harakatlanishi mumkin, lekin undan tashqariga chiqishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Demak, o'qituvchi-musiqachining vazifasi o'quvchi ongiga, unda shakllanayotgan tinglovchilik madaniyatiga ta'sir pozitiv ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lib, musiqa asarining o'ziga xosligi va tabiatiga aniq yo'naltirilishi lozim. O'quvchi-tinglovchi musiqaning iste'molchisi, ijtimoiy-madaniy muhitning badiiy qadriyatlari va aksiologik ustuvorliklarini o'zida to'plagan shaxsdir.

Musiqa san'ati hodisasini o'rganish inson ichki dunyosining barcha jabhalarini qamrab oluvchi murakkab jarayondir. Chunki, musiqa - bilim va tajriba tug'iladigan, hissiyot va intellekt hamohang tarzda harakat qiladigan, fikr ehtirosli tuyg'u bilan boyiydigan makondir. "Bu O.Mandelshtam so'zlari bilan aytganda "hayrat saltanati" deb ataladigan, maxsus mantiq amal qiladigan ijtimoiy-estetik muhitdir" [134; 4-b.].

Shu uchun musiqa ta'limida uning estetik mazmuni, botiniy ta'sir quvvatini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ye.A.Bodina musiqani ma'naviy-axloqiy haqiqatni o'ziga xos badiiy shaklda tinglovchiga - olam va insonlar bilan emotsional o'zaro harakat shaklida "taklif etishi"ni, tinglovchini ong dialogiga chorlashini" ta'kidlaydi [19].

Ushbu sharoitda musiqani o'zlashtirishning barcha muhim nuqtalarini, ya'ni, badiiy ifoda vositalari, janr va shakl tuzilishi xususiyatlarini o'zlashtirish taqozo etiladi. "Ko'pchilik kishilarda musiqa idroki bilan bog'liq assotsiatsiyalar paydo

bo'lishi hodisasini L.Meyer konnotatsiya atamasi bilan belgilagan edi. Konnotatsiya tinglovchilar guruhini ma'lum madaniyat va mazmunli yo'nalish doirasida birlashtiradi" [22; 92-b.].

Badiiy-ijodiy salohiyatni boyitishda har qanday o'quvchi (talaba)lar kontingenti bilan ishlaganda ham maxsus kreativ pedagogik muhitda harakat qilish maqsadga muvofiq. San'at pedagogikasi o'z xususiyatlariga ko'ra, liberal-tolerant o'qitish uslubi bilan uyg'unlashadi, mashg'ulotlarda o'quvchi (talaba)larning izchil muloqoti, badiiy-ijodiy muhokamalarni o'z ichiga oladi, musiqiy material va uni talqin qilish muammolari bo'yicha turli nuqtai nazarlarni taklif qiladi.

Musiqqa pedagogi, kompozitor D.B.Kabalevskiy musiqqa bilan dastlabki tanishuvni bolalar uchun yozilgan yengil pesalar asosida emas, balki jiddiy simfonik musiqqa bilan boshlash lozim, bu faol musiqqa tinglashni barqarorlashtiradi, deb uqtirgan edi. Musiqiy obrazlarni idrok etish o'quvchining ijodiy faoliyatida amalga oshadi hamda uning musiqiy va hayotiy tajribasiga tayanadi.

Musiqqa madaniyatlararo kommunikatsiyada san'at turi sifatida uchta fundamental funksiyani bajaradi: 1) estetik zavq bag'ishlash; 2) intellektual-falsafiy o'yin va; 3) fon - davolovchi funksiyasi. O'quvchilarning musiqiy-tinglovchilik madaniyati shakllanishi musiqqa mazmunini egallash jarayonining mohiyati va o'smirlarni o'qitishning mazmunini takomillashtirish bilan bog'liq.

Ushbu jarayon ijodiy xarakter kasb etadi va quyidagi bandlardan iborat bo'ladi: bevosita emotsional-assotsiativ xayrixohlik – "so'zlovchi" tovush jamlanmalari / intonatsiyalarning semantik talqini - musiqqa janrining (uslub, yo'nalish) differentsiatsiyasi – musiqiy harakatning mantig'ini kuzatish – musiqada ifodalangan olamni anglash/olamga munosabat borasida xulosa /taassurotlardir. O'quvchi (talaba)larning musiqiy faoliyatida emotsionallikning namoyon etilishi ko'pincha vaziyat bilan bog'liq bo'ladi, emotsional-estetik kechinmalarni namoyon etish qobiliyati esa past darajadadir.

Sh.Z.Taylanova badiiy qadriyatlarni san'at durdonalari sifatida insonda

estetik hissiyot uygʻotadi, uni estetik jihatdan tarbiyalaydi, deb taʼkidlaydi [112; 19-b.]. Ayniqsa, musiqaning subʼyektiv taʼsir xususiyatlari individual emotsional taʼsirlanishda namoyon boʻladi. Tinglash faoliyati jarayonida dastlab – ifodalilik (asar kayfiyati), soʻngra tasviriylik – musiqaning tasviriy imkoniyatlari (tabiat manzaralari, harakat) elementlari anglanadi.

Musiqani idrok etish – qiziqish, ehtiyoj, motiv va ustanovkaga bogʻliq boʻlib, yosh davrlari kontekstida sifat jihatidan oʻzgarib boradi, yaʼni, dastlabki kuzatishdan - oʻsa borgan sayin fikrlashga tomon takomillashib boradi. Tinglangan asarlar haqida intellektual, emotsional va assotsiativ bilim, tasavvurlarning hosil boʻlishi musiqa asari shakli va tuzilishiga (dasturli, dastursiz) bogʻliq. Musiqiy mashgʻulotlar faqatgina taʼlimni emas, balki ijtimoiy-maʼnaviy jihatdan tarbiyaviy vazifalarni ham bajarishga qaratilgan. Musiqani estetik idrok qilish boʻyicha koʻpgina ishlar qilinganiga qaramay, shaxsga sanʼatning axloqiy-estetik va gʻoyaviy taʼsirining pedagogik mexanizmlari tabiati yetarlicha ochilmagan.

Musiqiy tafakkur tuzilmasi ijtimoiy sharoitlarda, insonlarning bir-biri bilan musiqiy muloqoti va individual amaliy musiqiy faoliyati jarayonida toʻplanadi. Shuning uchun har bir oʻziga xos milliy musiqiy madaniyat – oʻzining milliy musiqiy tafakkur usullari bilan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. F.Gegel fikriga koʻra, “Musika - oʻzicha yangrovchi, bevosita mavjud qalbdir”. A.Shopengauer esa musiqani tovushlar falsafasi deb taʼrifladi. Musika - bu “dunyo irodasi”ning bevosita obʼyektivlashishi, uning izidir. Musika haqidagi “afsonaviy iroda” gʻoyasini koʻplab mutafakkir va bastakorlar tanladilar va rivojlantirdilar [68; 19-b.].

Turli talqinlarga qaramasdan, barcha holatlarda musiqaning individual taʼsir va individual mazmun kasb etishi xususiyatlari namoyon boʻlib turadi. L.Vigotskiy musiqa asari chaqiradigan hissiyotlarni – alohida, “aqlli hissiyotlar” deb atagan [88; 14-b.]. Oʻquvchi (talaba)larda maʼnaviy-axloqiy intilishlarni barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida, yaxlit tarzda singdirib borish maqsadga muvofiq.

“Maʼlum boʻlishicha, musiqani idrok etishda barcha psixik jarayonlar,

jumladan, oddiy sezgilardan boshlab oliy darajadagi musiqiy intellektgacha, ya'ni, emotsional kechinmalar, appersepsiya, sinesteziya mexanizmlari ishtirok etadi (G.M.Sipin). Idrok jarayoni ishtirokchilari – sub'ekt (tinglovchi), ob'yekt (musiqa materiali) va idrok vaziyati bo'lib, ularning o'zaro aloqadorligi vositasi - hissiy obraz shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi (V.A.Barabanshikov) [21; 10-b.]. Qolaversa, musiqiy tinglovchilik madaniyati shakllanishi orqali - “Yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o'rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo'llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish” – uchun ham ma'lum darajada shart-sharoit yaratiladi [97; 48-b.].

Musiqiy eshitishning asosiy komponentlaridan biri musiqa materialini eshitib tasavvur qilish qobiliyatidir. Bu qobiliyat kuyni ovoz orqali qayta kuylash yoki uni eshitish orqali yoki cholg'u asbobida ijro etishga asoslanadi, u ko'p ovozli musiqani garmonik idrok etishning zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Musiqiy – pedagogik adabiyotlarda bu qobiliyat odatda ichki eshitish tushunchasi bilan bog'lanadi.

O'quvchi (talaba)larning musiqiy rivojlanishini ularda ijodiy tasavvurni yuksaltirmasdan amalga oshirish mushkul. Zero, bu ta'lim oluvchilarga kompozitorning estetik olamini, uning his-tuyg'ularini, fikrlarini kashf etishga yordam beradi. Ijod jarayonida yangi asar yaratiladi, o'quvchilar mazkur musiqiy obrazlarni tushunish, hissiy idrok etish, ijodiy tasavvur qilish natijasida ma'naviy yuksalish sari qadam tashlashadi.

Musiqa ta'limi amaliyotida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning turli usullari: ijro repertuari tuzish; asardagi ritmik jo'rlik kompozitsiyasi yo'nalishini aniqlash; vokal va cholg'u improvizatsiyalar mazmunini anglash, asarlarni qiyoslash, yonma-yon joylashtirish kabilar qo'llaniladi. Biroq, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini ma'lum qolipga solib bo'lmaydi, chunki, har bir alohida holatda natija o'quvchi (talaba)larning individual xususiyatlari va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, musiqa darsining o‘ziga xosligi o‘qituvchini nafaqat musiqiy faoliyat natijalarida, masalan, asarlarni ijro etishda yoki o‘quvchilar tomonidan tinglab idrok etilgan musiqa haqidagi tasavvurlarida ifodalanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni hisobga olish, balki, darsda ishtiyoqi, musiqaga qiziqishi, hissiy sezuvchanligi, tasavvuri alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilar faoliyatining barcha bosqichlarida musiqaning o‘quvchi (talaba) ichki dunyosiga emotsional pozitiv ta’siri natijalaridan dalolat beradi.

Darsdagi musiqiy faoliyatlar individual yoki jamoaviy tarzda amalga oshirilganligi sababli ansambl, ko‘p ovozli ijro, ya’ni, orkestr yoki xor ijrochiligi mahoratini shakllantirishda alohida talablar yuzaga chiqadi. V.G.Sokolov fikricha, “Xor ijrochiligi elementlari xor jamoasini tashkil qilish bilan ta’minlanib qolmaydi, ular uzoq va muntazam o‘quv-ijrochilik faoliyati va ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi” [108; 39-b.]. Xorda kuylash malakalarining yuqori darajasi o‘quvchi (talaba)larda tinglash faoliyatining sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

N.X.Vohidova bu borada fikr bildirib, “Xalq og‘zaki ijodining qo‘shiq janri tugal fikr badiiy ifodalangan, el orasida keng tarqalgan va barcha kishilar tomonidan kuylanishi mumkin bo‘lgan mustaqil to‘rtlikdir. Qo‘shiqlar faqat to‘yda va bayram tantanalarida emas, balki insonning hayot yo‘lida suyanchig‘i va doimiy hamrohidir”, deb ta’kidlaydi [24; 33-b.]. S.S.Saytbekova esa, epik asarlarimizdan dostonlarning asosiy leytmotivi tinglovchilar qalbida munosib o‘rin egallashini, bunda saxiy tabiat manzaralari, ajoyib hayvonot va o‘simliklar olami, inson va tabiatning uyg‘unligi ularga nisbatan bolalarda fidokorlik hissini uyg‘otishini ta’kidlagan [99; 17-b.].

Estetik turkum fanlarini, jumladan, musiqa fanlarini o‘qitishda asosiy urg‘u o‘rganilgan asarlarning mualliflari, nomlari, ro‘yxati, atamalar, tushunchalar, kuylash va chalish ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, shuningdek, o‘quvchi (talaba)ning o‘zlashtirilgan musiqa asaridagi ichki badiiy mazmuni, ma’naviy mohiyat, uning mualliflarida kashf etadigan hayot va san’atga nisbatan mavjud munosabati kabilarga qaratilishi zarur. Mazkur jarayonda darsning adabiy-musiqiy

kompozitsiyasini anglashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat badiiy-estetik muhitda, obrazli kayfiyat yaratgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Sh.N.Taylaqova ma'lumotlariga ko'ra, "Bugungi kunda mediamakonda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining yuzdan ortiq veb-saytlari faoliyat ko'rsatmoqda" [111; 22-b.]. Mazkur veb-saytlarda musiqa kontentlari ham mavjud bo'lib, turli janr, shakl va mazmundagi musiqa tinglovchilarga havola etiladi. Mazkur mediamakondan tanlab tinglash didini shakllantirish nihoyatda muhim sanaladi. R.B.Yarmatov o'z tadqiqotida, "O'qituvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda ularda mavjud bo'lgan yuqori darajadagi qiziqishlarni ilg'ay olishi kerak"ligini ta'kidlaydi [140; 25-b.].

Ma'lum bo'lishicha, o'quvchi (talaba)larning musiqiy tinglovchilik madaniyati shakllanishiga muntazam ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavjud, rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda ushbu omillar va ularning psixologik ta'sir ko'lami, tinglashdagi sub'yektivlik xususiyatlarini nazarda tutgan holda individuallashtirilgan ta'lim, differensiallashgan yondashuv asosida pedagogik faoliyat tashkil etilishi lozim.

Shu orqali o'quvchi (talaba)lardagi qiziqishlarni korreksiyalash, ularni ijobiy yo'naltirish vaziyati yaratilishiga erishilishi mumkin. Musiqa tinglash faoliyati hatto jamoaviy tarzda amalga oshirilganda ham, unda sub'yektivlik ustuvor ahamiyat kasb etadi, shunga binoan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish o'quvchi (talaba)larning musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishi dinamikasi ma'lum darajada yuksalishiga olib keladi.

2.2-§ Musiqiy ehtiyojlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Turli yosh guruhlarida musiqaga nisbatan ehtiyojlar doirasi kengayish va o'zgarishga moyil bo'lib, inson rivojlanishiga mos ravishda, yosh xususiyatlariga ko'ra boshqa darajaga o'tadi, hayot va shaxsiy rivojlanishning ma'lum sohasi sifatida insonning ma'naviy shakllanishiga hissa qo'shadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ehtiyoj tushunchasiga shunday tavsif berilgan: “Ehtiyoj – (arabcha – muhtojlik, zaruriyat, talab, hojat); biror narsaga bo‘lgan talab, hojat, zarurat, zaruriyat, muhtojlik” [144]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilishicha - “Ehtiyojlar - organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan narsalarga talab, muhtojlik”dir [120].

Ehtiyoj - bu shaxsning (ijtimoiy guruhning, jamiyatning) biror narsaga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lib, ularsiz ehtiyoj sub’ekti normal faoliyat ko‘rsata olmaydi va rivojlana olmaydi, o‘z tabiatiga ko‘ra ehtiyoj ob’yektiydir. Inson o‘ziga nima kerakligini anglamasligi mumkin, ammo bundan ehtiyoj yo‘qolib qolmaydi. Xususiyatiga ko‘ra - fiziologik, intellektual-emotsional va ijtimoiy ehtiyojlar ajratib ko‘rsatiladi. Ehtiyojlarni amaliy (hayotni saqlash va davom ettirish uchun bevosita zarur va foydali bo‘lgan narsalarda) va ma’naviy (inson va jamiyatning umumiy ma’naviy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan narsalarga) ajratish mumkin. Musiqa tinglashga bo‘lgan ehtiyoj ma’naviy-estetik ehtiyoj bo‘lib, o‘smir o‘quvchilarda ushbu ehtiyojni yuqori sifatli asarlar bilan qondirish muhimdir.

A.Maslou ishlab chiqqan ehtiyojlar nazariyasiga ko‘ra, estetik ehtiyojlar ehtiyojlar ierarxiyasida yuqori darajalardan birida turadi. Bu ehtiyojlar musiqiy ehtiyojlar singari o‘z tarkibiga ko‘ra bir xil emas. Har qanday sub’ekt (yakka shaxs yoki jamoa)ning musiqiy ehtiyojlari hamisha turlicha namoyon etiladi. Shaxslarning (jamoaning) musiqiy ehtiyojlari xilma-xildir. Jamiyatda xilma-xillik mavjud ekan, tushunarlilik darajasi bilan ajralib turadigan: rivojlangan tinglovchilar uchun mo‘ljallangan - murakkabroq, qiziqishi past tinglovchilar uchun nisbatan sodda va ommabop musiqa hamisha iste’molda bo‘ladi.

Sub’ekt musiqiy ehtiyojlarining xilma-xilligi musiqa bajaradigan vazifalarning xilma-xilligi orqali yaqqol namoyon etiladi. Ehtiyojlar va funksiyalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiqlik mavjud, chunki har qanday ob’jektning vazifasi qaysidir ehtiyojni qondirishdir. Har bir musiqa asari (va har bir ijro) bir vaqtning o‘zida jamiyatdagi bir nechta ehtiyojlarni qondiradi (ko‘p funkcionallik).

Musiqa funksiyalarini aniqlashda bir necha yondashuvlar mavjud. Musiqa madaniyatining rang-barangligi orqali uning funksional xususiyatlari namoyon bo‘ladi, ulardan biri Teodor Adorno tomonidan ilgari surilgan yondashuvdir. Unga ko‘ra musiqa san‘at turi sifatida uchta asosiy vazifani bajaradi:

- amaliy maqsadi mavhum estetik zavqlanish funksiyasi;
- intellektual-falsafiy o‘yin funksiyasi va;
- fon-davolovchi funksiyasi [145].

Bulardan tashqari musiqaning g‘oyaviylik, kompensatorlik (to‘ldiruvchi), kommunikativ, tarbiyaviylik, estetik, borliqni badiiy aks ettirish, ma‘rifiy, suggestiv (ishontirish), etika (axloq), gedonistik (rohatlanish, zavqlanish) funksiyalari mavjud. Vazifalari esa qadriyatli, axloqiy va ma‘naviy jihatdan namoyon etiladi.

Finlyandiyalik olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, musiqa tinglash ehtiyoji biologik xususiyat bo‘lib, ijtimoiy kommunikatsiyaning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi neyrobiologik jarayonlar bilan bog‘liq [146]. Musiqa janrlari va uslublarini tanlash imkoniyati yuqori darajada ijtimoiy omillar va musiqaning ijtimoiy funksiyasi bilan bog‘liqdir.

Musiqani idrok etishning ko‘p bosqichli, dinamik jarayoni asarni tinglashga ehtiyoj, qiziqishning paydo bo‘lishi, musiqani idrok etish, tushunish va musiqiy tajribaga bo‘lgan munosabat, asarni dastlabki tushunish, qayta ko‘rib chiqish, baholash, chuqur idrok etish, "katarsis" ("yuksalish, tozarish") kabi bosqichlarni shartli ravishda ajratishda namoyon bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, musiqiy idrokni keltirib chiqaradigan ehtiyoj va motivlarning eng adekvat tahlili M.S.Kaganning badiiy faoliyat konsepsiyasida ifodalangan. U badiiy faoliyat kognitiv, kommunikativ, qiymatga yo‘naltirilgan, o‘zgartiruvchi faoliyatni o‘z ichiga oladi, degan xulosaga kelgan [147].

Musiqa asarlarini idrok etish jarayonida mutlaqo yangi ehtiyojlar, motivlarni uyg‘otish, aktuallashtirish, empatiya, hamdardlik orqali san‘at ta‘sirining asosiy "mexanizmi" sifatida "ob‘yektivlashtirish", shu orqali sub‘ektni yangi holat va

jarayonlarga jalb qilish mumkin. Motivatsiyaning asosiy omili sifatida musiqa tinglash ehtiyoji adabiyotda turlicha ta'riflangan.

Musiqiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojni shaxsning yo'nalganligi nuqtai nazaridan ko'rilsa, buni musiqa sohasidagi shaxsning asarni idrok etish uchun zarur shart-sharoit yaratadigan ruhiy holati sifatida belgilash mumkin. Musiqiy ehtiyoj hamda motivlar umumiy-xususiy yoki mavhum-konkret shaklda namoyon etiladi va o'zaro bog'liqdir. Musiqiy hodisalarni idrok etish zarurati bilan bog'liq badiiy motivlar shunchaki motivlar yig'indisi emas, balki har bir motivning o'ziga xos "motivatsion salmog'ini"ni ifodalovchi ierarxik tizimdir.

1. G.M.Taniyeva insonning musiqiy afzal ko'rishlarini undagi umumiy madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi [113; 77-b.]. Musiqiy faoliyat ehtiyojlari darajasi turli usullar orqali aniqlanadi. L.N.Kogan fikricha, "Musiqa - san'at qadriyatlarini idrok etishga undaydigan holat"dir, Z.P.Morozovaga ko'ra, "Musiqiy ehtiyoj - musiqiy faoliyatning turli ko'rinishlariga murojaat qilish zaruriyatini keltirib chiqaradigan va emotsionallikka asoslangan ehtiyoj" sifatida, G.S.Tarasov fikricha, "Musiqiy ehtiyoj musiqaning sifati, his-tuyg'ularning hajmi va kuchi, hayotiy qadriyatlari bilan belgilanadigan, musiqa yordamida ob'yektivlashtirilgan shaxsning munosabati sifatida namoyon bo'ladi" [77; 7-b.].

Musiqada san'at tili sifatida, ijodiyotning yangi turlari uzviy uyg'unlashadi hamda inson hayotida faol estetik va badiiy muloqot manbaiga aylanadi. Bu mexanizm shaxsning musiqiy qobiliyatlariga singdirilgan bo'lib, ular bevosita shaxsda musiqiy-eshitish tasavvurlarini, lad va musiqiy-ritmik eshitish hissini shakllantirish jarayonida namoyon bo'ladi. Musiqiy eshitish orqali ifodalanadigan va intonatsiyani oldindan tasavvur qilish, ijroning oldindan shakllantirilgan etalonlari asosida faoliyat yuritish, har bir ohangni va har bir ritmik aylanmani qalbdan his qilish musiqiy ehtiyojlar namoyon etilishi darajasiga bevosita bog'liqdir.

Badiiy-estetik ehtiyojlar maxsus yo'naltirilgan tarbiya jarayonida shakllantiriladi. O'smirlik yoshi bola shaxsining keyingi rivojlanishi uchun keng

imkoniyatlarni namoyon etadi, demak musiqiy ehtiyojlar imkoniyatlari vositasida ularni badiiy-estetik yoʻnalishda ruhlantirish va shu orqali musiqiy tinglovchilik madaniyatini qaror toptirish mumkin.

Bola beshikda onasining allasini eshitganda musiqa bilan dastlabki faol aloqadorlikni his etadi. Onalar ovoz ohangini koʻtarish yoki pasaytirish orqali chaqaloqlari bilan emotsional darajada muloqotni amalga oshiradilar, beshikdagi allaning maqsadi chaqaloqni tinchlantirish va uxlatishdir. Alla qoʻshigʻida oddiy va takrorlanuvchi ohanglar asosida muntazam emotsional aloqa muhiti yaratiladi. Bunda musiqa ona va bola oʻrtasidagi izchil munosabatlarni mustahkamlaydi, bolani xotirjamlikka undaydi. Bu yerda ohang inson tajribasining eng nozik sohalaridan biri sifatida endigina dunyoga kelgan bolaga nisbatan kuchli emotsional pozitiv taʼsir vositasiga aylanadi.

M.V.Okolot maʼnaviy-axloqiy emotsiyalar borasida fikr bildirib, bolalar atrofidagi kishilar tomonidan yuklangan maʼnaviy-axloqiy vazifalarni bajarish jarayonida rivojlanishini taʼkidlaydi [77; 9-b.]. R.N.Shafeyev musiqa madaniyati borasida fikr bildirib, uning “Koʻp funksiyali hodisa sifatida aksiologik, gedonistik, bilish, taʼlimiy, tarbiyaviy, qayta yaratuvchilik, kommunikativ, semiotik va relaksatsion funksiyalari mavjud”ligini taʼkidlaydi [130; 7-b.]. Bularning barchasi negizida musiqiy ehtiyojlar turadi va ular shaxsning musiqiy faoliyatlarga daxldorligi darajasini belgilaydi. Mazkur jarayoniy ierarxiya toʻgʻridan-toʻgʻri musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Oʻquvchi (talaba)larga akademik va xalq musiqasining badiiy qiymati hamda ijtimoiy ahamiyatini ochishga koʻmaklashish muhimdir. Tinglovchilik madaniyatini shakllantirishda xalq, mumtoz, zamonaviy musiqa namunalari oʻz janr va uslub xilma-xilligida oʻquvchilarning intonatsion-eshitish tajribasi negizida taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Bu: intonatsiya-eshitish tajribasini toʻplash; asardagi intonatsiya-eshitish komplekslarini aniqlash va musiqiy obrazni idrok

etish orqali musiqa asari badiiy mazmunini tushunish kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Musiqani tinglagandan so‘ng, bolalar shunchaki sukut saqlamaydilar, balki ular ma‘lum muddat yangragan musiqa ta‘sirida qolishadi. Sinfdagi sukunat idrokdagi tanaffus emas, balki, bolalarning his-tuyg‘ulari va fikrlari davomidir. Musiqani motivlashtirilgan holda tinglashda o‘quvchilar passiv tinglashmaydi, balki, tinglash jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan ma‘lum vazifalarni yechishga harakat qilishadi. Musiqiy faoliyat jarayonida o‘quvchining shaxsiy pozitsiyasini ta‘minlash musiqa asarlaridagi badiiy mazmunni anglashga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda katta miqdordagi yengil ko‘ngilochar musiqa ommaviy axborot vositalari va musiqiy mahsulotlarni tarqatishning sanoat-tijorat tizimi orqali o‘quvchi-yoshlar ehtiyojlariga ta‘sir ko‘rsatmoqda. I.M.Krasilnikov tadqiqotiga ko‘ra, “Zamonaviy musiqa ta‘limida kompyuter texnikasiga qiziqish ortib borayotganligini ko‘rish mumkin. G‘arb mamlakatlari musiqa ta‘limida kompyuter vositalari orqali zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda foydalaniladigan musiqa informatikasi keng qo‘llanilmoqda” [51; 4-b.]. Mamlakatimizda ham umumiy va maxsus musiqa ta‘limida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi dolzarb sanaladi va bu borada ma‘lum ijobiy natijalarga erishilgan.

O‘quvchi (talaba) tinglash ehtiyojining muhim tarkibiy qismi musiqa asari bilan muloqotdan iborat, unda quyidagilar namoyon etiladi:

- milliy qadriyatlar vositasida o‘z “Men”ini qondirish;
- tinglashning ichki jihatini anglashga intilish;
- o‘z “Men”ini olam qadriyatlariga omixta qilishdir.

Albatta, badiiy shaklda aks ettiriladigan hayotiy makondagi pedagogik, psixologik, mental, ma‘naviy va boshqa jihatlarning faoliyat sub‘ekti - o‘smir tomonidan hissiy-amaliy qamrab olinishi vazifasi dolzarb ahamiyatga ega. Tinglovchi pozitsiyasi - bu reproduktiv faoliyatdir. Tinglovchi asarni tinglab uni

ongida qaytadan yaratadi, kechinmalar tarzida unga munosabat bildiradi. Shu nuqtai nazardan o'quvchi (talaba) shaxsining badiiy harakat pozitsiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin: musiqiy tinglovchilik madaniyati muntazam rivojlanib boruvchi tuzilma bo'lib, uning bosqichma-bosqich rivojlanishida avvalo musiqa madaniyatini tasarruf etuvchi, ya'ni, faol shaxs hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tinglovchilik madaniyatida musiqaning funksiyalarini ham nazarda tutish lozim, uning asosiy funksiyasi - ijtimoiy yo'naltiruvchi faoliyatdir. Bu funksiya musiqaning jamiyat yoki alohida olingan shaxs hayotiga keng madaniy ta'siri bilan bog'liq. Keyingi funksiyalari: inson badiiy faoliyatining emotsional jihatini va uning mazmunini anglash; "his etish tajribasi" shakllanishi, ya'ni, amaliyot orqali yorqin kechinmalarni aks ettirishni shakllantirish, musiqani emotsional munosabat ob'yekti shaklida idrok etish; kompensatorlik funksiyasi - asarlarni shaxsiy hayotning ma'lum vaziyatlari kontekstidan idrok etish; gnoseologik jihatdan idrok etish funksiyalari hisoblanadi. Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish jarayonida yuqorida keltirilgan funksiyalarning barchasi nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

N.V.Sedashova "Musiqiy ehtiyojlar – musiqa nisbatan barqaror-tipik munosabat shakli bo'lib, musiqiy faoliyatni qo'llovchi va shaxsiy darajada namoyon etiluvchi umumlashtirilgan musiqiy intilishlar tuzilmasidir", deb ta'rif beradi [105; 191-196-b.]. Bunda albatta umumiy musiqa ta'limida musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish borasidagi ishlar ko'lami hamda musiqa targ'iboti bilan bog'liq faoliyat ko'z oldimizga keladi.

O'quvchi (talaba)lar bilan tanlangan musiqa borasida suhbat uyushtirish ularning qiziqishlari doirasidan chiqib, musiqiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilishi lozim, bu o'qituvchining pedagogik mahorati va pedagogik texnologiyalarni qay darajada qo'llay olishi imkoniyatlariga bog'liq. Musiqiy ehtiyojlar va musiqiy targ'ibot ob'yekti bir-biriga bog'liq ijtimoiy hodisalar sanaladi va ehtiyojning

shakllanishiga u (shaxs) ko‘p marta tinglagan musiqa namunasi sabab bo‘lishi ehtimoli yuqoridir.

O‘smirlarda anglanmagan ehtiyojlar mavhum qiziqishdan - aniq anglangan qiziqish, hatto talabgacha namoyon bo‘lishi mumkin va ularda musiqiy ehtiyojlar shakllanishida qobiliyatlar muhim o‘rin tutadi. Qobiliyatlar tinglovchilik ehtiyojlari shakllanishining ichki yo‘naltiruvchisidir. O‘spirinlar pda esa hayotiy tajriba, egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar musiqiy tinglovchilik madaniyati shakllanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Agar o‘quvchi (talaba) musiqiy eshitish jarayonida boshqa shaxslar qadriyatlarini o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lmasa, bu holda qadriyatlarga qiziqish beqaror va tinglovchi uchun ahamiyatsiz bo‘ladi. Shu uchun ham rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarda jamoaviy kuylash, tinglash va tahliliy interaktiv bahs-munozara muhiti yaratilishi, resipientlarning o‘zi uchun qulay sharoitda ijodiy fikrlashi, fikrlarini erkin tarzda bayon etishi yanada qulaylashadi.

Musiqa asarining mavjudlik bosqichlariga nazar tashlaganda, asar dastlab ijodkor tomonidan yaratilish jarayonida ko‘pgina variantlar shaklida paydo bo‘ladi, cholg‘uchilar tomonidan ijro etilib, takomillashtiriladi, asarning keyingi mavjudlik davri – bu nota shaklidagi ko‘rinishidir, keyin ijrochi tomonidan yod olingan, uning xotirasida muhrlangan shakli, markaziysi, uning ma’lum cholg‘u sozida, ma’lum sharoitda, tinglovchilar uchun ijro etilishidir, oxirgi bosqichda, tinglangan asar tinglovchi ongiga, xotirasiga o‘tadi. Tinglovchi uni o‘zi bilan qalbida olib ketadi va yana vaqti-vaqti bilan unga qaytib turadi.

Qaysi badiiy darajadagi musiqani bolalar tinglashmoqda, degan savol qo‘yganimizda, albatta, bir yo‘nalishdagi javobni olish mushkul va bunda fikrlar plyuralizmi yaqqol namoyon bo‘ladi. A.V.Yuryeva o‘z tadqiqotida teatr va boshqa tomosha san’atlari bugun yangi reallik davrida faoliyat ko‘rsatayotganligi, bozor ekspansiyasi tinglovchilarning nafaqat didi va estetik ehtiyojlariga, balki, qadriyatlar transformatsiyasiga, ijtimoiy ongda ularning ierarxiyasi almashishiga olib kelganligini ta’kidlaydi [137; 3-b.].

N.D. Mostiskaya esa zalda konsert tomosha qilish borasida to‘xtalib, “Konsert zaliga tashrif buyurgan tinglovchilarda bayram kayfiyati namoyon bo‘ladi. Bu o‘ziga xos emotsional tarzda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy shart-sharoit bo‘lib, musiqa asarlarini samarali tinglashda muhim o‘rin tutadi”, deb ta’kidlaydi [69; 74-b.]. Bugun teatr, konsert, umuman tomosha san’ati rivojlantirishga muhtoj sohalar sifatida namoyon bo‘lmoqda va bular tasarrufi borasidagi ilmiy fikrlar rang-barangdir.

Yuqori sifatli repertuar asosida ushbu maqsadlarga erishish mumkin, aks holda, musiqa ijobiy ta’sir manbai sifatidagi o‘z missiyasini bajara olmaydi. Mashg‘ulotlarda o‘quv dasturida tinglash uchun tavsiya etilgan asarlardan tashqari, qo‘shimcha tarzda, o‘qituvchi o‘zining pedagogik tajribasi va o‘quvchilar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli shakl, janr va uslubdagi musiqa asarlaridan tanlashi va o‘quvchilarga taqdim etishi mumkin. Bu ish shakli o‘quvchilarda tinglash imkoniyatlari doirasini kengaytirib, musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishida muhim omil bo‘ladi.

Musiqaning asosiy funksiyasi ong osti darajasida, amaliy maqsadi esa ko‘rinmaydigan estetik zavqlanish sifatida namoyon bo‘ladi. Keng omma uchun ikki xil baho mavjud, bular: tinglangan musiqa “yoqdi” yoki “yoqmadi”. Shu orqali musiqa uchta vazifani bajaradi: 1) estetik – go‘zallik, garmoniya, muvozanatlilik; 2) gedonistik – quvonch, rohatlanish; 3) etika jihatidan – hamdardlik, katarsis - tozarish (qalb g‘uborlarining arishi)dir.

Ikkinchi vazifasi – ong osti darajasidagi intellektual falsafiy o‘yin. Bunda inson musiqa mazmunini falsafiy konsepsiya orqali anglashga harakat qiladi. Bu faqatgina ma’lumotli tinglovchiga tegishlidir. Bu guruh doirasida musiqa qator xususiy vazifalarni bajaradi: bilish – borliq (g‘oyalar, emotsiyalar, predmetli olam)ni aks ettirish; ma’rifiy – davr hujjati, tarix; kommunikativ – inson muloqoti; kanonik va evristik – uzluksizlik va ochiqlik, an’analar va novatorlik kabilardir.

Musiqa asarining ong osti darajasida namoyon bo‘ladigan uchinchi funksiyasi – fon-davolovchidir. Ushbu ta’sir faqatgina emotsional tinglovchiga tegishli.

Musiqqa asari ushbu pozitsiya orqali fon vazifasida insonning kayfiyati va o'zini his etishiga qarab o'zgarib turadi. Bunda musiqqa shaxsni tinchlantirishi yoki qo'zg'atishi mumkin. T.G.Baranovskaya ushbu guruh doirasida musiqaning qator vazifalarni bajarishini, bular: kompensatorlik – hayotni qiziqarli qilish, go'zallashtirish; pragmatik – amaliy, utilitar natijani ifodalashini aytib o'tgan [13].

Musiqqa ta'limining rivojlanishi bugungi kunda ma'lum bir bosqichga chiqdi, bunda to'plangan tajriba nafaqat mazkur jarayonni tarixiy tushunishni, balki nazariy usullarni tizimlashtirishni, musiqiy-ritmik, dinamik va tembral xususiyatlarni his qilishning samarali mexanizmlarini tanlashni taqozo etmoqda. Bu esa intonatsiyani oldindan bilish, mavjud ijro standartlari tizimi bilan ishlash, musiqiy ohanglardagi har bir uyg'unlik va har bir ritmik burilishni ichki his qilish imkonini beradi. Shu orqali tinglovchilik tajribasi tinglash ehtiyoji, asarlarni tinglash va tahlil qilish asosida shakllantirilishi mumkin.

Musiqiylik - bu musiqiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan psixologik xossa va musiqqa emotsional javob berish markazi bo'lgan intonatsion eshitish bo'lib, u orqali tovush balandligi, registr, temp, tembr, artikulyatsiya kabilar musiqqa san'atini emotsional-mazmunli tarzda shakllantiradi. Musiqiylik borasidagi zamonaviy tasavvurlar - musiqiy qobiliyatlar musiqqa asarini idrok etish va qayta yaratish, anglash va musiqiy obrazni talqin qilish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar ekanligini tushunishga asoslanadi.

Musiqiylikni o'rganish borasidagi tadqiqotlarda ikkita tendensiya: musiqiy qobiliyatlarni hissiy-idrok darajasidan tashqariga "olib chiqish" va musiqiylik tarkibiga kognitiv musiqiy qobiliyatlarni, xususan, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvurni kiritish kuzatiladi. Albatta, musiqiy yaxlitlik va hissiy taassurot o'rtasida idrok etiladigan, idrok etilgan tovush parametrlari va ularning mazmuni o'rtasida tovushga ma'lum ma'no beradigan mexanizm yotadi. Bu psixologik mexanizm – intonatsion eshitishdir.

Agar shaxs garmoniya (uyg'unlik), ritmik-intonatsion xususiyatlar va boshqa musiqqa elementlarini farqlash tajribasiga ega bo'lsagina, musiqiy nutq til sifatida

qabul qilinadi. Biroq, shu bilan birga, nutq kommunikatsiyasida tushunish ob'yekti sifatida so'z, alohida jumla, yoki matn emas, balki "voqelik" oldinga chiqadi.

Tinglovchi ma'lum tajribaga ega ijrochi singari idrok etayotgan asari mazmuniga o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda quvonchini, qayg'usini, tashvishini, umidlarini qo'shadi. Asardagi badiiy voqelik tinglovchining kayfiyati, ushbu damdagi emotsional holati prizmasidan o'tib idrok etiladi. Shunda musiqiy idrok jarayoni ikki shaxs ichki dunyosining; ya'ni, bir tomondan - tinglovchi, ikkinchi tomondan bastakorning badiiy muloqotiga aylanadi. Agar yuksak darajadagi ijroni tinglashga muvaffaq bo'linsa, bu uch yaqin maslakdosh - bastakor, ijrochi va tinglovchining san'at asari borasidagi badiiy-ijodiy muloqotini o'zida aks ettiradi. Rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda musiqa tinglash jarayonida ushbu omillar va xususiyatlarning barchasi mantiqiy tarzda tushuntirib borildi.

Zamonaviy sharoitlarda musiqiy faollikni uchta muhim bosqichga bo'lgan holda tahlil qilish mumkin. Birinchi bosqichda musiqiy ijodiyot ajralib turadi. Muallif tovushlarni garmonik birlashtirgan holda bir-biriga bog'lab, ularni tugallangan musiqa asari shakliga keltirib, vokal va cholg'u ijrochiligi uchun ma'lum tartibga solingan tovushqatorni yaratadi. Musiqiy faollikning ikkinchisi ijrochilik bilan bog'liq. Musiqachi-ijrochilarning ijodiy faolligi, ularning mahorati tayyor asarni talqin qilishni, cholg'u sozini mukammal chalish va o'z vokal ovozi bilan mahorat bilan ishlatishni taqozo etadi. Uchinchi bosqichda musiqa asarini tinglash va o'zlashtirish amalga oshiriladi.

Agar oldingi ikki bosqich kasbiy, professional jihatdan kompozitor va ijrochilarni tayyorlashni nazarda tutsa, uchinchi bosqich, odatda, bolalik yillaridan bevosita hayotiy muhitda yangraydigan musiqada estetik me'yorlarni o'zlashtirish va turli musiqa asarlarini spontan idrok etish orqali amalga oshiriladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, har bir xalq musiqasida faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarni ajratish mumkin. Bu xususiyatlar majmuasi kanon (*yun.* – qoida: polifonik shakl, ma'lum ohangni takrorlash texnikasi) shaklini egallashi mumkin, chunki, u ma'lum musiqa madaniyatining etnoemotsional o'ziga

xosligidan dalolat beruvchi tovushqatorning chuqur tuzilishi va ijrochilik usullarida aks etadi.

Tinglovchining oldingi tajribasi natijasida shakllangan munosabat alohida rol o'ynaydi va ustanovka prognozlash hamda baholash mexanizmlaridan oldin "ishlab ketadi", shuning uchun ko'pincha hatti-harakatlar taktikasini va butun muloqot jarayonini puxta rejalashtirish lozim. Musiqani semantik (so'z mazmuni orqali) idrok etish talaffuzning muhim elementlarini ajratib ko'rsatish orqali boshlanadi. Bu jarayon eshitishning maxsus turi - fonemik eshitishga bog'liq.

Musiqiy obrazlar olami o'z - o'zidan oydin va ravshan bo'lib qolmaydi. Musiqa asarini tushunish, uni to'g'ri idrok etish uchun ijrochi ushbu musiqani yaratgan bastakor yashagan davr, uning hayotga nisbatan qarashlari, insonlarga, tabiatga, san'atga bo'lgan munosabati bilan qiziqishi lozim. Albatta, musiqa yaratish jarayonida kompozitor yoki bastakor o'z davri muammolarini his etishga harakat qiladi, hayratlanadi, tashvishga tushadi va qayg'uradi. Agar inson ushbu kechinmalarning asl sabablarini anglab yetsa, shunda musiqani chuqur his etadi va tushunadi.

Ta'limni insonparvarlashtirish orqali rivojlantiruvchi va muammoli ta'limga o'tish o'smirlar va o'spirinlarning qobiliyatlarini har tomonlama va maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim dasturlarini yaratishga qaratilgan. Bunga gumanitar ta'limning rolini kuchaytirish hamda ijodiy faoliyatga, murakkab muammolarni hal qilishga tayyor bo'lgan xushmuomala, mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlash yordam bermoqda.

Bu holda ta'lim insonga bilimlarni tayyor bermasdan, balki o'quvchini mustaqil ravishda kerakli ma'lumotlarni izlashga, olingan ko'nikmalarni amaliyotda, o'qishda, hayotda va keyingi amaliy faoliyatlarda mustaqil qo'llashga o'rgatishi zarur. Ushbu maqsadga erishishning eng muhim vositalaridan biri san'at va uning barcha shakllaridir.

Zamonaviy ommaviy madaniyat, estrada san'atiga mansub asarlarning barchasini ham yuqori sifatli, deb bo'lmaydi. Ayrim estrada janriga mansub asarlar

insonning his-tuyg'ularini, fikrlarini xira qilib, nafosatni anglashni qiyinlashtirishi mumkin, bu esa haqiqiy madaniy qadriyatlarni boshqalaridan ajratishga imkon bermaydi. Shu bois ham, chinakam yuqori badiiy saviyadagi musiqa o'zining takomillashtiruvchi funksiyasi orqali tabiatni, jamiyatni, madaniyatni, san'atni, musiqani, yaxlit olganda, o'z harakatini go'zallikka yo'naltirib rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqiy va ijodiy faollashtirish maqsadida musiqa tinglash bilan bog'liq holda vokal improvizatsiya keng qo'llanilishi maqsadga muvofiq. O'quvchi (talaba)larning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning ijodiy usullarini qo'llagan holda, auditoriyaning o'ziga xos xususiyatlaridan, musiqa mashg'ulotlarining rang-barangligidan va ijodiy faollikni kuchaytirish zaruriyatidan kelib chiqilishi ma'qul. Faoliyatning bu ko'rinishi badiiy-amaliy va kognitiv-izlanish faoliyati sifatida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

“O'quvchilarning ta'limi va tarbiyasida san'atning, shu jumladan musiqaning ulkan imkoniyatlari mavjudligi ma'lum. N.S.Lomakina musiqiy ta'sir vositalarining texnik rivojlanishi, musiqa amaliyotining o'zgaruvchan sharoitlari, zamonaviy tinglovchilar ongida kuzatilayotgan o'zgarishlar musiqa san'atining tarbiyaviy va shakllantiruvchi jihatlarini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etayotganligiga o'z diqqatini qaratgan [62; 3-b.]. Qator tadqiqotlarda zamonaviy tinglovchiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar xususiyatlari o'rganilgan va bularning barchasi axborot asri sifatida namoyon etilayotgan hozirgi davr xususiyatlari bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, musiqaning ifodaviy imkoniyatlarini yorqin namoyon etish undagi janr xususiyatlarida ham ifodalanadi. Ye.S.Borisova talqiniga ko'ra, “Turli ijtimoiy guruhlarga mansub yoshlarning musiqiy ehtiyojlari, qiziqishlari rivojlanishida musiqiy ta'limning roli muhim”dir [21; 13-b.]. Madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan qator me'yoriy hujjatlarda ham ushbu masalalar alohida ta'kidlangan.

Ortega Gasset tomonidan e'tirof etilishicha, “Zamonaviy sivilizatsiya

tendensiyalari - globalashuv, urbanizatsiya va axborot-texnologik inqilob ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishiga hissa qo'shdi, keng ommani madaniyat va san'at bilan tanishtirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochdi, san'atni kundalik hayotning elementiga aylantirdi" [84; 3-b.]. Biroq, "XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi musiqa industriyasining rivojlanishi, texnologik o'zgarishlar sohadagi muammolarni yanada o'tkirlashtirdi, bularni 4 kategoriyaga bo'lish mumkin: 1) texnik muammolar (musiqa mahsulotlarini saqlash uskunalarining o'zgarishi, gramplastinkalardan CD va boshqa raqamli saqlash moslamalariga va striming servislariga o'tish); 2) musiqiy yozuvlarning qadrsizlanishi; 3) daromadlarning kamayishi; 4) plagiat muammolari" [107; 3-b.].

Bularning barchasi nafaqat musiqa iste'molida, balki, musiqa ta'limi rivojlanishi bilan bog'liq ayrim muammolarga sabab bo'ldi. Ye.S.Loseva-Demidovaga ko'ra, dam olish sohasi postindustrial jamiyatning muhim ijtimoiy quyi tizimiga aylanmoqda, uning doirasida madaniyat sohasidagi tovar va xizmatlar o'zini ta'kidlash, ijtimoiy mansublik orqali "yuqori daraja"dagi ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangandir. Boshqa tomondan, bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining ma'naviy hayotga kirib kelishi tomoshabin (tinglovchi)ning ijtimoiy-madaniy roli zaiflashishiga olib keldi [63; 13-b.].

A.A.Ushkarev esa ilmiy tadqiqotlar san'at tashkilotlarining o'z auditoriyasi haqidagi tushunchalari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganligi borasida yozgan [123; 4-b.]. Musiqa ta'limida sinfdan tashqari ishlar tarkibida o'quvchilarning konsert tashkilotlariga tashrifini tashkil etish orqali chinakam yuqori badiiy saviyadagi musiqa asarlaridan bahramand etish va shu orqali ularda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishni jadallashtirish mumkin.

O.Ye.Shilovaga ko'ra, qiziqtirish muhim motivlashtiruvchi funksiyaga ega bo'lib, "Haqiqiy musiqa, taniqli ustozlarning asari tinglovchini ta'sirlanishga o'rgatadi, asta-sekin uning ichki dunyosini shakllantiradi, uni tinglash va tushunishga undaydi" [131; 7-b.]. Musiqa mashg'ulotlarida repertuar asarlar sifatiga urg'u bergan holda amaliy ijro va tinglash faoliyatini tashkil etish kutilgan

pedagogik natijalarga olib kelishi mumkin. Musiqa ta'limi jarayonida ma'naviy va axloqiy qadriyatlar shakllanishi musiqa tabiatida mavjud bo'lgan milliy asoslarga tayanishi maqsadga muvofiq. Shundagina chinakam milliy musiqa tinglovchi ongi va qalbiga pozitiv psixologik ta'sir ko'rsatib, musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

O.N.Malinovskayaga ko'ra, intonatsiya va musiqiy shakl musiqiy fikr, musiqa asarining ob'yektiv voqelik sifatida mavjud bo'lishini oldindan belgilab beradi. Mantiqan qurilgan musiqiy tuzilma ma'lum ma'noga, ifodalilikka ega bo'lib, tinglovchiga ma'naviy va intellektual ta'sir ko'rsatadi [73; 14-b.]. Musiqa asarining talqini, ya'ni, intonatsiyasi tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatish mezoniga aylanadi. Ushbu jarayonda individual idrok, tinglangan asar borasida individual musiqiy tafakkurni amalga oshirish sifati musiqiy tinglovchilik madaniyati ko'lami va me'yorini belgilaydi. T.I.Kuzub fikricha, "Intonatsiya - matn ichidagi va matnlar orasidagi mazmun beruvchi birlik, musiqiy tafakkurning asosidir" [53; 5-b.].

N.D.Martinenko badiiy shaklda ifodalangan fikrlar kuchli ta'sir imkoniyatlariga ega bo'lishini va boshqa san'at turlari namunalaridan ko'ra ongda tez o'zlashtirilishini uqtiradi. Bunda badiiy ifodaning ramziy vositalari, ya'ni, san'at ko'rinishlari badiiy obraz adabiyot, arxitektura, musiqa, kinematografda yorqin aks ettiriladi [64; 8-b.]. Tinglash uchun tavsiya etilgan musiqa materialini illyustrativ, ya'ni, audio yoki video materiallar shaklida taqdim etish tinglash samaradorligini oshiradi, ehtiyoj va qiziqishlar hajmini kengaytiradi.

I.N.Miloradova tadqiqotida ma'lum bo'lishicha, "O'quvchilarning musiqaga nisbatan munosabatlari, dunyoqarashlari shakllanishiga oilaning katta ta'siri bor, buni respondentlarning 62% tasdiqlagan" [67; 16-b.]. Umuman, yoshlarning musiqiy qiziqishlarini plyuralistik deb hisoblash mumkin, bu esa musiqa madaniyatining yo'nalish va uslublarini rivojlantirishni shartlaydi. K.I.Tverezovskiy musiqiy qiziqishlar borasidagi tadqiqotida, "Musiqa ishtiyoq, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida uzoq vaqtdan beri yoshlar submadaniyatining

ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Barcha yoshdagi o‘smirlarning 80% dan ortig‘i bir yoki bir nechta musiqiy jihatdan sevimli insonlarga ega ekanligini ta’kidlagan” [115; 3-b.].

Yu.A.Kremlyov tomonidan ilgari surilgan musiqiy tinglovchilik idroki tipologiyasi formal va mazmunli idrok jihatidan farqlanadi. Bir paytning o‘zida musiqiy idrokning u yoki bu tipi tinglovchilarning assotsiativ tafakkur qobiliyati bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi [106]. Misol tariqasida, simfonik konsert tinglovchilarini tasniflashda nafaqat eshitish, balki, vizual idrokni ham o‘rganish talab etiladi.

B.F.Smirnov tinglovchilarning 7 ta tipini ajratib ko‘rsatadi, bular: “antimusiqiy inson” (T.Adorno terminologiyasi); “past madaniyatli diletant”; “madaniyatli diletant” (A.Soxor terminologiyasi); “yaxshi tinglovchi” (T.Adorno terminologiyasi); “bilag‘on tinglovchi” (V.Furtvengler terminologiyasi); “ekspert-tinglovchi” (T.Adorno terminologiyasi) va; “sektant-puritanin (tor yo‘nalishdagi tinglovchi)” (T.Adorno terminologiyasi) [106].

A.M.Gevorkyan tinglovchilik xususiyatlarini tahlil qilib uning - kognitiv-motivatsion, kreativ-akmeologik va mazmunli-qadriyatli kompetensiyalarini ajratib ko‘rsatgan [27; 9-10-b.]. Ushbu tipologiyalarni tuzishda mualliflar sub’yektiv-individual va mental mezonlarga asoslanishgan.

T.V.Lazutina “Musiqi tilining informatsion-kommunikativ, semiotik (so‘zlar ma’nosi) estetik, nominativ (sub’ekt harakatini ifodalash usuli), reprezentativ (muvofiglik), evristik-bilishga qaratilgan, baholovchi, gumanistik, regulyativ-tarbiyalovchi va boshqa funksiyalari mavjudligini ta’kidlaydi [56; 17-b.]. Bu musiqi tinglovchisiga berilgan falsafiy tipologiyadir.

Albatta, musiqi tili orqali musiqiy axborot uzatiladi, bu obrazlar tuzilmasi bo‘lib, musiqi asari yaratilishi - idrok etilishi - musiqiy fenomenlar ta’siri kabi murakkab tasviriy belgilar, ramzlar sistemasi orqali tushuniladi. Musiqiy obraz musiqiy tovushlar ko‘magida ob’yektiv va sub’yektiv borliqning estetik sifatlarini

namoyon etuvchi badiiy obraz, musiqa tili orqali yetkaziladigan murakkab ierarxik tuzilma, estetik axborotni uzatishning o‘ziga xos vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu o‘ziga xoslik musiqa ifoda tili sifatida tinglovchi tomonidan anglanishni taqozo etadi. Li Xay o‘z tadqiqotida keltirishicha, “Musiqiy notalardan ma’lumotlarni “chiqarib olish” imkoniyatiga ega bo‘lish uchun asarni tinglash, mualliflik ko‘rsatmalari va belgilari, asarning kompozitsiyasini aniqlashtirish, shuningdek, uning intonatsion va garmonik tilini, uslub va janr xususiyatlarini aniqlash talab etiladi” [59; 18-b.]. Yuqorida keltirilgan ifoda vositalarini aniqlashtira olish imkoniyati paydo bo‘lgan nuqtada asar mazmuni to‘laqonli anglanadi va bu musiqiy tinglovchilik madaniyatining mavjud yuqori darajasidan dalolat beradi.

Musiqa tinglash malakalari shakllanishida tinglangan asarning mazmunini anglash talab etiladi. Bu holatda V.P.Loizinskaya ta’kidlaganidek, “Barcha insonlarga xos bo‘lgan audial tafakkur o‘zining oliy shakllarida kompozitorning, shuningdek, ijrochi va tinglovchining musiqiy tafakkuriga aylanadi” [61; 16-b.]. Hozirgi sharoitda maktab o‘quvchilari kundalik hayotda ko‘pincha “oddiy” musiqaga duch kelishadi, televideniye, radio, reklama va ommaviy axborot vositalari esa ko‘p so‘raladigan musiqani targ‘ib qiladi.

Bunday sharoitda musiqa pedagogi darsni shunday tashkil etishi lozimki, o‘quvchi (talaba)lar o‘zlari uchun musiqa asarlarining eng yaxshi namunalarini tanlay olsin, ularni tahlil qila olishsin, his qilishsin, eshitgan asarlariga hissiyotlari orqali munosabat ko‘rsatishsin, o‘zlari uchun eng yaxshi musiqa namunalarini tanlab olishni o‘rganishsin. Tinglash madaniyati musiqa asarini o‘zlashtirishda bilish faoliyati va musiqiy idrok jarayonida erishilgan musiqiy didning mukammal darajasini ifodalashi lozim.

A.V.Tutolmin ta’rifiga ko‘ra, “Tinglovchi madaniyati - musiqa san’ati bilan muloqot qilish, boy musiqa tilini anglash, musiqiy qobiliyatlarning ma’lum darajadagi rivojlanishidir. N.S.Lomakina fikricha esa, o‘quvchining tinglovchilik

madaniyati motivatsion, hissiy, kognitiv-intellektual, baholovchi va faoliyatli tarkibiy qismlardan iborat” [86].

O‘quvchilarning umumiy ta’lim davridagi tinglash faoliyati:

– musiqiy qiziqishlar, ritm, metr, musiqiy eshitish va xotira kabi musiqiy qobiliyatlar, obrazli tafakkur va assotsiativ tasavvur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga;

– musiqa asarlari borasidagi bilimlar, bastakorlar biografik ma’lumotlarini o‘rganishga;

– o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni o‘quvchi o‘zining amaliy faoliyati jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini egallashiga;

– musiqa didi, tinglovchilik madaniyati, Vatanga, onaga, do‘stlarga muhabbat, san’atga emotsional-qadriyatli munosabat kabi axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirishga qaratiladi.

Musiqa tinglash musiqiy faoliyatning eng muhim, lekin, ayni paytda eng murakkab turlaridan biridir. O‘quvchilar hali talab darajasidagi tinglash madaniyatiga ega emaslar, shu bois, ularga turli musiqa janrlari kesimida, musiqiy idrok imkoniyatlari vositasida tinglovchilik madaniyatini rivojlantirib borish muhimdir.

Tinglovchilik madaniyatining o‘smirlik davridanoq rivojlanishi uchun unga o‘zi uchun mos musiqa materialini tanlash va kelajakda o‘zining musiqiy muhitini shakllantirish imkonini yaratish zarur. Bu davrda musiqa darslarida taklif etilayotgan musiqa ular uchun nihoyatda tushunarli, falsafiy mulohazalardan uzoq, xarakter va janr jihatidan rang-barang, hayot bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarning tinglovchilik madaniyatini yuksaltirishda sinfdan tashqari ishlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda bolalar uchun estetik jihatdan malakali, ularni ilhomlantiradigan ijobiy muhit yaratish maqsadga muvofiq.

Turli sanalarga bag‘ishlangan maktab, tuman va shahar badiiy-musiqiy tadbirlarida chiqishlar uyushtirish, o‘quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vositalardan izchil foydalanish

zarur. O‘smirlarda musiqiy tinglovchilik madaniyatining rivojlanishi ko‘p jihatdan psixologik va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘smir o‘zining individuallik, o‘ziga xoslik huquqini himoya qilish istagi bilan ajralib turadi va bir vaqtning o‘zida hech kimga o‘xshamaslik/hamma kabi bo‘lishni istaydi.

O‘smir hali bolalikni, o‘yinlarni tark etmagan, o‘yin faoliyatiga ehtiyoj sezadi, lekin o‘zining “bolaligidan” uyalib, o‘yindan tortinish holatlari ham uchrab turadi. M.A.Oleynik madaniyatning qadriyatlar bilan yashashini, san’at esa, bir vaqtning o‘zida qadriyat, yetkazib berish va kommunikativ almashuv vositasi sifatida ma’naviy qadriyatlarni birlashtirishini ta’kidlagan [80; 3-b].

O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishda undagi dunyoqarashni, shaxsiy ijobiy fazilatlarni singdirishda musiqa tinglash faoliyatining nihoyatda keng imkoniyatlari mavjud. Zamonaviy sharoitda musiqa industriyasining rivojlanishi tufayli o‘quvchilarning musiqa sohasiga yo‘nalganligi asosan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va tengdoshlari bilan muloqot ta’sirida shakllanadi, bu esa, aksariyat hollarda iste’molda nisbatan past badiiy-estetik sifatga ega musiqa namunalari ustuvor bo‘lishiga olib keladi.

Chunki, bu asarlar idrok etish qulayligi tufayli (oddiy ohang, raqs ritmi, garmonik tilining, matn mazmunining elementar soddaligi) sodda did shakllanishiga qulay shart-sharoit yaratadi. O‘quvchilar darslar orqali allaqachon mumtoz musiqa namunalari bilan yaxshi tanish, shuning uchun musiqa darslarida XXI asr bastakorlari ijodi asosida tinglash madaniyatini rivojlantirish afzaldir, uning asosiy xususiyati mazmuni ifodalashdagi oddiy yechimlardir. Har qanday yangi narsaga qiziqish bildiradigan o‘smirlar musiqiy rang-baranglikka ham qiziqishadi.

O‘smirlik davrida tinglash faoliyati quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq:

1. O‘quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyati asoslarini ularning umumiy ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida shakllantirish; musiqaning shaxs va jamiyat hayotida, jahon madaniyati rivojida tutgan o‘rnini

anglash asosida ma'naviy-axloqiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, o'z-o'zini tarbiyalash, mazmunli madaniy hordiqni tashkil etish kabilar asosida musiqa bilan muloqotning zarurati mavjudligi.

2. Musiqiy obrazlarni idrok etish va tahlil qilish asosida o'quvchilarning umumiy musiqiy qobiliyatlarini, shuningdek, obrazli va assotsiativ tafakkurini, fantaziya va ijodiy tasavvurini, hayot va san'at hodisalariga emotsional-qadriyatli munosabatini rivojlantirish.

3. Atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash, musiqiy ma'lumotlarni tanqidiy idrok etish, xoreografiya, teatr, kino, adabiyot, rassomchilik san'ati bilan bog'liq turli musiqiy faoliyat turlari (opera, konsert ijrochiligi) vositasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

4. Musiqiy didni, milliy va dunyoning boshqa xalqlari musiqasiga, mumtoz va zamonaviy musiqa merosiga barqaror qiziqishni tarbiyalash.

5. Musiqiy savodxonlik asoslarini o'zlashtirish: musiqani hayot bilan uzviy bog'liq holda, obrazli san'at sifatida anglash, musiqa san'atining maxsus atamalari va asosiy tushunchalarini hissiy jihatdan idrok eta olish, o'zlashtirish malakalarini egallash.

Muxtasar aytganda, musiqiy tinglovchilik madaniyati har tomonlama rivojlangan shaxsning muhim ijobiy xususiyatlaridan biridir. Musiqiy eshitish qobiliyati insonning tug'ma qobiliyati emas, balki, rivojlantirishni taqozo etadi. Bu jarayon shaxsning intellektual va hissiy jihatdan takomillashib borishi bilan bog'liq, uni amalga oshirishni bolaning maktabga kelishidan boshlash maqsadga muvofiq. O'quvchilarga ta'lim berish jarayonida, yangi musiqiy taassurotlar fonida ularda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlanib borish maqsadga muvofiq.

Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda musiqiy ehtiyojlar darajasi muhim o'rin tutadi. Musiqiy tinglovchilik ehtiyoji musiqa asarlarini tinglash barobarida, asardagi musiqiy ifoda va mazmundagi o'xshashlik hamda farqlarni topishni, musiqiy talqin vositalarini, musiqiy obrazning ta'rifi va uning dramaturgiyasini aniqlashni nazarda tutadi. Rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda

musiqiy tajribaning izchil to'planishini nazorat qilib borish o'quvchi (talaba)ning musiqa asaridagi badiiy mazmunni anglashi, egallangan musiqiy tajriba elementlarini bosqichma-bosqich qo'llashni o'rganishiga imkon yaratadi.

Shu orqali ta'lim oluvchilarda musiqa asarini tinglashga nisbatan motiv-intensiyalar (aqliy faoliyatning yo'nalganligi), motiv-maqsadlar, musiqa san'atining ma'naviy qadriyat sifatidagi ahamiyati, musiqiy faoliyatning emotsional jihatini teran anglash, refleksiya asosida musiqiy tinglovchilik faoliyati natijalariga adekvat baho berishga nisbatan mas'uliyatning aks etishi kabi ko'rsatkichlar namoyon etiladi.

Musiqa tinglash o'quvchi (talaba)lar idrokining sub'yektivlik xususiyatlari bilan namoyon etilishi individual psixologik xususiyatlar, yo'nalganlik va irodaning imkoniyatlariga bog'liqligi namoyon bo'ldi. Shunga binoan, ularning jamoaviy va individual musiqiy idrokidagi differentsiatsiya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv mashg'ulotlarida musiqa tinglash faoliyatiga asosiy e'tiborni qaratish zarurligi aniqlandi.

Musiqiy qobiliyatlar musiqiy faoliyatlarni samarali amalga oshirishning asosiy mezoni va imkoniyati sanaladi. Musiqiy mazmunni anglash uchun talab etiladigan musiqiy eshitish, musiqiy ritm, temp, dinamika va boshqa ifoda vositalarini to'laqonli idrok etish qobiliyatlar ko'lamiga bog'liq. Shu bois, o'quv mashg'ulotlari jarayonida musiqiy qobiliyatlarni tizimli tarzda, muntazam rivojlantirib borish muhimdir.

Musiqiy ehtiyojlar tinglash motivatsiyasi manbai sifatida o'quvchi (talaba)lardagi badiiy yo'nalganlik traektoriyasini ifodalab, qaysi musiqa asari tanlangan holda yoki g'ayriixtiyoriy tarzda ko'p tinglansa, o'sha musiqani tinglashga nisbatan ehtiyoj mustahkamlanib borishi kuzatiladi. Bu - tinglash uchun asarlar repertuarini tuzishda alohida mas'uliyat vaziyatini yaratadi.

III BOB. YOSH IJROCHILARDA MUSIQIY TINGLOVCHILIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH.

3.1-§ O‘quv mashg‘ulotlarida musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari

Zamonaviy sharoitda musiqa pedagogikasi amaliyotida yangi pedagogik texnologiyalarga, integrativ o‘qitish metodlariga keng murojaat qilish zarurati mavjud va bu borada ma’lum ijobiy natijalarga erishilgan.

O‘quv mashg‘ulotlarida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarni amalga oshirish bilan ta’minlanishi mumkin: madaniy-ma’rifiy muhit yaratilishi, ya’ni ta’lim, kommunikativ va aks ettirish imkoniyatlari faollashtirilishi; o‘quvchi (talaba)larning ma’naviy-ijodiy faoliyat turini tanlash erkinligi ta’minlanishi; musiqa asarlarining mazmunini o‘zlashtirishga va musiqa asarlarida o‘z ma’naviy-axloqiy g‘oyalarini mujassamlashtirishga imkon beradigan musiqiy tadbirlarda qatnashish uchun mustaqil tanlovi rag‘batlantirilishi, musiqa asarlarini tinglash jarayonida atrofdagi o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan birgalikda fikrlashi, birgalikda his qilishi, birgalikda tajriba to‘plashi kabilardir.

Jumladan: “Disko-QTM (Quvnoqlar va topqirlar musobaqasi)” texnologiyasi faol, bilimdon o‘quvchilardan tuzilgan 2 ta jamoa orasida o‘yin-musobaqa shaklida tashkil etiladi [72]. Mazkur texnologiyadan foydalanish jarayonida bellashadigan jamoalar a’zolari o‘rtasida o‘zaro musiqiy bilimlar almashuvi yuzaga keladi, kuyning to‘g‘ri intonatsiya qilinayotganligini aniqlash amalga oshadi, musiqani tanlab tinglash ko‘nikmalari va musiqiy didi shakllanib, tanlab tinglash ehtiyoji oshib borishi imkoniyatlari yaratiladi.

“Ko‘rgazmali-eshitish texnologiyasi” ko‘rgazmalilik asosida - musiqa asarlari ham jonli ijroda, ham texnika vositalari orqali eshittiriladi. Shuningdek, musiqa tinglash jarayonida o‘quvchilarni tinglangan musiqani o‘zlashtirishga tayyorlash va ko‘rish assotsiatsiyalari orqali musiqiy taassurotlarini boyitish uchun musiqadagi alohida ifoda vositalari, tushunchalar, atamalar, taniqli kartinalar

reproduksiyalari, rasmlar, plakatlar ko'rsatiladi. Har bir rasm tagida unga muvofiq dinamik belgilar ko'rsatiladi: kuchsiz – p , kuchli – f , kuchsizroq - mf va h.k.

Mazkur texnologiya orqali tinglashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kuy yoki kuy parchasining tugash nuqtasini farqlash, tonikani his qilish hamda musiqaning ayrim ifoda vositalarini anglash va farqlash o'zlashtiriladi.

“Ishontirish” texnologiyasi. Bu texnologiya o'quvchilarini mumtoz musiqaning inson hayotida muhim o'rin tutishiga ishontirishlariga qaratiladi. Metodika yordamida yuksak saviyadagi musiqaning mazkur o'quvchi hayotidagi ahamiyati ballarda o'lchanadi:

- muhim ahamiyatga ega (+2);
- o'rtacha ahamiyatga ega (+1);
- kam ahamiyatga ega (0),
- ahamiyatga ega emas (-1),
- mutlaqo ahamiyatga ega emas (-2).

Buning uchun o'quvchilarga pastki sinf o'quvchilari haqida ma'lumot beriladi. U sinfdan mumtoz musiqaning inson hayotida deyarli ahamiyati borasida o'quvchilar fikri, agar kim ushbu masalada o'qituvchiga yordam bermoqchi, o'quvchilarni mumtoz musiqaning ahamiyatiga ishontirmoqchi bo'lsa marhamat, deb murojaat qilinadi. Vazifa ixtiyoriy tarzda qo'yiladi va unda xohlagan o'quvchilar ishtirok etishadi.

O'quvchilar mumtoz musiqaning ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatini mavjud bilimlari doirasida yozishlari so'raladi. Vazifa bajarilgach, o'qituvchi mumtoz musiqaning ahamiyatini boshqa bolalar ham bilib qo'yishi lozimligini aytib, ulardan yana bir marta o'z munosabatini bildirish so'raladi. Mazkur texnologiya vositasida o'quvchilarda mumtoz musiqaga nisbatan ijobiy munosabat, tinglash faoliyatiga qiziqishi kuchaytirilishi va dastlabki emotsional baho va baho-hukmlar shakllanishiga shart-sharoit yaratilishi mumkin.

“Musiqiy rol ringi” o'yin texnologiyasi bo'lib, o'quvchilar ikki guruhga bo'lingan holda, musobaqa shaklida amalga oshiriladi. O'yinda mumtoz va

zamonaviy estrada musiqasi shinavandalari ishtirok etadilar, o‘yin uch qismdan iborat bo‘ladi.

Birinchi qismda har bir jamoa o‘zi yoqtirgan musiqiy janrning qarshi jamoa yoqtirgan musiqiy janrdan afzalligini isbotlashga harakat qiladi. Buning uchun mazkur janrga xos musiqa namunalaridan ijro etib ko‘rsatishi, yozuvini eshittirishi, uni ta’riflab, targ‘ib etishi so‘raladi.

Ikkinchi qismda jamoalar rollarni almashadilar va mumtoz musiqa tarafdorlari zamonaviy estrada janri tarafdorlariga aylanadilar.

Uchinchi qism eng muhim bosqich bo‘lib, bunda har ikkala janr orasida muhim shaxsiy va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyat kasb etadigan javob variantini topishlari zarur bo‘ladi. O‘yin oxirida mumtoz va zamonaviy estrada musiqa janrlarining o‘ziga xos afzal jihatlari, xususiyatlari to‘g‘risida yakuniy xulosalarga keladilar va eng to‘g‘ri javob variantini ilgari surgan jamoa g‘olib deb topiladi. Bu qiziqarli, interaktiv faoliyat jarayonida o‘quvchilarda asarning shakl va janrini, badiiy mazmunini yengil aniqlash ko‘nikmalari shakllanib boradi.

“Modellashtirilgan ziddiyat” texnologiyasida o‘quvchilardan ma’lum janrni tavsiflab berish so‘raladi, ular ma’lum musiqa janrining xususiyatlarini tavsiflab interaktiv muhitda faoliyat ko‘rsatadilar, ushbu janrning tuzilish xususiyatlari, asarning emotsional ta’sir doirasi, muhiti bo‘lishi lozimligi, ularning boshqa janrdagi asarlardan farqli jihatlari bilib oladilar va ularda asarning shakl va janrini, badiiy mazmunni yengil aniqlash hamda dastlabki emotsional baho va baho-hukmlar namoyon etilishi shakllanib boradi.

“O‘zingni angla” texnologiyasi tinglash ko‘nikmalari asosida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash va hissiy kechinmalari doirasini kengaytirish, musiqadagi badiiy mazmunni to‘laqonli anglash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilarga savolnoma anketalari tarqatiladi. Turli xarakterdagi musiqa asarlarini tinglash barobarida o‘quvchilarga ular xarakteri (tabiati) doirasiga kirmaydigan kechinmalar borasida so‘zlab berish taklif qilinadi, bu o‘quvchi shaxsining emotsional imkoniyatlarini boyitish orqali musiqiy

tinglovchilik madaniyati rivojlanishi omiliga aylanishi mumkin.

Konsertda yoki musiqiy yozuvni tinglash jarayonida shaxs maqbul tinglash tayyorgarligi holatida bo‘lishi zarur. Ushbu holat sportdagi singari 3 ta muhim parametr - jismoniy, hissiy va aqliy jihatdan namoyon etiladi. Ommaviy tinglash (konsert, badiiy musiqiy tadbir va boshq.) jarayonida o‘quvchi (talaba) asarda ifodalangan badiiy voqelikni tasavvur qilishi va unga kechinma, kayfiyat hamda hissiyotlarini moslashtirishi talab etiladi. Bu texnologiya vositasida o‘quvchi (talaba) dastlabki emotsional baho va baho-hukmlar, musiqaning ifoda vositalarini anglash va farqlash, shuningdek, badiiy obraz xarakteri o‘zgarishini farqlash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

“Musiqiy loto” texnologiyasida tinglangan musiqa asarini tahlil etish orqali o‘quvchilarda badiiy mazmun va ifoda vositalarining bir-biriga aloqadorligi haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi. O‘quvchilar sinf taxtasida tinglangan musiqa asaridagi ifoda vositalarini ramziy belgilovchi rasmlil kichik kartochkalarni (masalan, bepoyon dala va bog‘lar – tovushlarning silliq borishi, sokin daryo – sekin temp va h.k.) joylashtirishadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rganishi uchun ma’lum tushuncha va atamalarni atayin “yetaklab” borishi ham mumkin.

Ushbu jarayonda rasmlil kichik kartochkalarni shunday tanlanadiki, u mustaqil intonatsion-eshitish bilan bog‘liq musiqaning mohiyatidan, intonatsion-tovush shaklidan va bolalarning musiqiy faoliyati imkoniyatlaridan kelib chiqishiga erishilishi lozim. Musiqa darslarida eshitish-ko‘rish (audiovizuallik) birligiga rioya etish maqsadga muvofiqdir. Musiqani “kuzatish”, avvalo eshitish taassurotlarining kuchayishiga, musiqa orqali hayotiy tajriba va bilimlarning oshishiga, tanish kuylarni bilib olish va interval va ladni eshitish imkoniyatlari namoyon etilishiga ko‘maklashadi.

“Rolli tayyorgarlik” texnologiyasi orqali ommaviy tinglash paytida musiqiy tajribali kishi obraziga kirish va shu obraz timsolida musiqa tinglash amalga oshiriladi. Agar uyatchanlikni namoyon etuvchi, muloqotga kirishishga qiynaladigan o‘quvchi (talaba)lar mashqlar bilan muntazam va qat’iy shug‘ullansa,

asosiysi, o‘ziga ishonch bilan - yaxshi tinglovchiman, mening harakatlarim erkin va silliq kechadi, menga yuqori badiiy saviyadagi musiqani tinglash yoqadi; musiqa tinglab, uning mazmunini anglay olaman, o‘z tinglash uslubimdan zavq olaman, deb ustanovka shakllantirsa, u albatta o‘zini qiynayotgan negativ holatlardan qutilishi mumkin. Mazkur texnologiyani qo‘llash jarayonida o‘quvchilarda idrokning davomiyligi, asarni yoki parchasini oxirigacha tinglash hamda musiqa uchun go‘zalligini tan olish ko‘nikmalari shakllanib borishi amalga oshiriladi.

“Taqqoslash” muhim va ta’sirchan metodlardan biri sifatida o‘qitishning barcha jarayonlari va bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Nisbatan keng bo‘lmagan nazariy tayyorgarlik va tajribaga ega o‘quvchi (talaba)lar bilan ishlashda ushbu metod tinglovchilik ko‘nikma va malakalarini kengaytirishda, badiiy obraz xarakteri o‘zgarishini farqlashda keng imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Musiqa ta’limi nazariyasiga ko‘ra, tinglash faoliyatining asosiy vazifasi xalq, mumtoz va zamonaviy mahalliy hamda xorijiy musiqa uchun yuksak badiiy namunalari bilan muloqot jarayonida o‘quvchi (talaba)larning musiqiy ijrochilik ko‘nikmalarini, madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Tinglangan musiqa asarini ifodali o‘zlashtirish maqsadida asosiy kayfiyatni, xarakterni, ifoda vositalarini aniqlashtirish, badiiy obrazni o‘quvchilar tasavvuri asosida tasvirlash, asarning bosh g‘oyasini, musiqa asari mazmunini anglash, sub’yektiv-shaxsiy talqiniga nisbatan yondashuvni amalga oshirish zarur.

Quyidagi metodlar mashg‘ulotlarda o‘quvchi (talaba)larning musiqa asaridagi badiiy mazmunni chuqurroq idrok etishiga, ularda tinglash jarayonini yanada faollashtirishga, kuyning to‘g‘ri intonatsiya qilinayotganligini aniqlash hamda idrokning davomiyligi (asarni yoki parchasini oxirigacha tinglash) ko‘nikmalari shakllanishiga shart-sharoit yaratadi:

1. Cholg‘u asarlarning mavjud parchalarini vokallashtirish;
2. Musiqa uchun emotsional-ifodaviy mazmunini kuchaytirish maqsadida ritmik harakatlar orqali ohangni ta’kidlash.

3. Bir asar misolida musiqiy obrazlarning turli ijro talqinlarini ifodalash usullarini topish nuqtai nazaridan qiyoslash.

“Perspektiva va retrospektiva metodi” bosqichma-bosqich tarzda oldinga “yugurish” va oldin o‘rganilgan materialga qaytish orqali tinglangan musiqa asaridagi badiiy voqelik mazmuniga kirib borishga qaratilgan. Mazkur metodni qo‘llash orqali o‘quvchi (talaba)lar ongida ijro etilgan musiqa asarining yaxlit manzarasi, uning mavzusini chuqur anglash, musiqani yaxlit idrok etish natijasida malaka va ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi kuzatiladi.

Bunda o‘quvchi (talaba)lar nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtirishadi, balki, mazkur asardagi badiiy ifodaning boshqa musiqa asarlari bilan farqlarini, o‘zaro o‘xshash va aloqador jihatlarini o‘zlashtiradilar. Ushbu metod musiqa borasida fikrlashish deb nomlangan bo‘lib, uning muallifi D.B.Kabalevskiydir [105; 191-196-b.]. Mazkur metod vositasida o‘quvchi (talaba)larda dastlabki emotsional baho va baho-hukmlar, badiiy obraz xarakteri o‘zgarishini farqlash va tanish kuylarni bilib olish” ko‘nikmalari shakllantiriladi.

“Kuzatuvchanlikni shakllantirish” metodi o‘smir o‘quvchilar tinglash faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu metod vositasida o‘quvchilarda musiqa tinglash jarayonining borishini kuzatish orqali musiqani chuqur idrok etish amalga oshirilishi mumkin.

“Musiqa borasida fikrlashish” metodidan foydalanganda sintez, analiz, tenglashtirish kabi usullar qo‘llaniladi. Ayniqsa, mazkur usullardan foydalanganda o‘quvchilar musiqadagi turli hodisalarni tenglashtirish, taqqoslash va ma’lum xulosalarga kelishlari uchun imkoniyat yaratiladi. “Musiqa borasida fikrlashish” metodi musiqa mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilar faoliyati va bilish qiziqishlarini faollashtirishga, shu orqali ularda badiiy obraz xarakteri o‘zgarishini farqlash va musiqaning ifoda vositalarini anglash va farqlash ko‘nikmalari faollashtiriladi.

Bunday tarzdagi faoliyat shakli, ya’ni, musiqani mustaqil tarzda o‘zlashtirish, idrok etish o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchi va imkoniyatlarini oshirishi,

tinglangan musiqani talqin qilishlari uchun badiiy tafakkuriga ichki erkinlik bag'ishlashi bilan kuzatiladi.

Emil Jak-Dalkroz metodikasi asosida musiqaning uchligi tamoyili yotadi. Bular: musiqa, so'z va harakat bo'lib, shaxsni shakllantirishning vositasi sifatida ko'rsatilgan. Bunga asos qilib evritmika (musiqa va harakat birligi) olingan, metodikada o'quvchilarni musiqa xarakteri asosida, uning sur'atiga, dinamikasi va metr-ritm xususiyatlariga mos holda harakat qilishga o'rgatish ko'zda tutilgan. Jak-Dalkroz metodikasida solfedjio (kuyni nota nomi bilan aytish) va improvizatsiya (musiqa dramaturgiyasini rivojlantirish usuli) ham nazarda tutilgan bo'lib, mashg'ulotlarda mazkur metodikani qo'llash orqali tinglash samaradorligini yuksaltirish mumkin.

Zoltan Koday metodikasi "nisbiy (relyativ) lad solmizatsiyasi tuzilmasi" asosida amalga oshiriladi va xorda (vokal musiqani ijro etuvchi jamoa) kuylash faoliyati asosiy musiqiy tarbiya vositasi sifatida namoyon etiladi. Koday metodikasi o'quvchilarda musiqiy sozni, lad tafakkurini, turli tovush balandligini idrok etishni rivojlantiruvchi individual ijro mashqlari orqali singdirishda qulay bo'lib, mashg'ulotlarda nisbiy solmizatsiya keng qo'llanishi mumkin.

Dmitriy Kabalevskiy metodikasining asosiy yo'nalishi "Musiq va hayot" deb nomlangan va darslarda axloqiy-estetik tamoyillarga tayanib, o'quvchilarni go'zallikni ko'ra olish va undan zavqlanishga o'rgatish maqsadi qo'yiladi. Mazkur texnologik dasturning asosiy mazmuni musiqa haqida muhokama, musiqa va musiqiy hodisalar haqida fikr va tushunchalardan iborat bo'lib, mashg'ulotlarda interaktiv tarzda tinglangan asarlar muhokama qilinishi va asar borasida mustaqil tasavvur hosil bo'lishiga erishish mumkin.

Mualliflik metodikasida asar borasida qisqa tavsif, asarning muqobil (2 ta) ijro talqini, badiiy-estetik mazmun borasida o'quvchilarning qiyosiy taassurotlarini musiqiy ifoda vositalari negizida so'rab aniqlash, o'quvchilar fikrini umumlashtirish, to'ldirish, asarni yana bir marta tinglash, asardagi badiiy-estetik

mazmun borasida o'quvchilarning fikrlari hamda o'qituvchining o'quvchilar tavsiflari asosidagi umumlashtiruvchi xulosasi amalga oshiriladi.

Bunda maqbul ijro variantlarini qo'llash hamda asar borasida o'quvchilarning fikrlarini dastlabki tinglash va tavsiflardan so'ng takroriy tinglashning amalga oshirilishi musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Tinglash faoliyatini samarali tashkil etishda evristik pedagogika tamoyillari va metodlari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash keng imkoniyatlar yaratadi. Darslarda "Final" ("*Finale*") yoki "Sibelius" ("*Sibelius*") singari nota matni muharriri kompyuter dasturlarini keng qo'llash maqsadga muvofiq. Bularning barchasi o'quvchi (talaba)larning tinglovchilik imkoniyatlarini aynan sub'yektiv jihatlar nuqtai nazaridan turib amalga oshirish, pirovard natijada ularda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Darsning har bir mavzusiga ma'lum musiqiy-pedagogik texnologiyalar muvofiq kelishini nazarda tutish muhimdir. Ulardan ba'zilari, jumladan anketalar, savollar, kuzatuvlar, o'yin va rivojlantiruvchi texnologiyalar an'anaviy xarakter kasb etsa, boshqalari musiqiy tinglovchilik ko'nikmalarini shakllantirish va bu boradagi bilimlarni o'zlashtirish dasturi uchun maxsus yaratilgan va ular mualliflik ishlari bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar bilan tashkil etiladigan konsertlarda turli tanlov va viktorinalar o'tkazish, g'oliblarni mukofotlash, o'quvchiga hozirgina tinglagan asari haqida fikr bildirishga sharoit yaratish singari qiziqishlarni faollashtirish usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tinglovchilik tajribasini kengaytirish mumkin.

Shuningdek, musiqa o'quv mashg'ulotlarida qator rivojlantiruvchi o'qitish metodlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, "Musiqqa asarini yaxlit idrok etish metodi" musiqqa haqida fikrlashish metodiga ancha yaqin bo'lib, uni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchi (talaba)larni nafaqat tinglangan musiqadagi umumiy badiiy mazmun va musiqiy hodisa xarakteriga, balki, asardagi estetik mazmunning qiziqarli, muhim detallariga qaratadi.

Mazkur metod tinglangan musiqa asaridagi estetik hodisalarni yaxlit qamrab olish va uning muhim jihatlarini aniqlashtirishga imkon yaratadi. Asarni yaxlit idrok etish natijasida o'quvchilarda musiqa asariga nisbatan emotsional hozirjavoblik paydo bo'ladi, ular asar mazmunini va estetik go'zallikni teran anglay boshlashadi. Musiqa haqida fikrlashish va asarni yaxlit idrok etish metodikalarida asarni mazmunli idrok etishning kognitiv xususiyatlarini anglashga erishish mumkin.

Tinglash jarayoni natijadorligi turli vaziyatlarga bog'liq, bular: o'quvchi (talaba)ning yoshiga va tinglash jarayonida shakllangan, turli emotsional kechinmalarni o'zida aks ettirish tajribasiga; ularda musiqa obraziga nisbatan "hamdardlik" qobiliyatining shakllanganligiga; o'quvchilar tasavvuri va fantaziyasi, tafakkurining rivojlanganligi darajasiga, shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Bular musiqa tinglashni differensial asosda va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llashda namoyon bo'ladi.

O'quvchi (talaba)larning musiqiy faoliyatga ma'lum qadriyat sifatidagi munosabatiga - bevositalik, intuitivlik, yaxlitlik, faollik, nafosatlilik, kechinmalarning ratsional-mantiqiy xarakterini tushunishdan tajribalarning emotsional tabiatini anglash kabi xususiyatlar kiradi.

Musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishi uchun darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llangan o'quv dasturlari, musiqa materiali va o'qitish metodlari nafaqat predmetli xarakterga ega bo'lishi va nazariy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilishi, balki, amaliy tarzda, multimedia vositasida tinglash orqali uni interaktiv usullarda batafsil tahlil qilish lozim.

2. Musiqa darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar mazmuniga integrativ yondashuvni kiritish ijobiy natija beradi. Bu uchun musiqani o'zlashtirishda boshqa fanlar, jumladan tasviriy san'at, adabiyot, tarix, geografiya fanlari ma'lumotlaridan izchil foydalanish, turli fan sohalaridan olingan misollar vositasida o'quvchilarning badiiy obrazlarni tasavvur etish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Ayniqsa, to'garak mashg'ulotlarida ijro etilgan asarlarning

badiiy-ifodaviy imkoniyatlari, asar ijrosida ishtirok etgan cholgʻu sozlari, asarning tonal xususiyatlari, dramaturgiyasi, gʻoyasi va mazmuni borasida qiziqarli shaklda tushuntirishlar berib borish maqsadga muvofiq. X.Xayner ilgari surgan “Musiqqa alifbosi” metodi orqali oʻquvchilarda tovushlar harakatini idrok etish malakalarini shakllantirish muhim oʻrin tutadi [151].

Musiqqa mashgʻulotlarida mazkur metodikadan foydalanish natijasida taʼlimni qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Chjan sin oʻz tadqiqotida turli innovatsion oʻqitish metodikalari qatorida K.Orf gʻoyalarining oʻziga xosligi bolani musiqiy-badiiy faoliyatning turli koʻrinishlari, xususan, folklor musiqasi orqali rivojlantirishda namoyon boʻlishini taʼkidlagan [129; 11-b.].

Milliy musiqqa folklori materiallari asosida tinglovchilik malakalarini shakllantirish imkoniyatlari nihoyatda keng sanaladi. Darslarda asosiy tinglash materialiga qoʻshimcha tarzda milliy musiqqa folklori namunalaridan tinglash musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda koʻmaklashadi.

Oʻquv mashgʻulotlarida qoʻllanilgan (ijro etilgan, tinglangan) musiqqa ijrosi amaliyoti yutuqlari sanʼat pedagogikasi talablari doirasida oʻzlashtirilishi va oʻquvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish jarayonida muhim rol oʻynaydi. Musiqqa badiiy bilishga va ohanglar obrazlarini kechinma sifatida his etishga shart-sharoit yaratishi, hissiyotlar orqali egallangan bilimlar esa yaxlitlikka ega boʻlishi namoyon etiladi.

Musiqqa shinavandalari koʻpincha, yetarlicha diqqat qilmasdan tinglash sanʼati sirlarini egallashga harakat qilishadi. Tajribalar natijalariga koʻra, tinglash maʼlum meʼyorda boʻlishi lozim, surunkasiga bir necha soat davomida musiqqa tinglash kishiga hech narsa bermaydi va zeriktiradi. Xuddi ovqatlanish yoki uyqu singari musiqqa tinglashda ham maʼlum meʼyor boʻlishi zarur. Shuning uchun musiqani meʼyordan ortiq tinglaganda musiqiy mazmun tinglovchiga toʻliq yetib bormaydi.

Rivojlangan diqqatga ega boʻlgan va uni boshqara oladigan oʻquvchi quyidagi xususiyatlarni namoyon qiladi:

- tinglashning aniqligi;

– garmonik izchillikni anglash orqali tinglash mazmundorlik va mantiqiylik kasb etishi;

– tinglashni boshlashdan oldin emotsional jihatdan tayyor holda bo‘lish.

Musiqqa tinglash sifatini oshirish uchun quyidagi treningni amalga oshirish mumkin:

– ko‘zlarni yumib, ma’lum vaqt davomida eshitish idrokiga diqqatni to‘plash;

– ma’lum cholg‘u sozining o‘rta yoki past registrda yangragan tovushini butunlay so‘nguncha tinglash;

– ushbu tovushni ichki eshitish orqali tasavvur qilish va uni so‘nishi mumkin bo‘lgan oxirgi lahzasigacha “tinglash”;

– sokin kuyni tasavvur qilib, bir tovushning ikkinchi tovushga o‘tishini diqqat bilan “kuzatish”.

Ushbu mashqlarga qo‘shimcha sifatida - musiqqa asarini radio sadolarini tinglash barobarida, kishilar suhbat qilib turgan joyda, ko‘zga tushib turgan yorqin nurlar ta’sirida, stulda noqulay holatda o‘tirib tinglashni ham taklif etish mumkin. Bu mashqlar qarama-qarshi baholarga ega bo‘lsa-da, diqqatni bir nuqtaga to‘plashga yordam beradi. Tor diqqat - ijro etilayotgan tovushlar intonatsiyasi, ijro etilishi kutilayotgan tovushlardan oldindan zavqlanishni ta’minlasa, keng diqqat - musiqqa asarini yaxlit holda, kechinma tarzida idrok etishga olib keladi.

Yetarli tajribaga ega tinglovchining diqqati ham yaxlit asarni, ham uning alohida qismlarini qamrab olishga qodir bo‘ladi. Olingan bilimlar asosida musiqaning obrazli va semantik mazmunini emotsional va chuqur idrok etishga o‘rgatish, tinglash faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalash lozim.

Musiqani faol idrok etishi musiqiy ta’limning asosiy vazifasi bo‘lib, musiqiy idrok eshitishning odatiy shakllaridan farq qiladi, bunda tinglovchi dastlab tovush ketma-ketligini emas, balki intonatsiyalarni ilg‘aydi va baho beradi. Eshitish sezgilari tovush balandligini aks ettiradi, u o‘z navbatida to‘lqin chastotasiga bog‘liq; tovush kuchi tebranish amplitudasiga bog‘liq; tovush tembri esa tovush to‘lqinlarining tebranish shakliga bog‘liqdir.

Musiqiy tovushda ushbu uchta parametrning - tovush to'liqini chastotasi, amplitudasi va tebranish shakli uning fizik jihatdan mazmun tashuvchi elementlari sanaladi va idrokda muhim o'rin tutadi. Tinglovchi faoliyati eshitish, taktil, harakat, shuningdek, makon va zamon sezgilarining muvofiq ishlashiga asoslanadi. Albatta tinglovchi uchun eshitish sezgilari muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishning quyidagi turlari:

- tovush balandligini eshitish;
- kuy harakatini eshitish;
- garmonik (tovushlar ohangdoshligini) eshitish;
- polifonik (ko'p ovozli va mavzuli musiqa) ni eshitish;
- tovush tusi (tembri) va kuchi (dinamikasi) ni eshitish;
- tinglangan musiqaning shakl tuzilishini tinglab, aniqlay olish;
- ichki eshitish imkoniyatlari kabilar mavjud.

Tovush balandligini eshitish qobiliyati - mutlaq va nisbiy xususiyatga ega. Mutlaq eshitish qobiliyatiga ega kishi har qanday tovushni bir-biri bilan taqqoslamasdan aniqlay oladi. Nisbiy eshitish qobiliyatiga ega kishi esa ma'lum bir tovush balandligini aniqlashi uchun qaysidir notani eshitib, so'ngra mo'ljal oladi va topadi. Yaxshi nisbiy eshitish qobiliyatiga ega o'quvchi o'z ovozineng eng yuqori va eng past tonlariga asoslangan holda mo'ljal oladi hamda berilgan tovushni aniqlaydi. Shu bois o'quvchilarda har doim eshitish qobiliyatini rivojlantirishga urg'u beriladi.

Tovush balandligini eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarni bajarish lozim:

- o'qituvchi tomonidan kuylangan alohida tonlarni, qo'shiqning alohida parchasini intonatsiya qilish;
- o'rganilayotgan qo'shiq va tinglangan asarlar kuylarini eshitib kuylash va boshqa tonallikda kuylash (transpozitsiya qilish);
- tinglangan kuy yoki qo'shiq parchasini solfedjio kuylash;
- ko'p ovozli musiqa asarining bir ovozini kuylash, boshqa ovozlarni

tinglash;

- tinglangan asardagi cholgʻu sozlari nomlari, soni, tovush tembrini aniqlash.

Musiqiy kechinmalar nafaqat eshitish, balki harakat tabiatiga ham ega, binobarin, u hamisha musiqani idrok etishdagi turli harakatlar bilan bogʻliq. Gavdaning maʼlum maromda chayqalishi, qoʻl yoki oyoq orqali taktdagi kuchli hissalarini taʼkidlash, baravar kuylash - bularning hammasi metrik (kuchli va kuchsiz hissalar almashinuvi) va ritmik harakat (pulsatsiya)ni farqlash bilan musiqiy kechinmalar namoyon etilishining harakatli xususiyatidan dalolat beradi. Metr sezgisi barqaror va beqaror tovushlarning bir maromda, toʻxtovsiz almashib turishi - faollik va dam olishning almashinish davriyligi bilan bogʻliq umumiy hayotiy jarayonlarni aks ettiradi.

Musiqaning tinglashda asarni ritmik jihatdan xato idrok etish sabablari 3 ta holat bilan bogʻliq, bular:

- oliy nerv faoliyatining qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarida umumiy muvozanatning yoʻqligi;
- tinglash va anglashda muvofiqlikning yetarlicha mavjud emasligi;
- tinglash intizomi va musiqiy-eshitish tasavvurlari ritmik asosining kuchsizligi.

Ritm sezgisini rivojlantirish ikki yoʻnalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, tinglangan asarning ritmini asar ijrosi davomida taʼkidlab borish, ikkinchidan, musiqa asarining ritmik tuzilishini his qilgan holda uning muqobil, mos zarblarini topa olishdan iborat.

Asarni idrok etish sifati nafaqat ritm sezgisi rivojlanishi darajasini, balki shaxsda kechadigan asab-psixik jarayonlar xususiyatlarini ham aks ettiradi. Ritmga rioya etmagan holda tinglash nafaqat tinglovchining diqqati past darajadali, balki, turli sabablar natijasida qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining umumiy muvozanati buzilishi natijasida ham paydo boʻlishi mumkin. Bunday hollarda ritm sezgisini rivojlantirish organizmni umumiy sogʻlomlashtirish orqali amalga oshirib borilishi lozim.

Rassomlar ma'lum kayfiyatni ifodalash uchun ma'lum ranglardan foydalanganlaridek, kompozitorlar ham u yoki bu kayfiyatni ifodalash uchun ma'lum sezgilarni hosil qiluvchi tovush tembriga ega bo'lgan cholg'u asboblardan foydalanadilar. Jumladan, lirik kechinmalarni ifodalash uchun kompozitorlar nay, fleyta, g'ijjak, skripka, surnay, goboy kabi cholg'ulardan; ko'tarinki kayfiyatni ifodalash uchun qashqar rubobi, afg'on rubobi, chang, truba, fagot, zarbli cholg'ulardan foydalanadilar.

Aynan tovush harakatini eshitish qobiliyati orqali biz ma'lum kuyning rubobda, g'ijjakda, skripkada, violonchelda, fleytada yoki nayda ijro etilganligini aniqlab olamiz. Tovush harakatini eshitish qobiliyati bilan musiqada kayfiyat va badiiy obrazni ifodalash bir-biriga bog'liqdir.

Zero, musiqa mazmuni intonatsiya qilish, ifodalash san'atidir, ushbu intonatsiya mazmuni tovush balandligini eshitishda mujassamlashgan va u orqali biz ma'lum kuyni tanib olamiz hamda idrok etamiz. Eshitish qobiliyati interval va ladni his qilishga bo'linadi.

Intervalni his etish - qo'shni tovushlar orasidagi interval munosabatini, ladni his qilish - kuy tovushlarining laddagi barqaror tovushlarga munosabatini aks ettiradi. Shularga binoan, ladni his qilish, tovush harakatini eshitish qobiliyatining asosini tashkil etib, intervalni eshitish - ladni his qilishga nisbatan hosila xususiyat bo'lib hisoblanadi, chunki har bir interval lad ichida o'zining aniq o'rniga ega.

Ladni eshitish tamoyillari asosida venger kompozitori va pedagogi Z.Koday tomonidan musiqiy eshitishni rivojlantirish sistemasi tuzilgan. Ushbu sistema "relyativ (nisbiy) lad solmizatsiyasi tuzilmasi" nomini olgan. Unga ko'ra lad ichida har bir tovush o'z xarakteriga ega va u tonika bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Ushbu tuzilma bo'yicha kuy bosqichlaridagi ladni anglash orqali musiqiy eshitishni tarbiyalash asos qilib olingan. Garmonik eshitishni rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

– tinglangan asardagi tovushlar tuzilmasini eshitish va tovushlar munosabatlarini aniqlash;

- asar ijrosini tovushlar ketma-ketligi asosida tinglash;
- asardagi kuy tuzilishi, variatsiya rivojini idrok etish.

Mazkur ish usullaridan tashqari, o‘quvchi (talaba)lar dars jarayonida o‘zlari ijro etgan repertuar asarlarini tonikaga tayangan holda tonalligining turli bosqichlarini topish, tinglangan asarlarining asosiy va yordamchi bosqichlarini aniqlash kabi mashqlarni muntazam bajarishlari ularda garmonik va polifonik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

Yuqorida keltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini mashg‘ulotlarda qo‘llash o‘quvchi (talaba)larning bilish ko‘rsatkichlari oshishiga, musiqiy tasavvurlari hamda musiqiy mazmuni anglash imkoniyatlari kengayishi barobarida, musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanib borishi uchun optimal pedagogik muhit yaratilishiga olib keladi.

3.2-§ Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda shakl, janr va badiiy ifodani o‘zlashtirishning didaktik xususiyatlari

Musiqqa o‘zining dastlabki tashqi unsurlari – janr, shakl va ritmik xususiyatlari orqali muhim emotsional ta’sir vositasiga aylanadi. Uning ichki imkoniyatlari – tovushlar yo‘nalmasi, tovush tembri xususiyatlari, interval va akkordlar munosabati, faktura, ansambl va orkestr vositasida ifodalanadigan ohanglarni anglash uchun ma’lum darajada tinglovchilik tajribasiga zarurat paydo bo‘ladi.

Tinglovchilik tajribasini shakllantirishda badiiy-refleksiv, gnostik, mantiqiy-adaptiv, aksiologik, motivatsion va mental yondashuvlar nihoyatda muhim sanaladi. Bular asosida asarni tahliliy tarzda: shakl, janr va badiiy ifodani o‘zlashtirishning didaktik xususiyatlari prizmasi orqali singdirish muhimdir. Musiqiy mazmun - idrok etilishi natijasida tafakkur darajasida anglanadi, bunda ohanglar obrazlarining ifodaviy va tasviriy imkoniyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Bosh miyaning o‘ng va chap yarim sharlari musiqiy axborotni bir xil qabul qilishsada, uni turlicha qayta ishlaydi. O‘ng yarim shar yashaydi va his qiladi, chap yarim shar esa kuzatadi va xulosa qiladi. Albatta, murakkab intellektual faoliyatni

amalga oshirmasdan, musiqiy jarayon ichida bo‘ladigan musiqiy voqelikni to‘laqonli anglashning imkoni yo‘q.

Musiqiy-til ongi inson borlig‘ining ichki va tashqi realliklarini bildiradi. Ya’ni, musiqiy-til kodlari yordamida ong va kechinmalar obrazlarini intonatsion ramzlar, shakllar, janrlar orqali ob’yektivlashtiradi. Musiqiy-til kodlari intonatsiyada aks etadi, uning mohiyati esa kechinmalar va munosabatlar ramzlaridadir. Bu tushuncha aynan musiqa tinglash mexanizmlarining ayrim xususiyatlarini aks ettiradi.

Idrokdagi audiovizual imkoniyatlar musiqa asarini tinglash jarayonida yanada yaqqol ifodalanadi. Natijada musiqiy mazmuni anglash samaradorligi oshishi kuzatiladi. Tinglash sifati ko‘p parametrlar asosida baholanadi va musiqiy ong mohiyati uning intonatsion tabiatida, biosotsial kelib chiqishida, psixologik va tarixiy, etnomadaniy va individual-shaxsiy mo‘ljalida aks etadi. Madaniyat tarixining qonuniyatlari musiqa san’atining ijtimoiy yo‘naltiriladigan faoliyatida keng namoyon bo‘ladi.

Shu bois, musiqaning ta’lim oluvchi-tinglovchilardagi ijtimoiy-madaniy hayotga nisbatan munosabatlariga ko‘ra janr va uslublarga bo‘linishi xarakterli tendensiyalardan biridir. Musiqaning tasarrufi darajasi turli musiqiy didga ega o‘quvchi (talaba)lar, auditoriyaning tinglash faoliyatiga tayyorgarligi, badiiy dunyoqarashi, musiqiy bilimi hamda tajribasiga bog‘liq. Bularning barchasi shakllantiriladigan musiqiy did darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘tmishda kuzatilmagan bunday holat musiqiy hayot sub’ektlari bo‘lmish o‘quvchilar faoliyatini keskin murakkablashtirdi. Zamonaviy muallif o‘z asarining taqdiri bilan qiziqishi, matbuot, tinglovchilar fikrlarini o‘rganishi zarur. U albatta, ma’lum doiradagi tinglovchilar, referent guruh fikriga tayanadi. Biroq, ularning bahosi hamisha ham keng sonli real tinglovchilar bahosi bilan bir xil bo‘lavermaydi. Shuning uchun tinglanadigan musiqa asarlariga bildiriladigan munosabat o‘quvchilar tomonidan ushbu asarlarga beriladigan baho tarzida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Qator yillar o‘quvchilarning musiqiy idroki etalon darajasidagi ijrolarda (muqobil ijrolarsiz) rivojlantirilgan. Bugun bir asar ijrosining turli talqinlarini qiyoslash musiqadagi mazmunni idrok etishning samarali metodiga aylandi. Texnik imkoniyatlar o‘qituvchiga bir asar ijrosining turli talqinlarini, masalan *Internet* resurslari vositasida qiyosiy tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Kuylashda eshitish va ko‘rish sezgilarining shartlanganligi eshitish va kuylash malakalarini birgalikda mustahkamlaydi. Oddiy musiqa asarlarini kuylash bolalarning eshitish diqqatini faollashtiradi, musiqiy eshitish tasavvurlarini rivojlantiradi.

Har qanday yo‘nalish va janrdagi musiqani muntazam tahliliy tinglash tovush balandligini eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, bu ayniqsa, solfedjio mashg‘ulotlari orqali keng rivojlanadi. Xor tarkibida eshitish tasavvurlarini kuylash faoliyati bilan bog‘lab, tovush balandligini farqlashda birdaniga 2 ta analizator ishtirok etadi hamda farqlash aniqligining oshishiga imkon yaratadi. Badiiy obrazlarni intellektual o‘zlashtirish ba‘zan butun bir syujetning badiiy mazmunini to‘laqonli anglashga sharoit yaratadi.

Bu uchun tinglashga qo‘shimcha tarzda ertaklar, afsonalar, hikoyalar, kinofilmlar, hayotiy voqealardan foydalanish mumkin. Darsda tinglangan musiqa asaridagi voqea-hodisalar borasida hikoya yaratishni so‘rash o‘quvchilarni musiqa asarining rivojlanishini yaxlit tarzda kuzatishga undaydi. Syujetda musiqadagi mavjud kayfiyatni, ifodalangan kechinmalarni teran his etish muhimdir, shundan keyin asarning asosiy intonatsiyalarini tahlil qilishga o‘tish mumkin. Badiiy syujet va musiqalarni taqqoslash o‘quvchilar uchun qiziqarli faoliyatga aylanishiga erishish zarur.

Tinglash materiali sifatida eng ko‘p qo‘llaniladigani qo‘shiq janridir. Musiqa materiali sifatida qo‘shiqlardan keng foydalanish o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixorni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Hissiy ifodalilikdan yiroq, past badiiy saviyadagi musiqa energiya va hissiyotdan mahrumdir. Musiqaning ta’siri, ya’ni, insonni o‘ziga rom etuvchi kuy va ritm asosida tinglovchining ichki emotsional holati barqarorligi yanada oshadi, bu estetik emotsiyalar asosidagi

erkin, motor-tonik harakatlarda ifodalanadi. Musiqa muskul tonusini oshiradi yoki pasaytiradi, nafas olish ritmini me'yorlashtiradi yoki o'zgartiradi, qon aylanishi hajmiga, puls chastotasiga, qon bosimiga, insonning jismoniy holatiga ta'sir ko'rsatib emotsiyalar namoyon etilishini stimullashtiradi. Keyingi paytlarda ko'p yozilgan masala – bu musiqada sifat masalasidir. Hozirgi kunda mavjud holatni o'nglash bo'yicha tashkiliy, ma'rifiy va ta'limiy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Musiqa og'zaki muloqotdan farq qiladigan o'ziga xos til bo'lib, har doim bizning his-tuyg'ularimizga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shu jarayonda biz bilan nima sodir bo'ladi, to'liq ayta olmaymiz, biroq, o'z reaksiyamiz orqali – nimadir bo'layotganligini tushunamiz, ushbu emotsional ta'sir bizga musiqaning to'liq qiymatini anglashimiz uchun yetarlidir.

Mavzuga yaqin mavjud tadqiqot ishlarining ilmiy qiymatini ta'kidlagan holda, o'quvchi (talaba)larning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishga doir yondashuvlar, ta'lim jarayonida musiqiy faoliyatlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda musiqa tinglashni tashkil etishning innovatsion metodik asoslari birinchi marta taklif etilmoqda.

Musiqa tinglashni faollashtirish orqali o'quvchi (talaba)larda ijodiy tasavvur va xayolot, fantaziya, ijodiy ilhom imkoniyatlari yaratiladi, tinglash jarayonida badiiy obrazlarning asardagi dramaturgiyada tutgan o'rnini adekvat aks ettirish tajribasi kengayib boradi. Bu esa o'quvchi (talaba)larning musiqiy mazmunni teran anglash, musiqiy obrazlar xususiyatlarini to'laqonli idrok etishiga olib keladi.

Tinglash faoliyatining asosiy vazifasi musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish bo'lib, bu birinchi navbatda akademik, xalq, mumtoz, zamonaviy milliy va xorijiy musiqaning yuksak badiiy namunalarini o'zlashtirish bo'yicha to'plangan tajribaga, turli musiqiy uslublar, janrlar, shakllar va boshqalar haqida olingan bilimlar asosida musiqaning obrazli-semantik mazmunini emotsional va chuqur idrok etish qobiliyatiga, shuningdek, tinglash faoliyatiga nisbatan mavjud ehtiyoj bilan belgilanadi. O'quvchi (talaba)larning musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirish haqida gapirganda, musiqani o'ziga xos tarzda tinglash va anglash

imkoniyatlari va xususiyatlarini unutmaslik kerak. Tinglangan asarning emotsional intonatsiyasi bu idrok ob'yektidir. Hissiy intonatsiyalarning ekspressiv ma'nosi: kompozitor, ijrochining his-tuyg'ularini, kayfiyatini va irodaviy intilishlarini o'zida aks ettirish, ifodalash qobiliyati sanaladi.

Tinglash faoliyati mazmuni quyidagilar: a) musiqiy obraz; b) estetik-axloqiy asos (kompozitor faoliyat ko'rsatgan davr va estetik-axloqiy qarashlari); v) badiiy tasvir (tinglovchi tomonidan kodlangan va amalga oshirilgan ijodiy tajriba, fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi)dan iborat. Shu bilan birga badiiy obraz musiqaning o'zida emas, balki uning tinglovchiga ongli ta'sirida namoyon bo'ladi. Tinglash faoliyatini samarali amalga oshirish darsning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchi (talaba)ga musiqiy ijroning mohiyatini his qilishga, musiqani idrok etish, bilish va uni o'z faoliyatida tasarruf etishga qodir tinglovchi sifatida his qilishga yordam beradi.

O'quvchi (talaba)ning musiqiy tinglovchilik tajribasi musiqiy mazmuni o'zlashtirishning dastlabki bosqichida unga haqiqiy musiqiy hodisalarni tushunishga, keyingi bosqichlarda mavjud musiqiy tajriba musiqada rivojlanib boruvchi obrazlarni his qilishga yordam beradi. Musiqa asarining ma'no-mazmunini og'zaki nutq orqali ifodalash imkoniyatini kengaytirish uchun musiqa tinglashni tashkil etish jarayonida alohida ish olib borish muhimdir.

Musiqa janrlari borasida o'quvchi (talaba)larda mavjud bilim va tasavvurlar ularda tinglovchilik tajribasi kengayishiga imkon yaratadi. Janr barcha san'at sohalari singari musiqa san'atida ham keng qo'llaniladigan va musiqa asarlarining shakl hamda psixologik ta'sir imkoniyatlarini aks ettiradigan mezonlardan biridir. Masalan, qo'shiq yoki kuy janri, cholg'u yoki vokal janrlar, yakkanavoz yoki jamoaviy ijrochilik janrlari.

Bular masalaning umumiy jihatlarini aks ettiradi va tasniflash jarayonida masalaning ichki jihatlarini yanada ochilib boraveradi. Misol uchun, vokal janrlar bu vokal ovoz imkoniyatlaridan foydalangan holda kuylanadigan qo'shiqlar va ularning invariantlaridir. Bularga misol tariqasida qo'shiq, ashula, lapar, aytishuv,

ariya, arietta, ariozo va boshqa janrlarni keltirish mumkin. Cholgʻu ijrochiligida esa yakkanavoz ijrochilik jarayonida turli cholgʻu sozlari, tirnama, kamonchali, mizrobli, klavishli, puflama va boshqa cholgʻu sozlarini keltirish mumkin. Jamoaviy cholgʻu ijrochiligida esa oʻzbek xalq cholgʻu ansambli, xalq cholgʻulari orkestri, kamer orkestr, puflama cholgʻular orkestri, simfonik orkestr, estrada-simfonik orkestri, kamer orkestri va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Musiqqa shakllariga binoan esa naqarotli qoʻshiq janri, duet janri, cholgʻu ijrochiligida konsert janri, kantata, simfoniya, sonata janrlari, polifonik janrlar mavjudki, bular borasida umumiy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan taʼlim oluvchilar musiqqa asarining mazmun tashuvchi elementlarini oson ilgʻab olishlari mumkin boʻladi. Shu bois, tinglash faoliyatida va umuman, oʻquv mashgʻulotlaridagi barcha faoliyatlarda oʻquvchi (talaba)larga har bir ijro etiladigan musiqqa asarining janr xususiyatlari borasida kengaytirilgan maʼlumotlar berib borish ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Misol uchun, chizgan rasmlarini yoki ijro etgan musiqqa namunalarini tahlil qilish orqali oʻquvchilarning tasavvur va tafakkuri yoʻnalganligini, tinglash tajribasi darajasini bilib olish mumkin. Ijodiy ilhom tabiatdan va gʻayriixtiyoriy ravishda beriladigan imkoniyat boʻlib, boshqa paytda amalga oshirib boʻlmaydigan ijodiy ishni uddalashda namoyon boʻladi. Ijobiy yoki salbiy boʻlsin - kuchli emotsional kechinmalar bunda katta rol oʻynaydi.

Oʻz-oʻzini taʼkidlashga intilish kuchli boʻlsa, shaxsni kuchli hissiyotlar qamrab olsa, bu holda musiqaga murojaat qilish - inson maʼnaviy hayotini teran aks ettirish va yuksaltirishning yetakchi vositasi boʻlib qoladi. Tinglovchi faoliyati murakkab jarayon boʻlib, bunda u kompozitorning maqsadi va aytmoqchi boʻlgan fikrini badiiy ifoda orqali ongida aks ettiradi, tasavvuriga joylashtiradi. Tinglovchi faoliyatida badiiy ijoddagi mantiq ustun ahamiyatga ega boʻlib, tinglayotgan asari mohiyatiga kirishi talab etiladi.

Musiqiy qiziqishlar doirasi qaror topgan turli musiqiy yoʻnalishlarning ommalashuvi darajasiga ham bogʻliq, biroq, shu bilan birga individual hamdir.

Musiqiy qiziqishlar uch darajadan, ya'ni, bilishga qaratilgan, emotsional va xulq-atvor (hatti-harakat)dan iboratdir. Bilishga qaratilgan darajasida tinglanayotgan asarga nisbatan o'quvchi (talaba)ning reaksiyasi - tanish asarga minimal darajada, yangi tinglanayotgan asar yoki uslubga nisbatan esa maksimal darajada namoyon bo'ladi.

Emotsional darajada asarni tinglash jarayonida, shuningdek, tinglash jarayonini eslash vaziyatida musiqaning inson hissiyotlariga ta'siri namoyon etiladi. Xulq-atvor namoyon etilishi - musiqa tinglash, ya'ni, konsertga tushish, audio yoki video rejimda musiqa tinglashi jarayonida namoyon bo'ladi.

Musiqiy tinglovchilik madaniyati individual, hududiy xususiyatlar, milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, munosabatlar ta'siri ostida shakllanadi va rivojlanib boradi. Chunki, musiqiy tinglovchilik madaniyati ko'lami va sifati o'quvchi (talaba) shaxsining musiqa bo'yicha bilimlari, musiqaga nisbatan munosabati darajasi va tinglash faoliyati motivlarining me'yorini aks ettirishi mumkin. Shu bois, kompozitorning badiiy g'oyasini amalga oshirish yo'llarini aniqlash orqali musiqiy idrokni faollashtirish musiqa pedagogikasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tinglangan asarni idrok etishda appersepsiya, ya'ni, to'plangan bilimlar va o'quvchi-tinglovchining musiqiy tajribasi muhim rol o'ynaydi. Musiqa tinglash mustaqil musiqiy faoliyat bo'lishiga qaramasdan, musiqiy faoliyatlarning boshqa ko'rinishlari asosida yotadi va yetakchi faoliyat sanaladi. Jadal rivojlanib borayotgan ommaviy aloqa vositalari musiqaning tarqalishini makon va davlatlar chegaralari darajasida cheklanmagan shaklga olib keldi. Musiqiy idrokning psixologik asosida tinglanayotgan musiqaga nisbatan baholovchi munosabat ko'rsatish turadi, bunda bilish va emotsional-baholovchi jarayonlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu kommunikativ jarayon xususiyatlarini teran anglash orqali musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish musiqadagi badiiy-estetik mazmuni adekvat anglashga imkon yaratadi hamda o'quvchi (talaba)larda musiqiy

tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, maxsus va umumiy musiqa ta‘limining umumiy holatini belgilaydi.

Globalashuv sharoitida tinglovchilik madaniyati sohasi ham ma‘lum transformatsiyaga uchradi, ya‘ni, mass-mediaga bog‘liq tarzda tinglovchilik idrokining xususiyatlari o‘zgardi, tinglovchilarning ommaviy madaniyat mahsulotlarini “iste‘mol qiluvchi” yangi tipi shakllandi, musiqa tinglashning individual va jamoaviy shakllari nisbati o‘zgardi, ijrochilik va tinglovchilik idroki imkoniyatlari darajasi orasida muhim farqlar paydo bo‘ldi.

Murakkab shaxs tuzilmasi sifatida musiqa madaniyati bosqichma-bosqich, maktabgacha yoshdan, ya‘ni, bola musiqiy rivojlanishi davridan shakllana boshlaydi, o‘smirlik va keyinchalik o‘spirinlik davrida ancha yuksak pog‘onaga ko‘tariladi. Uzluksiz musiqa ta‘limi va tarbiyasida tayanch konseptual asoslar va qadriyatlarga tayangan holda shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirish zamonaviy musiqa ta‘limi nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammosi sanaladi.

Madaniyat fenomenologiyasi tabiiy uzluksizlikni o‘zida aks ettiradi, bu uning tuzilishida, amaliyotida va madaniy tuzilmalarning rivojlanish mexanizmlarida ko‘zga tashlanadi. Aynan musiqa asarlarida ifodalangan emotsional mazmun asosida idrokda baholash mexanizmlari paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Bugungi kunda qaysi yo‘nalish va mazmundagi musiqa targ‘ib etilayotganligi ayon. Saviyasi xususida e‘tiroz bildirilayotgan ayrim “musiqa asarlari”ni targ‘ib etishda xususiy radio va telekanallar tashabbusni qo‘ldan bermay kelishmoqda. To‘g‘ri, bugun ular efirga taqdim etayotgan repertuarni hech kim qat‘iy belgilab berayotgani yo‘q. Lekin, baribir, ushbu muassasalar xususiy bo‘lishiga qaramasdan, jamiyatimizda ma‘naviyat va milliy madaniyatni qaror toptirish ishiga o‘z hissasini qo‘shish uchun mas‘ul, deb o‘ylaymiz.

Ba‘zida mumtoz ashula yoki xalq musiqasi uslubida yaratilgan, milliy cholg‘u sozlari jo‘rligida ijro etiladigan zamonaviy kuy-qo‘shiqlarni yoshlar unchalik sevib tinglashmayotganligi haqida gapiriladi, lekin ular bu asarlarni nima uchun

tinglamayotganliklari xususida ko'pincha o'ylab ko'rilmaydi. Agar masalaning psixologik jihatiga e'tibor berib qaraladigan bo'lsa, tinglovchi ko'pincha o'ziga tanish musiqani tinglashni xush ko'radi. Demak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishdagi musiqa namunalari o'quvchi-yoshlar ko'proq tinglashi uchun imkoniyat yaratish lozim, ya'ni, radio va televideniya bunday asarlarni ko'proq efirga uzatish zarur.

Umuman, yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari targ'iboti bugun talab darajasida emas, bundan tashqari, cholg'u musiqasiga ham keyingi paytda e'tibor birmuncha pasaydi. Buni radio va televideniya berilayotgan cholg'u asarlari miqdori hamda konsert tashkilotlari repertuaridan ham bilish mumkin. Agar bu masalaga yetarli e'tibor qaratilsa, tinglovchilarning, ayniqsa, o'quvchi (talaba)larning badiiy-musiqiy saviyasi o'sishi, musiqiy tinglovchilik madaniyati yuksalishi, ma'naviyatining o'sishi uchun yanada puxta zamin hozirlangan bo'lar edi.

Har qanday musiqa asari avvalo tinglovchi uchun yaratilishi oddiy haqiqat. Lekin, o'sha tinglovchi bilan professional musiqachi, kompozitor, aranjirovkaching musiqa asari, undagi badiiy mazmun, ifoda imkoniyatlarini tahlil qila olish saviyasida farqlar bo'lishi tabiiy. Albatta, professionallar tinglovchilarni yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari bilan ta'minlashlari zarur. Shundagina musiqa san'atining ezgulik, ertangi kunga ishonch, Vatanga, ona yurtga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish vazifasi to'la amalga oshirilishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'lim muassasalaridagi musiqa to'garaklari ham o'quvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, to'garaklar mashg'ulotlarida o'rganiladigan vokal va cholg'u asarlarning ijrosi jarayonida uning badiiy mazmuni, emotsional ta'sir imkoniyatlari, voqelik va predmetlarni ohanglar obrazlari vositasida ifodalash usullari borasida qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Jumladan, maktab xor to'garagida ijro repertuarini shakllantirishda aynan repertuarni to'g'ri tanlash uchun musiqa

o'qituvchisi (dirijyor) sinf xoriga beriladigan ijroviy vazifalarni puxta tashkillashtirishi va tanlanadigan repertuar asarlar ma'lum tinglovchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Repertuar quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiq:

- 1) tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo'lishi;
- 2) yuqori badiiy saviyada bo'lishi;
- 3) bolalarning yoshi, bilim darajasi va tajribasiga mos kelishi;
- 4) to'garakdagi ijrochilarning imkoniyatlariga mos kelishi;
- 5) tabiatan va mazmunan rang-barang bo'lishi;

6) har bir repertuar asari xor jamoasida ma'lum musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda ko'maklashishi hamda mavjud malakalarni mustahkamlashi zarur.

Albatta, tanlanadigan repertuar asarlar o'quvchi (talaba)larning yosh xususiyatlari imkoniyatlariga mos kelishi zarur, ushbu talabdan ma'lum darajada chekinishga yo'l qo'yilsa, tayyorlanadigan ijro repertuari talab darajasidagi badiiy saviyaga mos bo'lmay, ularda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishga keng imkon yaratmaydi. Xor jamoasi uchun repertuar asarlar rejasini tuzishda tanlanadigan asarlarning janr, uslub va ma'lum davrga mansubligiga ham e'tibor qaratish zarur, bu esa o'rganiladigan asarlarning badiiy mazmunini chuqur anglash, undan ma'naviy-psixologik ta'sirlanish imkoniyatlarini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Shu maqsadda:

- 1) qayta ishlangan xalq qo'shiqlari;
- 2) XX asr kompozitorlik ijodi namunalari;
- 3) zamonaviy kompozitorlik ijodi namunalari;
- 4) qardosh xalqlar kompozitorlarining bolalar uchun yaratilgan xor asarlari;
- 5) bolalar musiqa folklori namunalaridan tanlash mumkin.

Xor to'garagining ijro repertuarida asosan o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari ustuvor bo'lishi maqsadga muvofiq. Yuqori darajadagi

vokal-xor mahoratiga ega bo'lgan o'quvchilarni turli ko'rik-tanlovlarga, ta'lim muassasalariga konsert dasturlari bilan olib chiqish mumkin. Bu tadbirlarning barchasi to'garak a'zolarining ijrochilik faoliyatiga qiziqishi oshishi bilan birga, ularning musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Umuman, musiqa ta'limida asarlarni o'rganishni tashkil etish o'qituvchi uchun nihoyatda mas'uliyatli vazifa bo'lib, repertuar asarlarning qanchalik nozik did va zarur metodik talablar asosida tanlanishi o'quvchi (talaba)larning ijrochilik mahoratini oshirish bilan birga, ularning ijro etilgan musiqa asarlari borasidagi badiiy-ijodiy tasavvurlarini kengaytirib, musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishiga olib keladi.

Ba'zi o'quvchi (talaba)larda asar ijrosi jarayonida o'z kechinmalariga haddan ziyod berilish uchrab turadi, albatta, bu jonli va bevosita hissiyotlar uchun muhim, shunga qaramasdan, personaj hissiyotlaridan ko'ra tinglovchi hissiyotlari keyingi pozitsiyada turishi lozim. Kechinmalar nazorat qilingandagina maqbul ijodiy jarayon uchun sharoitlar paydo bo'ladi. Bunda nozik sezgirlik o'z-o'zini to'liq his etish bilan nazorat qilinadi.

Tinglash jarayonida paydo bo'ladigan kechinmalar orqali ijodiy jihatdan asarni to'la anglash, uning mazmuniga kirib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda asarning ob'yektiv mazmunini aks ettirishdan ko'ra, hissiyotlar ustun kelishini kuzatish mumkin. Demak, o'quvchi (talaba) -tinglovchi badiiy voqelikni idrok etishda nafaqat o'z hislarini, balki, muallif tasavvuridagi badiiy obraz hayotini ongida aks ettirishi lozim.

“Kompozitor – ijrochi – tinglovchi” triadasi (uchligi)ni tahlil qilib, badiiy obraz yaratish va uning talqini borasida asosiy uchta yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning dastlabkisi sub'yektiv yondashuvdir. Ikkinchisi, diqqatni ijro etiladigan yoki tasvirlanadigan asarning ob'yektivligiga qaratish bilan bog'liq. Uchinchi yo'l ushbu ikki yondashuvning birlashtirilishiga erishishdan iborat. Ya'ni, musiqa asari yaratilishi, ijro etilishi va tinglovchi tomonidan idrok etilishi yaxlit jarayon bo'lib, ularni bir-biridan ajratish noo'rindir. Musiqa san'atida badiiy

voqelikni kechinmalar orqali aks ettirish muhim, asar qanchalik tabiiy, ob'yektiv tarzda ijro etiladigan bo'lsa, uning shunchalik tinglovchiga yetib borishi yengil kechadi.

Kompozitor musiqa yozib, o'zining hislarini ramzlar tarzida namoyon etadi va bu tajriba unga musiqachilarning oldingi avlodlaridan o'tadi. Ijrochi o'zining bilim, malaka va ko'nikmalariga tayangan holda, musiqiy ramzlar asosida jonli va real hislar harakatini yaratishi va uning tinglovchiga atalganligini bir zum bo'lsada, yodidan chiqarmasligi zarur. Shu yo'ldan borib ham kompozitor, ham ijrochi dramatik teatr aktyori singari o'zlari yaratgan obrazlar olamiga kirishi zarur. Har ikkalasi o'z sub'yektiv hissiyotlarini yoki borlikni ob'yektiv aks ettirish vazifasini, yoki muallif fikrini ifodalashda chuqur mas'uliyatni his etishlari kerak, zero, musiqa yakuniy natija - tinglovchi ongida maqbul tasavvurlar uyg'otishi lozim.

Kun tartibi, gigiena va o'z organizmini tarbiyalash qoidalariga muntazam rioya etish o'quvchi (talaba)larning madaniyati va ma'naviy yetukligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biridir. Tabiatdan berilgan iqtidorni to'liq ishga solmaslik, bor imkoniyatlarni to'liq safarbar etmaslik kechirilmas holdir. Bunday istalmagan vaziyatlarga kelmaslik uchun bolalar yoshlikdan qobiliyati va iqtidori, shuningdek, qiziqishlari mosligiga qarab yo'naltirilsa, kelajakda yuqori saviyali musiqachilar, tinglovchilar yetishib chiqishi uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Tinglash faoliyatida eshitish va ritmik sezgilar muhim bo'lib, bir-biridan sifat xususiyatlari orqali farq qiladi. Agar karnayning tovushi surnaynikidan nimasi bilan farq qiladi, degan savolga javob bermoqchi bo'lsak; surnay tovushi baland, nozik, sokin; karnay tovushi esa past, dag'al va kuchli, deb aytgan bo'lar edik. Musiqiy tovushlarni tinglab - balandligi, tembri, cho'zimi va kuchi orqali farqlaymiz. Ushbu barcha parametrlar birgalikda olinganda tinglash orqali paydo bo'ladigan sezgilarning sifat miqdorini tashkil etadi.

Sezgining sifati bir sezgidan boshqasini farqlashdagi asosiy xususiyatdir. Eshitish sezgilari ham boshqa sezgilar singari inersiyaga ega. Baland, kuchli tovushlarni eshitgandan so'ng ma'lum vaqt qulog'imizda jaranglab turishi

hammamizga ma'lum. Kuchli musiqa sadolari ta'sirida ma'lum vaqt bo'lgach, musiqa tingandan so'ng ham tovushlar qulog'imizda sadolanib turgandek bo'ladi.

Sezgilarning muhim xususiyati shundan iboratki, ular hech qachon alohida holda amalga oshmaydi va hamisha bir-biri bilan aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Birgalikda namoyon bo'lib, musiqa tinglash jarayonida sezgi organlari o'z sezuvchanlik darajasini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Bunda ijro jarayonidagi kuchsiz qo'zg'atuvchilar, ya'ni, asardagi *p* ijrosi eshitish sezuvchanligini oshiradi, kuchli qo'zg'atuvchilar, *f* yoki *ff* ijrosi esa aksincha, sezuvchanlikni kamaytiradi. Sezgilarning birgalikdagi harakati sensibilizatsiya va sinesteziya jarayonlarida amalga oshadi.

Agar biz musiqa tinglab, cholg'uchi va raqqosalar harakatlarini kuzatsak, ulardan yanada ko'proq mazmun topamiz. Chunki, bunda eshitish sezgisiga ko'rish sezgisi ham qo'shiladi. Shuning uchun teatr zalida tinglangan balet musiqasi uni radioda tinglagandan ko'ra, ko'proq va kengroq taassurot qoldiradi. Konsert zalida o'tirib, kuchli chiroqlar ta'siridan biz musiqiy tovushlardan yetarli darajada mamnuniyat seza olmaymiz. Chunki, kuchli yorug'lik bizning eshitish sezgilarimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar yonimizda muattar hidlar taratib turgan guldasta bo'lsa, musiqani maroq bilan tinglashga imkon yaratadi. Ko'pincha ko'rish - eshitish sinesteziyasi uchraydi. Xonandaning ovozi yoki musiqa sozidan taralayotgan tovushning insonga hissiy taassurot qoldirishi ularning tembr spektri xususiyatlariga bog'liq. Biz tanishlarimizni ovoz tembridan darhol tanib olamiz. Tajribali qo'shiqchilar ovoz tembrini o'zgartirish orqali eshitish analizatorlariga ta'sir etib, tinglovchilarda turli emotsiyalar, sezgilarni hosil qilishadi.

Cholg'u sozining tembri xuddi rang va xonandaning alohida unli tovushni ijro etishidagi umumiylik singari ma'lum sezgilar bilan bog'liq va ularning ildizi o'tmish ajdodlardan o'tib kelayotgan ong osti jamoaviy tajribasiga borib taqaladi. Tovush balandligini eshitish qobiliyati orqali musiqiy tovushlarni mutlaq aniqlash imkoniyati yaratilsa va xonandalar, cholg'uchilarda kerakli notalarga tushish

ta'minlansa, tovush harakatini eshitish qobiliyati kuyni yaxlit idrok etishni ta'minlaydi.

Musiqiy tovushning lad tuzilmasi musiqiy mohiyatni tashkil etadi. Binobarin, eshitish qobiliyati tovush balandligini va uning laddagi funksiyasini yaxlitlikda anglash imkoniyatini yaratadi. Musiqa tinglashni faollashtirishda garmonik va polifonik eshitishga asosiy e'tiborni qaratish muhim va kuydagi ikki hamda undan ortiq ovozlarning birgalikdagi harakatini eshita olish bilan bog'liqdir. Rivojlangan polifonik eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan tinglovchi (o'quvchi) ko'p ovozda kuylayotgan xor tarkibida boshqalarning ijrolarini ham tinglab, tahlil etib borish imkoniga ega bo'ladi.

Zero, garmonik eshitish ohangdoshlikka yo'naltirilgan musiqiy eshitishdir. Agar polifonik eshitish va uning rivojlanishi musiqa tovushlarini gorizontal bo'yicha differensiyalashgan holda eshita olishga qaratilgan bo'lsa, garmonik eshitish tovushlarni vertikal bo'yicha tinglash sifatiga javob beradi. Cholg'u sozlari xususiyatlariga ko'ra garmonik eshitish torli cholg'u, puflab chaluvchi sozanda va xonandalardan ko'ra chertib chaluvchilarda yaxshiroq rivojlanadi.

Shunga qaramasdan, eshitishning bu turi barcha tinglovchilar uchun ahamiyatlidir, zero, musiqiy tafakkur qonuniyatlari ko'p hollarda garmonik izchillik qonuniyatlari negizida namoyon bo'ladi. Mashg'ulotlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida asosan imitatsiya va reproduktiv metodlarni qo'llab, o'quvchi (talaba)larda tegishli ustanovka hamda motivatsiya muhitini yaratish mumkin.

O'quv mashg'ulotlarini o'quvchi (talaba)larning musiqa tinglash faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari asosida tashkil etish mohiyatida tinglangan asarlarni tahlil qilish orqali badiiy-estetik mazmuni teran anglash masalasi turadi. Musiqa asaridagi shakl, janr va badiiy ifodani o'zlashtirish musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Musiqa asarining lad tuzilmasi musiqiy mohiyatni tashkil etganligi sababli, eshitish qobiliyati tovush balandligini va uning laddagi funksiyasini yaxlit anglash imkoniyatini yaratadi.

XULOSA

1. Ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili jarayonida o‘quvchi (talaba)larning musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish murakkab, ko‘p funksiyali tizimliliigi va ma’lum musiqiy-pedagogik sharoitlarga, rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llashga bog‘liqligi belgilandi. Musiqiy tinglovchilik madaniyati rivojlanishida badiiy-estetik mazmuni anglash bosqichlari (intonatsion-eshitish tajribasining to‘planishi; asarni intonatsion-tahliliy eshitish; musiqiy obrazni idrok etish) amalga oshiriladi.

2. Musiqiy tinglovchilik madaniyati - musiqada ifodalangan badiiy-estetik mazmuni, kayfiyatni to‘g‘ri va adekvat tushunish, unga munosib baho berish, ohanglar obrazlarida mantiqiy mazmun topish, musiqaga emotsional javob berish qobiliyati, musiqadagi tarbiyaviy jihatlarni o‘zi uchun ibrat sifatida qabul qilish, badiiy obraz tarzida idrok etish va hamdardlik hissini namoyon etishda ifodalanishi aniqlandi.

3. Musiqiy idrok - ifoda vositalari, tasavvurlar, musiqaning ongda yaxlit aks etishi, ohanglar obrazlari go‘zalligini his qilish qobiliyati bo‘lib, o‘quvchi (talaba)-tinglovchining ijodiy faoliyati jarayonida, ma’lum musiqiy-eshitish va hayotiy tajribasi negizida amalga oshiriladi. Tadqiqotda musiqa tinglash o‘quvchilar idrokining sub’yektivlik xususiyatlari bilan namoyon etilib, ushbu individual psixologik xususiyatlar yo‘nalganlik va irodaning imkoniyatlariga bog‘liqligi aniqlandi.

4. Har bir musiqa asari ma’lum janr, shakl, tonal xususiyatlar qonuniyatlari asosida yaratiladi, ifoda vositalari orqali ijro etiladi va shu unsurlar negizida tinglovchi badiiy mazmuni anglaydi. Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish maqsadida o‘quv mashg‘ulotlarida: “O‘zingni angla”, “Musiqiy loto”, “Rolli tayyorgarlik”, “Ko‘rgazmali-eshitish”, “Modellashtirilgan ziddiyat”, “Ishontirish”, “Disko-QTM (Quvnoqlar va topqirlar musobaqasi)”, “Musiqiy rol ringi” kabi rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

5. Tinglashda tasviriy san’at, adabiyot, tarix fanlari ma’lumotlaridan

integrativ tarzda izchil foydalanildi, turli fan sohalaridan olingan misollar vositasida badiiy obrazlarni tasavvur etish hamda badiiy-musiqiy mazmuni yanada to‘laqonli anglash imkoniyatlari takomillashtirildi.

6. Musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish maqsadida rivojlantiruvchi ta’lim metodikasini amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmga ko‘ra, mashg‘ulotlarda pedagogik hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan, qadriyatli-mazmunli, dialogik, individuallashtirilgan, differensiallashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kognitiv-vizual, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar asosida rivojlantiruvchi variativ ish rejalari tuzish va kutilayotgan natijalarni belgilash yo‘nalishlari tizimlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida amaliyotga qator **tavsiyalar** tatbiq etildi va ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlarida o‘z isbotini topdi. Ular quyidagilar:

1. O‘quv mashg‘ulotlarida ijro etiladigan har bir asar borasida kengaytirilgan tushuntirish berish maqsadga muvofiq. Buni kirish so‘zi, muqobil tarzda (bir asarni ikki ijro variantida) tinglash, amaliy ijro, taassurotlarni tavsiflash, takroriy tinglash va umumlashtirilgan xulosalarga kelish shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Ko‘p bora tinglangan har qanday shakl va janrdagi musiqa asariga nisbatan tinglash ehtiyoji, ustanovkasi shakllanib boradi, shu bois, yuksak badiiy saviyadagi musiqa namunalarini ko‘proq tinglashini tashkil etish.

3. Darslarda pedagogik, axborot va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan izchil foydalangan holda o‘quvchi (talaba)larda musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirishni tizimli tarzda tashkil etish.

4. Darsda san’atning boshqa turlari: tasviriy va amaliy san’at, badiiy adabiyot materiallaridan izchil foydalanish orqali musiqiy mazmuni rasm chizish, hikoya yoki she’r yozish tarzida ifodalash imkoniyatlarini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi O‘RQ-668-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5230682>
2. “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son qarori. <https://lex.uz/docs/3581613>
3. Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PQ-112-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5849580>
4. Abdullaeva M.M. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning hamkorlik mexanizmini takomillashtirish. Ped. f. dokt. PhD diss-ya. Toshkent, 2019. – 130 b.
5. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений. — 3-е изд., испр. и доп. М.: Прометей, 2020. - 502 с.
6. Adilov A. O‘zbek kliplarida tasviriy yechim muammolari // Filologiya va madaniyat masalalari. Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. Karabuk, 2019. - B.624-625.
7. Адорно Т.В. Избранное: Социология музыки / Пер. с нем. – 3-е изд. - М.; СПб.: Центр гуманитарных инициатив, 2017. – 446 с.
8. Аникьева Н.В. Восприятие классической музыки как педагогическая проблема // Журнал «Педагогический имидж», 2021. Т. 15. №4 (53). –С.398-407.
9. Арутюнова А.Г. Арт-рынок в XXI в.: пространство художественного эксперимента / А.Г.Арутюнова. – М.: Издательский Дом ВШЭ, 2015. – 232 с.
10. Асафьев Б.В. Музыкальная форма – как процесс. Книга первая и вторая. Изд. 2-е. Изд-во “Музыка” Ленинградское отделение, 2018. – 370 с.
11. Ashurov V., Matyoqubov O., Begmatov S. “Musiqiyimizning tarixiy boylig‘ini oz-moz ko‘rsatgan kabi bo‘ldik...” “Qashqadaryo” gazetasining rasmiy veb-sayti. <https://qashqadaryogz.uz/read/musi-ijmizning-tarikhij-bojli-ini-oz-moz-k-rsatgan-kabi-b-ldik>
12. Бажукова Е.Н. Музыкальная информатика как составляющая музыкального образования. Журнал “Мир науки, культуры, образования”. №2 (69) 2018. –С.295-298.
13. Барановская Т.Г. Функции музыки в системе межкультурной коммуникации // Материалы научной конференции на тему «Культура, наука, образование в современном мире». г.Гродно, 11-12 мая 2011 г.
14. Бахтин В.В. Формирование эмоционально-ценностного отношения младших школьников к музыкальной деятельности в процессе музыкального образования в начальной школе. Автореф. канд. пс. н. Пенза, 2011. – 25 с.

15. Бершадская Т.С. О некоторых аналогиях в структурах языка вербального и языка музыкального. Избранные статьи: учебное пособие / Т.С.Бершадская. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – С.149-160.
16. Бобылева Н.В. Социокультурная природа музыки: социальная динамика сонорного мироощущения. Автореферат дисс. канд. филос. наук. Ростов-на-Дону, 2011. – 24 с.
17. Богуславский М.В. Книга о музыкальной культуре, полезная для многих (Рецензия на издание: Алиев Ю.Б. Формирование музыкальной культуры школьников–подростков как дидактическая проблема. - М.: Изд-во СГУ, 2012.) Источник: Интернет-журнал «Проблемы современного образования». 2012, №2. - С.200.
18. Бодина Е.А. Музыкальная педагогика и педагогика искусства. Концепции XXI века: Учебник для вузов. – М.: Юрайт, 2017. - 332 с.
19. Бодина Е.А. Роль музыки в формировании социально определенного типа личности. <http://www.art-education.ru/electronic-journal/rol-muzyki-v-formirovanii-socialno-opredelenno-go-tipa-lichnosti>
20. Бондарь К.В. Особенности ценностно-смысловой сферы профессиональных музыкантов и любителей музыки. Автореферат дисс. канд. психол. наук. Ростов-на-Дону, 2010. – 21 с.
21. Борисова Е.С. Психологические особенности категориальной организации восприятия музыки учащейся молодежью с разным уровнем музыкального образования. Автореферат дисс. канд. психол. наук. Казань, 2009. – 24 с.
22. Бочкарёв Л.Л. Психология музыкальной деятельности. Монография. –М.: Классика-XXI, 2008. – 352 с.
23. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 305 b.
24. Vohidova N.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi asosida milliy g'ururni tarbiyalash. Ped. fanl. nomzodi. diss-ya. Toshkent, 2011. – 155 b.
25. Гаврилова Н.А. Индивидуальное творчество и национальная традиция нераздельны. Music of Eurasia Tradition and the present. Online scientific edition. 2021 / 3 (4). –С.12-24.
26. G'aybullayev O.M. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari. Fal. f. dokt. diss-ya. Toshkent, 2011. – 277 b.
27. Геворкян А.М. Формирование слушательской компетенции бакалавров в процессе музыкально-педагогического образования. Автореф. дисс, канд. пед. наук. Тамбов, 2009. –Б.9-10.
28. Джон Содам. Проблемы и перспективы общего музыкального образования в университетах республики Корея. Автореферат дисс. канд. пед. наук. Санкт-Петербург, 2014. – 22 с.

29. Дробот О.Е. Музыкально-эстетическое развитие подростков в условиях дополнительного образования (на примере Детских школ искусств и детских музыкальных школ). Автореферат дисс. канд. пед. наук. Москва, 2019. – 24 с.
30. Жукова Г.К. Репрезентация национального в европейском музыкальном дискурсе. Автореферат дисс. канд. филос. наук. Санкт-Петербург 2011. – 25 с.
31. Захаренкова Е.И., Юдин А.П. Музыкальное исполнительство как атрибутивный компонент фортепианной педагогики. Журнал “Школа и наука”. №5/2017. – С.213-217.
32. Зорилова Л.С. Поиск духовных идеалов личности в науке, культуре и музыкальном искусстве: монография / Л.С.Зорилова. - Москва: Академический Проект, 2020. - 253 с.
33. Ismoilova M.E. Xalq qo‘shiq-lari vositasida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. P.f.n. diss-ya. Qarshi, 2006. – 217 b.
34. Isoqov Z. O‘zbekistonda san’at va madaniyatga e’tibor – ijtimoiy islohotlarning bosh mezoni sifatida. O‘zDSMI xabar-lari, 2019/3(11). –Б.9-11.
35. История музыкальной педагогики: учебное пособие / Авт. – сост. Т.Б.Суханова; Нижегородская гос. консерватория им. М.Глинки. – Н.Новгород: Изд-во Нижегородской консерватории, 2020. – 48 с.
36. Казанцева Г.Н. Психологические факторы формирования эмоциональной культуры личности (на примере студентов музыкального колледжа). Автореф. дисс. канд. пс.н. Екатеринбург, 2014. – 23 с.
37. Как учат музыке за рубежом. Сост., авт. предисл. Д.Дж.Харгривз, А.К.Норт. –М.: Издательский дом «Классика XXI». 2009. – 208 с.
38. Камышникова С.В. Невербально-синестетический аспект музыкального восприятия (на материале инструментальной музыки барокко). Автореферат дисс. канд. искусствоведения. Новосибирск, 2007. – 22 с.
39. Каргополова Т.М. Развитие музыкальных способностей у учащихся младшего школьного возраста в процессе изучения фольклора. Автореф. дисс. канд. пед. наук. Москва, 2014. – 24 с.
40. Картавцева М.Т. Творческое развитие детей средствами музыкального фольклора. Автореферат дисс. доктора пед. наук. Москва, 2009. – 62 с.
41. Кашапова Л.М. Моделирование и реализация непрерывного этномузыкального образования как целостной национально-региональной образовательной системы. Автореф. дисс. докт. пед. наук. Уфа, 2006. – 50 с.
42. Кирнарская Д.К. Теоретические основы и методы оценки музыкальной одаренности. Автореферат дисс. докт. психол. наук. Санкт-Петербург, 2006. – 46 с.
43. Kiyamov N.S. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish. Ped. f. dokt. diss-ya. Samarqand, 2019. – 254 б.

44. Клобукова Н.Ф. Западная музыкальная культура в Японии периода Мэйдзи (1868-1912): Заимствование и адаптация. Автореферат дисс. канд. культурологии. Москва, 2018. – 36 с.
45. Князева Г.Л. Развитие способности к творческой интерпретации у будущих педагогов-музыкантов: формы и методы. Автореферат канд. пед. наук. Москва, 2015. – 29 с.
46. Коломиец Г.Г. Концепция ценности музыки как субстанции и способа ценностного взаимодействия человека с миром. Автореферат дисс. докт. филос. наук. Москва, 2006. – 46 с.
47. Коляденко Н.П. Синестетичность музыкально-художественного сознания (на материале искусства XX века). Автореферат дисс. доктора искусствоведения. Новосибирск, 2006. – 48 с.
48. Константинова Н.И. Психологические аспекты музыкального воспитания школьников: монография / Н.И.Константинова, С.В.Гани. – Чебоксары: ИД «Среда», 2020. – 76 с.
49. Корсакова И.А. Музыкальная коммуникация: генезис и историко-культурные трансформации. Автореферат дисс. докт. культурологии. Москва, 2014. – 40 с.
50. Кочемасова Л.А. Формирование психологически комфортной и безопасной образовательной среды: моделирование, проектирование, мониторинг: учебно-методическое пособие / Л.А.Кочемасова. - Оренбург: ОГПУ, 2021. - 152 с.
51. Костина Э.П. Креативная педагогическая технология музыкального образования дошкольников. Автореф. дисс. докт. пед. наук. Москва, 2007. – 51 с.
52. Красильникова М.С. Интонационный анализ музыкальных произведений в общеобразовательной школе. Журнал “Педагогика искусства”. ISSN 1997-4558. Электрон манба: <http://www.art-education.ru/electronic-journal> №2, 2017. – С.98.
53. Кузуб Т.И. Музыкальная культура XX века как феномен эпохи глобализации. Автореф. дисс. канд. культурологии. 2009. – 29 с.
54. Курешева И.В. Психологические основы музыкально-творческого развития личности в образовательном процессе. Автореф. дисс. докт. психол. наук. Нижний Новгород, 2011. – 54 с.
55. Qodirova D.S. O‘zbek milliy musiqasining estetik xususiyatlari. F.f.n. diss-ya. Toshkent, 2012. – 164 б.
56. Лазутина Т.В. Онто-гносеологические и аксиологические основания языка музыки. Автореферат дисс. доктора филос. наук. Екатеринбург, 2009. - 40 с.
57. Левина И.Р. Развитие социального интеллекта педагога-музыканта в процессе профессиональной вузовской подготовки. 2021. Автореф. дисс. докт. пед. наук. Москва, 2020. - 48 с.
58. Левина И.Р. Социальный интеллект педагога-музыканта: монография / И.Р.Левина. - Уфа: БГПУ имени М.Акмуллы, 2019. - 204 с.

59. Ли Хай. Воспитание музыкального мышления обучающихся старшего школьного возраста средствами ансамблевого музицирования в классе фортепиано. Автореферат дисс. канд. пед. наук. Москва, 2017. – 28 с.
60. Лихина Т.Н. Овладение нотной грамотой как фактор развития музыкального слуха на уроках музыки в общеобразовательной школе. Автореф. дисс. канд. пед. наук. Санкт-Петербург, 2013. – 22 с.
61. Лозинская В.П. Музыкальное искусство как средство создания и трансляции культурных ценностей. Автореферат дисс. канд. филос. наук. Челябинск, 2008. – 26 с.
62. Ломакина Н.С. Формирование слушательской музыкальной культуры школьников-подростков. Автореф. дисс. канд. пед. наук. Москва, 2006. - 27 с.
63. Лосева-Демидова Е.С. Оперное искусство как фактор формирования ценностных ориентации зрительской аудитории. Автореф. дисс. канд. социол. наук. Москва, 2010. – 33 с.
64. Мартыненко Н.Д. Искусство как фактор формирования социального типа личности в условиях современной городской культуры. Автореф. дисс. канд. социол. наук. Курск, 2007. – 24 с.
65. Медведь Э.И. Педагогические основы культурно-досуговой деятельности : учебное пособие. – 2-е изд., испр. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 80 с.
66. Meliqo‘ziyev I.M. Kino-teleoperatorlik mahorati (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari). Darslik. – Toshkent, 2017. –Б.17-20.
67. Милорадова И.Н. Воспроизводство музыкальной культуры молодежью в современной коммуникативной среде. Автореферат дисс. канд. социол. наук. Белгород, 2012. – 19 с.
68. Миронов А.В. Концептуализация темпоральных понятий в философии музыки. Автореферат канд. филос. наук. Белгород, 2017. – 26 с.
69. Мостицкая Н.Д. Праздничное и повседневное в коммуникативном пространстве культуры: сущность, содержание, функциональность. Дисс-я докт. культурологии. Москва, 2019. – 358 с.
70. Moʻyayonov I.J. Qoraqalpoq xalq musiqasi asosida oʻquvchi-yoshlar maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning xususiyatlari. P.f.f.d. (PhD) diss-ya. Nukus, 2019. – 203 б.
71. Музыкальная педагогика. Исполнительство. Вып. XIV: сборник статей / колл. авторов; науч. ред. Л.С.Зорилова, М.Б.Сидорова. – М.: Академический проект, 2020. – 128 с.
72. Музыкальное образование в школе: Л.В.Школяр, В.А.Школяр, Е.Д.Критская и др. – М.: Издательский центр “Академия”, 2001. - 232 с.
73. Muslimov N.A. Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2004. - 128 б.
74. Назарова С.И. Формирование творческой личности в интегрированной художественной деятельности учащихся. Автореферат дисс. докт. пед. наук. Москва, 2006. – 44 с.

75. Новиков И.А. Коммуникативные характеристики функционирования музыки в российском социокультурном контексте. Автореферат дисс. канд. социол. наук. Ростов-на-Дону, 2009. – 24 с.
76. Ногина О.А. Семейно-ориентированное сопровождение музыкально-интонационного развития детей раннего возраста. Автореферат дисс. канд. пед. наук. Челябинск, 2014. – 27 с.
77. Околот М.В. Музыкальные потребности людей с различной степенью обученности в области музыки. <http://www.psychodic.ru/arc.php?page=5214>
78. Оухо‘jayeva Sh. O‘zbek musiqasi tarixi. Ma‘ruzalar matni. T., 2008. – 33 б.
79. Олейник М.А. Проблемы музыкальной коммуникации в современной культуре. Журнал “Философия и общество”. №1 (53)/2009. <https://www.socionauki.ru/journal/articles/130317/>
80. Олейник М.А. Функции музыки в европейской культуре: философско-антропологический аспект. Автореф. дисс. докт. филос. наук. Ростов-на-Дону, 2007. – 40 с.
81. Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. Monografiya. Toshkent, 2017. – 161 б.
82. Oripova R.I. Musiqiy to‘garaklar faoliyatida o‘smirlarda milliy g‘oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari ta‘lim misolida). Ped. fanl. nomzodi. diss-ya. Toshkent, 2011. – 153 б.
83. Орлова Т.С. Жанровый подход к обучению музыке в условиях дополнительного образования. Автореферат дисс. канд. пед. наук. Волгоград, 2019. – 25 с.
84. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс. - М. : Изд-во АСТ, 2018. 256 с.
85. Пак Ын Сук. Развитие творческой активности обучающихся в музыкальных образовательных учреждениях Республики Корея. Автореферат дисс. канд. пед. наук. Москва, 2018. – 24 с.
86. Пантелеева В.Ю. Развитие слушательской культуры обучающихся как психолого-педагогическая проблема. <http://irortsmi.ru/node/17>
87. Петрушин В.И. Музыкальная психология. Учебное пособие для вузов. – 2-е изд. – М.: Академический проект; Трикста, 2008. – 400 с.
88. Пинягина И.Ю. Роль классической музыки в формировании личности. Автореферат дисс. канд. филос. наук. Уфа, 2014. – 21 с.
89. Полозова А.В. Развитие музыкальных предпочтений у старших школьников к классической музыке в условиях взаимодействия с массовыми музыкальными жанрами. Дисс-я канд. пед. наук. Москва, 2011. – 212 с.
90. Поронок С.А. Музыкальное просветительство как педагогическое средство формирования культурной среды зарубежных русскоязычных университетов (на примере Приднестровского государственного университета им. Т.Г.Шевченко). Автореф. дисс. канд. пед. наук. Москва, 2019. – 25 с.

91. Primov R.T. Shaxs kamolotida ajdodlarimiz musiqa merosining oʻrni. Maqola. <http://jurnal.org/articles/2015/ped67.html>
92. Пронина Т.А. Развитие музыкально-творческих способностей младших школьников с разным уровнем интеллектуального развития в процессе певческой деятельности в общеобразовательной школе. Автореф. дисс. канд. пед. наук. 2005.
93. Рачина Б.С. Педагогическая практика: подготовка педагога-музыканта: учебно-методическое пособие / Б.С.Рачина. - 2-е изд., стер. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 512 с.
94. Резцова Т.М. Основы развития музыкального восприятия детей старшего дошкольного возраста в процессе слушания классической музыки / Материалы VIII Международной научной конференции. - Санкт-Петербург: Свое издательство, 2015. - С.69-71.
95. Реформы образования и направления в обучении искусствам (Основные положения 4-го научного семинара) / Корейский университет Кёвон, институт исследований обучения искусствам. Чонвонгун, 1996-97; Перспективы музыкального образования / Ред. Ким Ён Ён и др. Сеул, 2005.
96. Родионова Д.Г. Музыкальный менеджмент как ценностное явление духовной культуры России. Диссертация канд. культурологии. Краснодар, 2019. – 171 с.
97. Roʻziyeva D.I. Oliy taʼlim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuygʻusini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped. fanl. d-ri diss-ya. Toshkent, 2007. – 274 b.
98. Saipova D.Yu. Musiqiy-nazariy bilimlarni oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchi shaxsini shakllantirish (Boshlangʻich sinflar misolida). Ped. fanl. nomz. diss-ya. Toshkent, 2006. – 198 b.
99. Сайтбекова С.С. Использование исполнительского мастерства каракалпакского народа в воспитании школьников. Дисс-я канд. пед. наук. Ташкент, 2011. – 151 с.
100. Salayeva M.S. Oʻzbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish. Ped. f. doktori (DSc) diss-ya. Nukus, 2019. – 213 b.
101. Saliyeva Z.T. Pedagogik oliy taʼlim muassasalari talabalarining maʼnaviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. f. doktori (DSc) diss. Toshkent, 2017. – 215 b.
102. Салимова К., Додде Н. Педагогика народов мира: История и современность. - М.: Педагогическое общество России, 2001. - 576 с. (-С.186-187).
103. Самсонова Т.П. Феномен человека в отечественной музыкальной культуре. Автореферат дисс. доктора филос. наук. Санкт–Петербург, 2008. – 46 с.
104. Сафронова Н.Е. Развитие музыкального восприятия на уроках слушания музыки в детской школе искусств. Методическая работа. Ямало-Ненецкий АО. 2016. – 38 с.

105. Седашова Н.В. Методы формирования эстетических потребностей детей на занятиях музыки в дошкольном учреждении // Современные наукоемкие технологии. – 2019. – № 6. – С.191-196.
106. Смирнов Б.Ф. К проблеме типологии слушателей симфонических концертов. <http://ecsocman.hse.ru/data/500/594/1231/011.SMIRNOV.pdf>
107. Снежинская М.Г. Музыкальная индустрия как социокультурный феномен. Автореферат дисс. канд. социол. наук. Москва, 2019. – 24 с.
108. Соколов В.Г. Работа с хором: учебное пособие / В.Г.Соколов. – 3-е изд., доп. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 240 с.
109. Сохор А.Н. Музыка как вид искусства: учебное пособие / А.Н.Сохор. – 3-е изд, стер. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 128 с.
110. Стулова Г.П. Дидактические основы обучения пению: монография / Г.П.Стулова. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 216 с.
111. Taylaqova Sh.N. O‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish (teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar va internet xabarlarini asosida). Ped. f. doktori (DSc) diss. Toshkent, 2018. – 145 b.
112. Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini shakllantirish (“Pedagogika tarixi” fani misolida). Ped. fanl. nomz. diss-ya. Toshkent, 2012. – 147 b.
113. Таниева Г.М. Музыка как критерий социальной идентификации // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия Социальные науки, 2011. №4 (24), -С.74-80.
114. Танько Т.С. Закономерности воздействия музыки на человека связь музыкального искусства и педагогики. www.SuperInf.ru
115. Тверезовский К.И. Социально-психологические условия возникновения музыкального фанатизма в подростково-юношеском возрасте. Автореф. дисс. канд. психол. наук. Москва, 2009. – 28 с.
116. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей: учебное пособие / Б.М.Теплов. – 4-е изд., стер. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 488 с.
117. Ткачук Д.В. Факторы формирования и функционирования музыкально-художественных вкусов современной российской молодежи. Автореф. дисс. докт. социол. наук. СПб, 2021. – С.14.
118. Тригулова А.Х. Формирование музыкального вкуса у учащихся общеобразовательных школ в процессе изучения творчества русских композиторов XIX века // Филология ва маданият масалалари. Илмий-услубий мақолалар тўплами. Карабук, 2019. –Б.313-316.
119. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. M harfi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/ - Б.844; 845; 850.
120. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. E harfi. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –Б.281. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/

121. Уколова Л.И. Педагогически организованная музыкальная среда как средство становления духовной культуры растущего человека. Автореф. дисс. докт. пед. наук. Москва, 2008. – 56 с.
122. Umarov M.B. Mannon Uyg‘ur ijodining o‘zbek teatri estetikasi. Fal. f. n. diss-ya. Toshkent, 2005. – 150 б.
123. Ушкарев А.А. Аудитория искусства: культурный феномен в социальных измерениях. Автореф. дисс. докт. культурологии. Москва, 2018. – 42 с.
124. Фадеева С.А. Преемственность в процессах музыкального воспитания и образования (детский сад-школа-колледж-ВУЗ). Автореф. дисс. докт. пед. наук. Москва, 2007. – 55 с.
125. Халилов Ф.Н. Дидактические основы инструментально-исполнительской подготовки будущих учителей музыки. Дисс-я докт. пед. наук. Ташкент, 2006. – 266 с.
126. Цыганкова И.Г. К проблеме изучения современной институциональной системы музыкальной культуры. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-probleme-izucheniya-sovremennoy-institutsionalnoy-sistemy-muzykalnoy-kultury> –С.540.
127. Цытович В. Размышления о роли мелодии в современной музыке // Традиции и новаторство (вопросы теории, истории музыки и музыкальной педагогики). Избранные статьи: учебное пособие для СПО / В.И.Цытович; ред. –сост. М.М.Манафова, А.А.Красавин, И.В.Козлова (Цытович). – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2021. – 320 с.
128. Чекина Л.Ф. Психология развития: учебное пособие для вузов / Л.Ф.Чекина. – 2-е изд., стер. – Санкт-Петербург: Лань, 2022. – 208 с.
129. Чжан Цин. Система Карла Орфа в музыкальном образовании дошкольников Китая. Автореф. канд. пед. наук. Екатеринбург, 2018. – 24 с.
130. Шафеев Р.Н. Музыкальная культура как система. Автореф. дисс. канд. филос. наук. Казань, 2007. – 22 с.
131. Шилова О.Е. Дидактические особенности изучения артменеджмента студентами музыкальных специализаций в вузах культуры и искусств : автореф. дисс. к.п.н. : 13.00.08. – М. : МГУКИ, 2006. – 25 с.
132. Шиповская Л.П. Музыка и общество: социологический аспект (развитие и состояние музыкального общественного сознания). Научный журнал «Сервис Плюс», 2013. №1. –С.3-9. <https://cyberleninka.ru/article/n/muzyka-i-obschestvo-sotsiologicheskii-aspekt-razvitie-i-sostoyanie-muzykalnogo-obschestvennogo-soznaniya>
133. Шиповская Л.П. Музыка как феномен духовной культуры. Автореф. докт. филос. наук. Москва, 2005. - 383 с.
134. Щербакова А.И. Феномен музыкального искусства в становлении и развитии культуры: Автореф.дисс. докт. культурологии. М., 2012. – 53 с.
135. Щирин Д.В. Об изменении понимания роли музыкального мышления и музыкального восприятия в педагогическом процессе. Электронный научно-образовательный вестник «Здоровье и образование в

XXI веке. 2018, том 20 [5]. <http://dx.doi.org/10.26787/nydha-2226-7417-2018-20-5-18-25>

136. Элькан О.Б. Парадигма музыкально-литературного синтеза в немецкой художественной культуре XX века. Автореф. дисс. докт. искусствоведения. Краснодар, 2020. – 52 с.

137. Юрьева А.В. Взаимодействие театра и публики в малом городе: социологический анализ. Автореф. дисс. канд. социол. наук. Екатеринбург, 2012. - 18 с.

138. Уколова Л.И. Педагогически организованная музыкальная среда как средство становления духовной культуры растущего человека. Автореф. дисс. докт. пед. наук. Москва, 2008. – 56 с.

139. Янь Цзе. Система подготовки педагога-музыканта для общеобразовательной школы на кафедрах фортепиано в университетах КНР. Автореферат дисс. канд. пед. наук. Москва, 2020. – 25 с.

140. Yarmatov R.B. Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.f. doktori (PhD) diss. Toshkent, 2017. – 138 б.

141. https://www.giveanote.org/media/2017/09/The-Status-of-Music-Education-in-US-Public-Schools-2017_reduced.pdf

142. Коляденко Н.П. Синестетичность музыкально-художественного сознания (на материале искусства XX века). Автореферат дисс. доктора искусствоведения. Новосибирск, 2006. – 48 с.

143. <file:///C:/Users/NASA/Downloads/Documents/o-nedopustimosti.pdf>

144. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilini%20izohli%20lug'ati%20-%20E.pdf

145. https://ozlib.com/917647/iskusstvo/muzykalnye_potrebности_obschestva_funktsii_muzyki

146. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/madaniyat-uz/>

147. http://vestnik.yvspu.org/releases/pedagoga_i_psichologiy/15_7/

148. https://gufo.me/dict/pedagogy_terms/восприятие

149. https://studme.org/118427/menedzhment/vidy_slushaniya_kelli

150. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/madaniyat-uz/>

151. <https://nsportal.ru/shkola/dopolnitelnoe-obrazovanie/library/2014/05/30/muzykalnyy-alfavit-po-metodu-khkhayner>

152. <http://madaniyat2.blogspot.com/2009/05/madaniyat.html>